Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar echadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni echadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar echadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarining darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Umumiy tilshunoslik” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 10 ta katta mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajar. muddat.	Hajmi (soatda)	
				Tillar bo‘vich	Tarjimonlik
I semestr					
1	«Lingvistika» termini keng va tor ma’nolarda qo‘llanilishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3-haftalar	2	2
2	Til, nutq va kalom tushunchalari. Tilning ta’riflari: vazifa nuqtai nazaridan berilgan ta’riflar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4-haftalar	2	2
3	Substansiya va forma. Sistema (tizim) va struktura (tuzuk) tushunchalari va bu haqidagi turli fikrlar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Masalalar echish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish.	5 -haftalar	2	2
4	Til tizimi. Sintagmatika va paradigmatika	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6 -haftalar	2	2
5	Til va nutq birliklari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7 -haftalar	2	2
6	Grammatik asbtraksiya va uning turlari. So‘z turkumlari. Semantik grammatika va formal grammatika	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8 -haftalar	2	2
7	Zamonaviy grammatika nazariyalari va grammatika turlari. Tipologiya (turkshunoslik) va til turlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9-haftalar	2	2
8	Tilshunoslik uslublari. Qiyos va tarixiy qiyos CHog‘ishtirish. Distributiv tahlil.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10-haftalar	2	2
Jami			16/16	16	16

Dasturning informatsion – metodik ta'minoti

Umumiy tilshunoslik fanini o'qitish ishiga yangi informatsion texnologiyalardan foydalangan holda yondashiladiki, unga ko'ra o'qitish jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishga erishiladi. Umumiy tilshunoslik bo'yicha ta'limdan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlar muvofiqlashtirilib, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Umumiy tilshunoslik fanini o'qitishda ta'lim – takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassal tasvirlanib, aniq qayd etiladi. Mazkur fandan o'quv materiali aniq ifodalangan

o'quv maqsadiga mos qayta tuzib, ishlab chiqariladi, ayrim qismlarga ajratiladi, o'quv materialini o'rgatishning alternativ yo'llari nazarda tutiladi, har bir bo'lakni o'rganish test yordamida nazorat etilib, xato, kamchiliklar tuzatilib to'g'rilab boriladi. Texnologik yondashuvni yo'llash umumiy tilshunoslik fanidan qo'yilgan maqsadlariga erishishini kafolatlaydi.

Filologik yo'nalish texnologik xaritasi

O'quv shakli: kunduzgi, kurs: 4; semestr: 7

Jami o'quv yuklamasi: 38 soat. Ma'ruza 12 Seminar –10 soat;

Mustaqil ta'lim –16 soat.

Seme strlar №	Mavzul ar tartib raqami	O'quv yuklamasi						Baholash turi	Bahol ash shakli	Ball		Muddati
		Mustaqil ta'lim	Ma'ruza	Amaliy	Laborat.	Seminar	Jami			Maks	Sar.	
7	1-2	8	6	4	-		18	1-JB	Og'za ki	20	11	12. 2016
	3-5	8	6	6	-		20	2-JB	Og'za ki	20	11	02. 2017
	1-5							OB	YOz ma	30	17	02.20 17
	1-5							JB+ OB		70	39	
	1-5							YAB	YOz ma	30	17	02.20 17
	1-5							JB+ OB+ YAB		100	55	
7	1-5	16	12	10			38					

Tarjimonlik yo'nalishi texnologik xaritasi

O'quv shakli: kunduzgi, kurs: 4; semestr: 7

Jami o'quv yuklamasi: 38 soat. Ma'ruza 10 Seminar –12 soat;

Mustaqil ta'lim –16 soat.

Seme strlar №	Mavzul ar tartib raqami	O'quv yuklamasi						Baholash turi	Bahol ash shakli	Ball		Muddati
		Mustaqil ta'lim	Ma'ruza	Amaliy	Laborat.	Seminar	Jami			Maks	Sar.	
7	1-2	8	4	6	-		18	1-JB	Og'za ki	20	11	12. 2016
	3-5	8	6	6	-		20	2-JB	Og'za ki	20	11	02. 2017
	1-5							OB	YOz ma	30	17	02.20 17
	1-5							JB+ OB		70	39	

	1-5							YAB	YOz ma	30	17	02.20 17
	1-5							JB+ OB+ YAB		100	55	
7	1-5	16	10	12			38					

“Umumiy tilshunoslik” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezoni

“Umumiy tilshunoslik” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir marta o‘tkaziladi va shakli yozma o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. YAkuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “YOzma ish” shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda

o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Umumiy tilshunoslik» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YA.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi. **Ball Baho Talabalarning bilim darajasi**

86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $K = \frac{V}{100}$,

100

bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savol iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan

o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

JORIY BAHOLASH

T/r	Baholash mezonlari	Ajratilgan ball	JB-1	JB-2	Jami
1.	Seminar mashg'ulot darsida faol qatnashish. O'zlashtirish darajasi va seminar mashg'ulotdagi daftarlarining holati.	10	0-5	0-5	10
2.	Seminar mashg'ulotlari savollariga javob berish. Mustaqil fikri. Talabaning o'tilgan mavzu bo'yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etishi.	10	0-5	0-5	10
3.	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi	10	0-5	0-5	10
4.	Mustaqil nazariy tayyorgarlik ko'rish darajasi.	10	0-5	0-5	10
	Jami ball	40	20	20	40

ORALIQ BAHOLASH

T/r	Baholash mezonlari	Ajratilgan ball	OB	jami
1.	Fanning ON uchun belgilangan bo'limlari bo'yicha nazariy bilimlarning talabalar tomonidan to'liq o'zlashtirilganligi	10	10	10
2.	Qo'yilgan savollarga berilgan javoblarning ilmiy asoslanganligi hamda olingan nazariy bilimlarni misollar orqali isbotlash ko'nikmasining shakllanganligi	10	10	10
3.	Talabaning o'tilgan fan bo'yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etishi	10	10	10
	Jami:	30	30	30

YAKUNIY BAHOLASH

1.	Talabaning olingan nazariy bilimlarini to'la o'zlashtirganligi	10	10	10
2.	Talaba tomonidan berilgan yozma javoblarning aniq va lo'nda holda ilmiy jihatdan asoslanganligi	10	10	10
3.	Asosiy va qo'shimcha adabiyotlarda berilgan fikrlarni mustaqil yoritish olish darajasining yuqoriligi	10	10	10
	jami:	30	30	30
	Hammasi: 40+30+30 =	100	100	100

Yakuniy va oraliq nazoratlarda baxolash mezonlari

Ball	Talabani bilim, ko'nikma, fikrlash darajasi
YAB/ON 30	Talaba fanning mohiyati va filologiyadagi o'rnini, o'tilgan materialni chuqur tushunadi, savolga aniq va to'liq javob beradi, faktlarga to'g'ri baho beradi, mustaqil fikrlay oladi, xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni to'g'ri va o'ziga xos usullarda hal qila oladi, to'g'ri xulosa chiqaradi.
28	Talaba o'tilgan materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob beradi, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga to'g'ri baho bera oladi, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni to'g'ri hal qiladi, lekin xulosalarda ba'zi noaniqliklarga yo'l qo'yadi.
27	Talaba o'tilgan materialni va uning mohiyatini ancha chuqur tushunadi, savolga to'liq javob beradi. Lekin umumiy xarakterdagi ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga to'g'ri baho bera oladi, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslash qobiliyati bor, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni umuman to'g'ri hal qila oladi, lekin xulosalarda noaniqliklar uchraydi.
25	Talaba o'tilgan materialni va uning mohiyatini juda yaxshi tushunadi, savolga umuman to'liq javob beradi, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga to'g'ri baho bera oladi, mustaqil fikrlay oladi, lekin bazi xulosalarni to'liq asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni biroz qiyinchilik bilan, lekin umuman to'g'ri hal qiladi, xulosalarda noaniqliklar uchraydi.
23	Talaba o'tilgan materialni va uning filologiyadagi ahamiyatini yaxshi tushunadi, savollarga to'liq javob beradi, lekin bazi umumiy xarakterdagi xatoliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga baho berishda biroz qiynaladi, umuman mustaqil fikrlay oladi, lekin ayrim xulosalarni asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ancha ijodiy yondashadi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda ayrim umumiy xarakterdagi xatoliklarga yo'l qo'yadi, xulosalarida noaniqliklar uchraydi.
20	Talaba o'tilgan materialni va uning ahamiyatini tushunadi, savollarga ancha aniq va to'liq javob beradi, lekin ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi, ayrim faktlarni shunchaki yodlab olganligi sezilib turadi, ayrim xulosalarni to'g'ri asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi, xulosalarida noaniqliklar uchraydi.

16	Talaba o‘tilgan materialni umuman biladi. Savollarga aniq va to‘liq javob berishga xarakat qiladi, lekin ayrim jiddiy xatoliklarga yo‘l ko‘yadi, qator faktlarni shunchaki yodlab olganligi seziladi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni umuman xal qiladi, ba’zi jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.
12	Talaba o‘tilgan materialni umuman biladi, aniq javob berishga harakat qiladi, lekin javobda jiddiy kamchiliklar bor, mulohaza yuritishda xatoliklarga yo‘l qo‘yadi, faktlarni asosan shunchaki yodlaganligi seziladi, ayrim xulosalarni asoslab bera olmaydi va masalani xal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni qiynalib bo‘lsada hal qiladi, lekin jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.
10	Talaba o‘tilgan materialni qisman biladi. Javobda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi, faktlarni baholab bera olmaydi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni xal qilishda qiynaladi yoki xal qila olmaydi.
6	Talaba o‘tilgan material haqida qisman tasavvurga ega, material yaxshi o‘zlashtirilmagan, bilgan narsasini ham faqat yodlaganligi sezilib turadi, faktlarga baho bera olmaydi, amaliy topshiriqlarni deyarli hal qila olmaydi.
4	Talaba o‘tilgan material xaqida juda kam tasavvurga ega, ayrim faktlarni uzuk-yuluq bilishi mumkin, amaliy topshiriqlarni xal qila olmaydi, jiddiy qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.
1	Talaba material bo‘yicha deyarli hech narsa bilmaydi, juda kam tasavvurga ega yoki umuman tasavvurga ega emas.
30	

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

11. Х.Бердиёров, Т.Хўжаев, Ю.Йўлдошев. Умумий тилшунослик. Самарқанд: 1974.
12. Н.Баскаров, А.Содиқов, А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик. Тошкент: 1979.
13. Общее языкознание. Формы существования. Функция. История языка. Наука 1970.
14. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Наука, 1978.
15. Б.А. Звегинцев. Язык и лингвистическая теория. М. 1973.
16. В.М. Солнцев. Язык как системно - структурное образование. Восточная литература М. 1971.
17. Ю.С. Степанов. Методы и принципы современной лингвистики. Наука, 1975.
18. Джон Лаёнз. Введение в теоретическую лингвистику М. 1978.
19. Н.Б. Мечковская. Умумий тилшунослик тилларнинг тузилмавий ва ижтимоий типологияси. Тошкент, 2006.
20. Р.Расулов. Умумий тилшунослик. Тошкент, 2005.

Қўшимча:

13. Ю.В. Рождественский Лекции по общему языкознанию М. 1990.
14. Ф. де Соссюр Труды по общему языкознанию М. 1977.
15. Новое в лингвистике М. Тома 1-25.
16. С. Усмонов. Умумий тилшунослик, Тошкент 1972.
17. Н.Б. Мечковская. Общее языкознания. Минск, 2004.
18. Реформатский. «Введение в языкознание». 2005.
19. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш ИИ қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика-Тошкент: 1999.
20. Курилович э. Заметки о значении слова // Вопросы языкознания, 1955.
21. Канселсон С.Д. Содержание слова, значения и обозначение. М, 1965.
22. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. М.: Асадемия 2004. 204с.
23. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах. «Сангзор» 2006.
24. Широков О.С. Языковедение. Введение в науку о языках. Москва 2003.
25. Ҳ.Неъматов, Р.Расулов Ўзбек тили систем лексикологияси асослари- Т., 1995.
26. Р.Расулов Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши.- Т., 2005.
27. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах. «Сангзор» 2006.
28. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. – М., 1986.

29. Ф.М.Березин. История лингвистических учений. – М., 1987.
30. История лингвистических учений. Средневековая Европа. –Л., 1985.
31. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. – Т., 2003.
32. Бушуй Т. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: Сам ДЧТИ, 2002.

Internet va Ziyonet saytlari

- 1.<http://uz.denemetr.com/docs/768/index-228620-1.html>
2. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-69349-1.html?page=3>
- 3.http://tjor.ucoz.ru/62513_golovin_b_n_vvedenie_v_yazykoznanie.pdf
- 4.<http://lb3.textedu.ru/docs/647/index-7882.html>

Zamonaviy dars turlari:

1. „Maruza“ darsi.
2. „Seminar“ darsi.
3. „Sinov“ darsi.
4. „Musabaqa“ darsi.
5. „Press konferensiya“ darsi.
6. „Mushoira“ darsi.
7. „Talaba“ darsi.
8. „Suhbat“ darsi.
9. „Ijod“ darsi.

Xorijda qo'llaniladigan dars turlari:

1. „Aqliy hujum“ darsi.
2. „Munozara“ darsi.
3. „O'z o'rningni top“ darsi.
4. „Kichik guruhlarda ishlash“ darsi.
5. „Menyu“ darsi.
6. „Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash“ darsi.

7. „Debatlar “ darsi
8. „Tanqidiy fikrlash “ darsi.
9. „Batakenet“ darsi.
10. „Bumerang“ darsi.
11. „Binefis “darsi.
12. „Portret“ darsi.
13. „Intervyu” darsi.
14. „Miting“darsi.
15. „Dialog“ darsi.
16. „Auksion“ darsi.
17. „Ishbilarmonlar “ darsi.
18. „Yelpig'ich“ darsi.
19. „Ixtiro“darsi.

Umumiy tilshunoslikni o'qitishda foydalanish tavsiya etilgan zamonaviy dars turlari va ularda qo'llanilishi tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalar

1. Muammoli o'qitish - tadqiqiy metodlar sirasiga mansub bo'lib, o'quvchilarning bilish faolligi va ijodiy mustaqilligini oshirish, o'quvchilarning ilmiy bilimlarini o'zlashtirish faolligini taminlovchi maqsadli va ketma-ketlikka asoslanadi.

2. Integrasiyalashgan (mujassamlashtirilgan) o'qitish - o'quvchilarning his qilish-umumlashtirish xususiyatlariga asoslangan talim jarayonini yaratish. Mavzularni mazmunan biriktirish hisobiga mavzuni chuqur o'zlashtirishga erishishdir. Bu usul o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan talim metodidir.

3. Modulli o'qitish - talim mazmunini shaxsning o'ziga xos ehtiyojlari hamda tayanch tayorgarligiga moslashtirish. O'quvchilarning alohida o'quv dasturlari bilan mustaqil ishlashini ta'minlash orqali talimning individualligini oshirish.

4.Tabaqalashtirilgan o'qitish – qiziqish vaqobiliyatlari yuzaga chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish va bunda 1-, 2-,3-,4- murakkabligi darajalarida dastur materiallarini o'zlashtirishga qaratilgan individual ta'lim metodidir.

5. Faol o'qitish – o'quvchilarning faolligini ta'minlash kasbiy faoliyat mazmunini loyihalashtirish asosida amalga oshiriladigan o'yin usullaridandir.

6.Maruza darsi –bundan seminar mashg'ulatlari davrida foydalanish tavsiya etiladi. Unga ko'ra, 1-2 talaba o'zlarini notiq deb hisoblab, muayyan mavzularga ma'ruza o'qiydilar. Bu jarayonda asosiy e'tibor notiqning auditoriyaga qay darajada ta'sir ko'rsatishiga qaratiladi.

7.Aqliy hujum darsi. Bu darsda notiqalar ikki guruhga ajratiladi va ularning notqlik qobiliyatlari tekshiriladi. Tomonlarning har ikkisi uchun yagona mavzu belgilanib, mazkur mavzuning yoritilishi va uning auditoriyaga qay tarzda ta'sir etishi masalasiga, shuningdek, ba'zilarining to'g'riligiga asosiy e'tibor qaratiladi.

8.Tanqidiy fikrlash darsi. Bu dars ham seminar mashg'ulotlariga mo'ljallangan, bo'lib unga muayyan mavzuning yoritilishiga har bir talabaning o'z nuqtai nazaridan yondoshishi talab qilinadi.

1.3.3. MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI VA ADABIYOTLAR

RO'YXATI

	Mavzular	Soat	Adabiyotlar raqami va sahifasi
	Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari va kursi haqida..	2	1. (3-6), 2. (5-12),
	Umumiy tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi.	1	15. (4-7), 3. (6-11),
	Ayni fanning tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning nazariy masalalari	2	4. (7-18), 11. (614-621).
	Jaxon tilshunosligining tarixiy bosqichlari.	1	1. (175-206), 2. (118-122),

	Qadimgi Hind, Xitoy, Yunon, Rim, Arab, Yevropada uyg'onish davridagi, Sobiq sho'rolar davri, hozirgi o'zbek tilshunosligi.		3. (213-221; 241-263), 13. (105-112).
	«Lingvistika» termini. Dinamik va statik lingvistika. Ichki va tashqi lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari ularning mohiyati.	1	1. (12-26), 2. (32-39), 4. (15-19), 5. (13-14), 7. (26-40), 8. (18-26), 9. (30-38), 10. (12-16), 11. (27)
	Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materialli. Nutq faoliyati. Til va nutq birliklari. Tovush va fonema.	2	1. (79-106), 3, (128-137), 4. (92-103), 5. (366-383), 7. (114-116), 9. (65-73), 13. (67-76), 11. (202-210).
	Substansiya va forma. Substansiya (mohiyat) – ichki, shakl – tashqi tomonlar sifatida falsafadagi mohiyat va hodisaning tilda mazmun va shakl sifatida talayin qilinishi. Til va nutqqa uning birliklariga shakl va mazmunning tovush va ma'noning xosligi. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi.	2	1. (79-106), 3. (15-19), 4. (92-103), (111-141), 7. (221-287), 9. 92-98), 10. (42-56).
	Tipologiya va lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik tasnifi. Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy – tarixiy, chog'ishtirish, distributiv tahlil va boshqalar.	2	1. (139-147), 3. 9152-156), 4. (130-136), 5. (50-

			110),7.(80-93), 11. (114-116), 13. (01-104).
	Jami:	13	

Adabiyotlar:

- 1.R. Rasulov. Umumiy tilshunoslik. – T., 2010.
- 2.H.Ne'matov, O. Bozorov. Til va nutq.- T., 1993.
- 3.S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. – T., 1972.
- 4.N.A.Baskakov va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. – T., 1979.
- 5.V.I.Koduxov. Obshee yazikoznanie. – M., 1974.
- 6.N.A.Kondrashov. Istoriya lingvisticheskix ucheniy. – M., 1986.
- 7.F.M.Berezin. Istoriya lingvisticheskix ucheniy. – M., 1987.
- 8.Aristotel. Poetika. – T., 1980.
- 9.Istoriya lingvisticheskix ucheniy. Srednevekovaya Evropa. –L., 1985.
- 10.S.Mutalliboev. XI asrning buyuk filologlari // Devonu lug'otit turk. – T., 1960.
- 11.E.Fozilov. SHarqning mashhur filologlari. – T., 1971.
- 12.X.Doniyorov, U.Sanaqulov. Alisher Navoiy – tilshunos olim. – T., 1999.
- 13.Lingvisticheskoy ensiklopedicheskoy slovar. – M., 1999.
- 14.T.Xo'jaev. Til barqaror va ochiq tizimdir // Poetika va lingvistika muammolari. – Samarqand, 2002.
- 15.«Umumiy tilshunoslik kursi» bo'yicha ma'ruzalar matni. 2000.
- 16.Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish. – T., 2003.
- 17.Berdiyev H., Xo'jaev T. Umumiy tilshunoslik. – S., 1974.
- 18.Bushuy T. Umumiy tilshunoslik. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Sam DCHTI, 2002.

MAVZULARNING SOATLAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA ISHLANMASI

I mavzu:	Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari va kursi haqida. Umumiy tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi. Ayni fanning tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning nazariy masalalari.
---------------------	--

1.1.TA'LIM BERISH TEXNOLOGISINING MODEL

Mashg'ulot vaqti 80 minut	Talabalar soni 70 - 90 nafargacha
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborot berish asosidagi kirish ma'ruzasi
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.Umumiy tilshunoslik fanining o'rganish sohasi 2.Umumiy tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi 3.Tilning sistema ekanligi, til belgilari, til va nutq dioxotomiyasi 4.Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar to'g'risida keng ma'lumot berish. 1.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Umumiy tilshunoslik fanining o'rganish sohasi, umumiy tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tilning sistema ekanligi, til belgilari, til va nutq dioxotomiyasi, tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar to'g'risida keng ma'lumot berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • <u>O'quv kursining maqsadi</u> va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma berish; • Umumiy tilshunoslik fanining o'rganish sohasi, umumiy tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tilning sistema ekanligi, til belgilari, til va nutq dioxotomiyasi, tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar to'g'risida keng ma'lumot berish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Umumiy tilshunoslik fanining tekshirish obyektni anglab etishadi va uning hozirgi paytda kengaya borganligini anglaydilar ; • Umumiy tilshunoslik fanining xakida anik fikrga ega buladilar; • Umumiy tilshunoslik fanining boshka fanlar urtasida tutgan urnini anglab oladi;
<i>Ta'lim berish usullari</i>	o'zbek tilida ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, taqdimot, tushuntirish
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruh bo'lib ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron doska, videofilm
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol javob.

1.2. “Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari va kursi haqida. Umumiy tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi. Ayni fanning tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning nazariy masalalari. “ MA’RUZA MASHG’ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
1. M avzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ukuv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chikaradi mavzular ruyxatini beradi 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maksadi va ukuv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Asosiy mavzu mazmuni buyicha ma'lumotlar bayon kilishga utadi.	Tinglaydi. Tinglaydi.
2 - Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maksadida savol beriladi 2.1.1. Tilshunoslikning tillarga nisbatan turlari nimadan iborat? 2.1.2. Umumiy tilshunoslikning asosiy vazifasi va muammolarini sanab bering? 2.1.3. Tilshunoslik boshqa qanday fanlar bilan bog'liq? 2.1.4. Umumiy tilshunoslikning ichki tuzilishi nimalardan iborat? 2.1.5. Tilshunoslikning taraqqiyot davrlarini sanab bering? 2.2. Javoblar umumlashtirib, Umumiy tilshunoslikning urganadigan soxalari buyicha ma'lumot beradi. 2.3. Umumiy tilshunoslikning tor va keng ma'noda tushunishlik xakida fikrlar bayon kilinib, barcha tillarga xos jihatlar o'rganilishi haqida ma'limot beriladi. 2.4. Talabalardan tilshunoslikka oid fanlarning nomlari surab olinadi va ularning tekshirish obykti xakida fikr bayon kilinadi. 2.5. Umumiy tilshunoslikning boshqa fanlar bilan buladigan alokasi misollar yordamida yoritiladi.	Savolga javob beradi. Tinglaydi. Berilgan savollarga javob beradi.
2. Y akuniy bosqich (10 daqiqi)	3.1. Mavzu buyicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa kilinadi. 3.2. Mustakil ishlash uchun umumiy tilshunoslikka oid fanlarning urganish manbalari xakida ma'lumot tuplab topshiriladi. 3.3. Fan bilan bog'liq adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish	Savollar beradi. Vazifani yozib oladi.

1-ma`ruza (2 soat)

Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari va kursi haqida.

Umumiy tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi.

Ayni fanning tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning nazariy masalalari.

Ma`ruza rejasi:

1. Umumiy tilshunoslik fanining o`rganish sohasi
2. Umumiy tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi
3. Tilning sistema ekanligi, til belgilari, til va nutq dixotomiyasi
4. Tilning paydo bo`lishi haqidagi farazlar to`g`risida keng ma`lumot berish.

«Umumiy tilshunoslik» fani tilshunoslik fanlari sirasida eng murakkab va keng qamrovli ilmiy-nazariy, falsafiy fan sifatida ajralib turadi. Ushbu fanning murakkabligi, keng qamrovli va falsafiy fan ekanligi bevosita o`rganiladigan o`ta jiddiy muammolar bilan, fikr yuritiladigan dolzarb masalalar bilan, lisoniy hodisalarning (faktlarning) mohiyati bilan, ularga qaysi nuqtai nazardan yondashish bilan, ularni chuqur tahlil qilish va ulardan obyektiv ilmiy xulosalar chiqarish bilan belgilanadi.

«Umumiy tilshunoslik» fanining faollik ko`rsatish chegarasi «cheksiz» bo`lib, ayni fan o`z kuzatishlarini jahon tilshunosligi tarixiga oid zarur masalalardan, yetakchi oqimlar va yo`nalishlardan boshlab, hozirgi tilshunoslikning eng muhim va murakkab nazariy muammolarini, ta`limotlarini o`rganish bilan - nafaqat tilshunoslikning balki barcha fanlar uchun metodologik asos bo`lib xizmat qiladigan dialektik falsafa hamda psixologiya, mantiq kabi fanlarga ham bevosita aloqador bo`lgan muammolarni qamrab olishi bilan yakunlaydi.

Aytilganlarning isboti sifatida «Umumiy tilshunoslik» fani o`rganadigan asosiy muammolar qatoriga quyidagilarni kiritamiz.

1. Til va jamiyat (millat).
2. Til va tarix.

3. Til va tafakkur.
4. Til semiotik ob`ekt sifatida.
5. Til va nutq.
6. Til sistema va struktura sifatida.
7. Tilda substanciya va forma.
8. Til belgisi va ma`no.
9. Til va yozuv.
10. Tilni tadqiq qilish usullari va boshqalar.

«Umumiy tilshunoslik» fani talabalarga nima uchun kerak?

«Umumiy tilshunoslik» fani, dastavval, talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash uchun, ularni shu yo`nalishda puxta, «hushyor» qilish uchun zarur. Nazariy masalalar bilan mukammal qurollangan talabalargina (faqat talabalar emas) tom ma`nodagi filolog - tilshunos sifatida shakllanadi. Shuningdek, ular til hodisalari tahlilidan ilmiy xulosalar, g`oyalar chiqara oladi, hodisalar mohiyatiga alohida e`tibor beradi, nazariya bilan amaliyotni dialektik munosabatda oladi. Til va nutq birliklarini chuqur o`rganish jarayonida dialektik falsafaning shakl va mazmun, umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalari nuqtai nazaridan, shularga asoslangan holda fikr yuritadi, kuzatishlar olib boradi.

«Umumiy tilshunoslik» fani talabalarning umumlingvistik tayyorgarligini, bilim darajasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, yangi nazariya va faktik materiallar bilan tanishtiradi, mustaqil, ijodiy fikr-mulohaza yuritishga, izchillikka o`rgatadi, nazariy saviyasini yuksaltiradi, ularni ilmiy tadqiqotning, lisoniy tahlilning metodologiyasi va metodikasi bilan qurollantiradi.

«Umumiy tilshunoslik» fani haqida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, ushbu fan bo`yicha rus hamda o`zbek tilshunosligida yaratilgan ishlarga ijodiy yondashgan va ulardan foydalangan holda o`quv qo`llanmasida quyidagi dolzarb massalalarga, aniqrog`i, dastavval, birinchi masalaga to`xtalamiz, fikr yuritamiz. Bular:

1. Tilshunoslik tarixi.
2. Tilshunoslikning nazariy masalalari.

3. Tilshunoslik metodlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. T., 200
2. N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizov. Umumiy tilshunoslik. T., 1979.
3. S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.
4. Yoʻldoshev B. Umumiy tilshunoslik asoslari. S., 2005..

**Samarqand davlat chet tillar
instituti**



Samarqand-2016

Umumiy tilshunoslik fani o`rganadigan asosiy muammolar:

- 1. Til va jamiyat (millat).
- 2. Til va tarix.
- 3. Til va tafakkur.
- 4. Til semiotik obyekt sifatida.
- 5. Til va nutq.
- 6. Til sistema va struktura sifatida.
- 7. Tilda substansiya va forma.
- 8. Til belgisi va ma'no.
- 9. Til va yozuv.
- 10. Tilni tadqiq qilish usullari va boshqalar.

Umumiy tilshunoslikning dolzarb masalalari:

- Tilshunoslik tarixi
- Tilshunoslikning nazariy masalalari
- Tilshunoslikning tadqiqod metodlari

Mavzu: Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari

- Reja:
- 1. Umumiy tilshunoslikning ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi.
- 2. Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari.
- 3. Umumiy tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
- 4. Umumiy tilshunoslikning nazariy masalalari.

MAVZULARNING SOATLAR BUYICHA TAQSIMOTI VA ISHLANMASI

II mavzu:	Jaxon tilshunosligining tarixiy bosqichlari. Qadimgi Hind, Xitoy, Yunon, Rim, Arab, Yevropada uyg'onish davridagi, Sobiq sho'rolar davri, hozirgi o'zbek tilshunosligi.
------------------	--

1.1.TA'LIM BERISH TEXNOLOGISINING MODELI

Mashg'ulot vaqti 80 minut	Talabalar soni 70 - 90 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Axborot berish asosidagi ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Eng qadimgi tilshunoslik maktablari. 2. Qadimgi hind tilshunosligi. 3. Qadimgi Xitoy tilshunosligi. 4. Qadimgi Gretsiya va Rimda tilshunoslik.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Eng qadimgi tilshunoslik maktablari.Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligi.Qadimgi Gretsiya va Rimda tilshunoslik. Umumiy tilshunoslik fanining tarixi to'g'risida keng ma'lumot berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>

• <u>O'quv kursining maqsadi</u> va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma berish; Eng qadimgi tilshunoslik maktablari.Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligi.Qadimgi Gretsiya va Rimda tilshunoslik. Umumiy tilshunoslik fanining tarixi to'g'risida keng ma'lumot berish.	Umumiy tilshunoslik fanining tekshirish obyektini anglab yetishadi va uning hozirgi paytda kengayib borganligini anglatadilar ; Umumiy tilshunoslik fanining xakida anik fikrga ega buladilar; Umumiy tilshunoslik fanining boshka fanlar urtasida tutgan urnini anglab oladi;
<i>Ta'lim berish usullari</i>	o'zbek tilida ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, taqdimot, tushuntirish
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruh bo'lib ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron doska, videofilm
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol javob.

1.2. “Jaxon tilshunosligining tarixiy bosqichlari. Qadimgi Hind, Xitoy, Yunon, Rim, Arab, Yevropada uyg'onish davridagi, Sobiq sho'rolar davri, hozirgi o'zbek tilshunosligi. “
MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
3. M avzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ukuv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantikiy chizmasini chikaradi mavzular ruyxatini beradi 1.2. Ikkinchi mashgulot mavzusi, uning maksadi va ukuv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Asosiy mavzu mazmuni buyicha ma'lumotlar bayon kilishga utadi.	Tinglaydi. Tinglaydi.
2 - Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maksadida savol beriladi 2.1.1.Qadimgi hind tilshunosligi nima uchun sof amaliy ahamiyatga ega bo'lgan? 2.1.2.Tilshunoslar so'z shakllarining qismlaridagi o'xshash va noo'xshash qismlarni qiyoslash natijasida nimalarni aniqladilar? 2.1.3.So'zlar qanday turkumlarga bo'lingan va qanday grammatik kategoriyalar aniqlangan?	Savolga javob beradi. Tinglaydi. Berilgan savollarga

	2.1.4.Qadimgi yunon tilshunosligi nima uchun ikkiga bo'lingan? 2.1.5.Qaysi muammolar bo'yicha munozaralar bo'lgan? 2.2. Javoblar umumlashtirib, Umumiy tilshunoslikning urganadigan soxalari buyicha ma'lumot beradi. 2.3. Eng qadimgi tilshunoslik maktablari.Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligi.Qadimgi Gretsiya va Rimda tilshunoslik. Umumiy tilshunoslik fanining tarixi to'g'risida keng ma'lumot beriladi.	javob beradi.
4. Y akuniy bosqich (10 daqiqi)	3.1. Mavzu buyicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa kilinadi. 3.2. Mustakil ishlash uchun umumiy tilshunoslikka oid fanlarning urganish manbalari xakida ma'lumot tuplab topshiriladi. 3.3. Fan bilan bog'liq adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish	Savollar beradi. Vazifani yozib oladi.

2-ma`ruza (2 soat)

Jaxon tilshunosligining tarixiy bosqichlari. Qadimgi Hind, Xitoy, Yunon, Rim, Arab, Yevropada uyg'onish davridagi, Sobiq sho'rolar davri, hozirgi o'zbek tilshunosligi.

Reja:

5. Eng qadimgi tilshunoslik maktablari.
6. Qadimgi hind tilshunosligi.
7. Qadimgi Xitoy tilshunosligi.
8. Qadimgi Gretsiya va Rimda tilshunoslik.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Vedalar tili, vyakarana, nol morfema, logogramma, predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi, stoiklar maktabi; tilshunoslikning 2 davri: falsafiy davri, grammatik davri; so'z bog'lanishli nutqning eng kichik qismi.

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shak-shubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, «mahsuli» sifatida o'zining alohida o'rganish ob'ektiga va tekshirish metodiga ega bo'ldi.

Qat'iy aytish mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga etib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, «o'sish» davrini bosib o'tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga «guvoh bo'ldi», shakllandi. Anig'i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rin egalladi.

Tilshunoslik fanining qadimgi eng muhim manbalari, ta'limotlari, oqimlari, ilk bor, qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim mamlakatlarida maydonga keldi.

O'rta va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Ovrupoda, Arabiston va O'rta Osiyoda taraqqiy qildi.

Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e'tirof etiladi. Bu-mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga bo'lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug'ullanish ilk bor Hindistonda - hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Aniqrog'i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida - sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari - Vedalar tili davrlar o'tishi bilan mamlakat aholisining so'zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Ya'ni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so'zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo'qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan Vedalardagi ma'nosi tushunarli bo'lmagan so'zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohladilar,

sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug'atlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi soʻz va jumlar maʼnosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga boʻlgan qatʼiy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab boʻldi.

Hindlar qadimiy davrda eng buyuk fonetikachi va grammatikachi sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida Yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farq-laganlar, portlovchi va sirgʻaluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalarini, boʻgʻin, urgʻu, intonaciya, choʻ-ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shular yuzasidan mukammal maʼlumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunosligida fonema haqida ham muayyan tushunchalar boʻlgan.

Qadimgi hindlar soʻzlarning faqat maʼno tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham oʻzgarishlar boʻlishini bilganlar. Shunga koʻra ular soʻzlarning tovush jihatiga alohida eʼtibor berganlar. Tovush haqida, tovushlarning oʻzgarishi ha-qida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik - artikulyacion xususiyat-lari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush taʼsiri bilan oʻzgarishi (kombinator oʻzgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham eʼtibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyacion – fiziologik xususiyatlarini hi-sobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida ay-tilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq aʼzolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga taʼsiridan, yaʼni tegishidan undoshlar hosil boʻlishini qayd etganlar.

Agar yunon filologlari tovush almashinuvi masalasiga umuman ahamiyat bermagan boʻlsalar, hind tilshunoslari bu jarayonga alohida eʼtibor berganlar, tadqiqot olib borganlar, ayni jarayonning oʻziga xosliklarini aniqlab berganlar. Qiyoslang: sanskrit tiliga oid soʻzlarda, masalan, vidma soʻzi «biz bilamiz» maʼnosini bersa, veda «men bilaman» tushunchasini, vaidyas soʻzi esa «olim», «ilimli» maʼnosini berishini koʻrsatib berganlar. Qayd etilgan maʼno (tushuncha) oʻzgarishlari esa i – e - ai unli tovushlarning almashinuvi natijasi ekanligi haqida ishonarli, asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Qadimgi hind tilshunoslari grammatika - morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ular bu yo`nalishda ham grek tilshunoslaridan ancha o`tib ketdilar. Aniqrog`i, hind tilshunosi Guru morfologiyani uch bo`limdan tashkil topishini aniq ko`rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So`zlar tasnifi (so`z turkumlari). 2. So`z yasalishi. 3. So`z o`zgarishi.

Hindlar to`rtta so`z turkumini farqlaganlar: ot,fe`l, old ko`makchi va yuklama.

Hindlarda ot predmet ifodalovchi, fe`l esa harakat, holat ifodalovchi so`z sifatida beriladi. Old ko`makchilar esa otlarning, asosan, fe`llarning ma`nosini belgilaydi. Yukla-malar esa ma`nolariga ko`ra 1) bog`lovchi va 2) qiyoslovchi kabi turlarga ajratiladi. Olmosh va ravishlar esa ot va fe`l turkumlariga qo`shib yuborilgan, alohida ajratilmagan.

Yunonlardan farqli holda hindlar so`z turkumlarini gap bo`laklaridan farqlaganlar, ya`ni ular bilan qorishtirma-ganlar, adashtirmaganlar. Shunga ko`ra hindlar, yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe`llarni harakat ifodalovchi so`z sifatida «baholaganlar».

Qadimgi hindlar so`zlarni tahlil qilish, tarkibini o`rganish jarayonida ularni quyidagi bo`laklarga ajratganlar: 1) o`zak, 2) suffiks, 3) qo`shimcha (turlovchi qo`shimcha). Shuningdek, so`z yasovchi va so`z o`zgartiruvchi morfemalar farqlangan.

Ovrupo olimlari hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so`zlardan o`zak, so`z yasovchi va so`z o`zgar-tiruvchi morfemalarni ajratishga «kirishganlar».

Hindlar otlarda ettita kelishikni qayd etganlar: 1) bosh kelishik, 2) qaratqich kelishigi, 3) jo`nalish kelishigi, 4) tushum kelishigi, 5) qurol kelishigi, 6) chiqish (ablativ) kelishigi, 7) o`rin kelishigi.

Hind tilshunoslari qo`shma so`zlarning o`ttizga yaqin turini farqlaganlar. Ular qo`shma so`zlarning tuzilishida komponentlar orasidagi munosabatlarga e`tibor berganlar. Masalan: ot+ot//fe`l; sifat// sifatdosh //ravish+ot // sifat//fe`l; son+ot va boshqalar.

Hind grammatikachilari fe`l turkumining morfologik kategoriyalarini mukammal ishlagan edilar. Ular fe`lning uch zamonga birlashadigan etti xil zamon formasini: hozirgi zamon, o`tgan zamonning tugallangan, tugallanmagan, uzoq o`tgan zamon turlarini, kelasi zamon, odatdagi kelasi zamon va juda kam qo`llaniladigan shart fe`li shaklini ajratganlar.

Hindlar qadimgi davrlardayoq fe`lning to`rtta maylini - anqlik, istak, buyruq va shart mayllarini bilganlar.

Fe`lning aniq, o`rta va majhullik nisbatlari ajratilib, har biri alohida ta`riflangan, tavsiflangan.

Hindlar sanskrit tilida fe`lning uchta shaxs va uchta son: birlik, juftlik va ko`pliklarga ko`ra tuslanishni ko`rsat-ganlar.

Hind tilshunoslari fikr ifodalash birligi bo`lgan gapning muhimligini inkor qilmagan bo`lsalar-da, sintaksis masalalari bilan maxsus shug`ullanmaganlar. Ular sintaksisda so`zlarning birikish tartibi, kelishik, zamon va mayl formalarining birikishi kabi masalalarni o`rganish bilan chegaralanganlar. So`z fikr ifodalash imkoniyatiga ega emas, ya`ni so`z gapdan tashqari mavjud emas deb, gapni tilning asosiy birligi hisoblaganlar.

Xullas, qadimgi hindlar fonetika va morfologiyaga nis-batan sintaksis masalalarida ancha bo`sh bo`lganlar.

Qadimgi yunon tilshunosligi.

Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi.

Faylasuflar va shoirlar vatani bo`lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomo-nidan o`rganilgan.

Yunon faylasuflari til masalalarini o`rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo`nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo`nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy - falsafiy muammolar sifatida namoyon bo`ladi.

Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining etakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o`rganish, so`zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug`ullanishga, shu yo`nalishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo`ldi.

Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo`linadi:

1. Falsafiy davr.
2. Grammatik davr.

1. Tilshunoslikning falsafiy davri. Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g`oyalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo`lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo`nalishlar til masalalari bilan faol shug`ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o`ta dolzarb va eng muhim muammolaridan biri so`z muammosi, so`zning tabiiy hodisami? yoki shartli hodisami? ekanligi haqidagi bahs, munozara bo`lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalani hal qilishda tarafma - taraf bo`lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog`i, bu davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so`z bilan ma`no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi.

Boshqacha aytganda, predmet bilan uning nomi o`rtasida qanday munosabat mavjud? So`zdagi tovush bilan ma`noning bog`lanishi qanday yuz beradi? Bu bog`lanish tabiat tomonidan beriladimi yoki so`zlashuvchilar tomonidan kelishilgan holda yuz beradimi? yoki ma`lum qonun - ko`rsatma bilan tayinlanadimi?, «muayyan urf - odat bilan bog`lanadimi? yoki odamlar tomonidan belgilanadimi. Ya`ni bu jarayon ongli, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladimi? va boshqalar.

Tilshunoslikning falsafiy davrida so`z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarfdorlari quyidagi g`oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o`zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada,

bogʻlanishda boʻlib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon boʻladi, «ochiladi». Aniqrogʻi, suvda daraxtlar, koʻzguda oʻzimiz aks etganidek har bir nom oʻzi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anigʻi predmet bilan ularni anglatuvchi soʻzlar orasidagi bogʻlanish tabiat tomonidan berilgan boʻlib, bu bogʻlanish tabiiy, zaruriy bogʻlanish hisoblanadi.

Xulosa shuki, olamda mavjud boʻlgan barcha narsa -predmetlarning tabiat tomonidan berilgan, oʻziga mos va xos nomlari, «toʻgʻri» nomlari bor. Soʻzlar tabiat tomonidan yara-tilgan. Tabiat har bir predmet uchun alohida nom belgilagan, nom bergan.

Demokrit va uning tarafdorlari esa soʻz va predmet munosabati masalasida Geraklit va uning tarafdorlariga qarshi quyidagi gʻoyani ilgari suradilar. Ular aytadi: narsa, predmetlarning nomlari, soʻzlar ularning tabiatiga qarab, mohiyatiga muvofiq holda qoʻyilmaydi, balki nomlash jarayoni odatga koʻra, odamlarning oʻzaro kelishuviga, ular tomonidan belgilanishiga koʻra amalga oshadi. Demak, predmetlarga nomlar tabiat tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan beriladi.

Demokrit va uning tarafdorlari oʻz gʻoyalarining toʻgʻri-ligini isbotlash uchun yana quyidagi fikrlarni ham bayon qiladilar: 1) koʻp soʻzlar bir necha maʼnoga ega boʻlib, shunga muvofiq ular turlicha predmetlarni ifoda etadi; 2) koʻpgina tushunchalar bir qancha nomga, atamaga ega boʻladi; 3) tilning tabiiyligi gʻoyasidan kelib chiqadigan boʻlsak, u holda koʻpgina predmetlarning bir nechta nomga ega boʻlishi mumkin emas; 4) vaqt oʻtishi bilan bir soʻz oʻrniga boshqasi yuzaga keladi. Yaʼni muayyan predmet nomi oʻzgarib, boshqa nomga, atamaga ega boʻladi; 5) koʻpgina tushunchalar soʻz ifodasiga, nomga ega emas. Demak, - deydi Demokrit va uning tarafdorlari, bir vaziyatda soʻzlar etishmasa, boshqa vaziyatda ular ortiqcha, koʻp. Yana boshqa bir holatda soʻzlar qatʼiy emas, yana boshqa bir vaziyatda esa soʻzlar kamlik qiladi. Demokrit fikricha, bunday holat, asosan, odamlar faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, ular tomonidan yuzaga keladi, tabiat tomonidan emas.

Shunday qilib, Demokrit va uning tarafdorlari narsa, predmet nomlari tabiat tomonidan, tabiiy berilgan emas, degan gʻoyani ilgari suradilar va ayni fikrning

to`g`riligini tilda mavjud bo`lgan omonim va sinonim so`zlar bilan isbotlaydilar. Haqiqatan, bir-biridan farq qiladigan turli narsalarning nomlari (so`zlar) qanday qilib bir xil (omonim: ot, yosh, qirq, ko`k, son, ko`r, til, ter, qo`y, quv) yoki bir narsaning qanday qilib birdan ortiq nomi (sinonim: bosh, kalla; janjal, g`avg`o, to`palon, g`alva, mashmasha; bo`kmoq, ivimoq; kulmoq, iljaymoq, jilmaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq) bo`lishini Geraklit tarafdorlarining ta`limoti-moslik, «to`g`rilik» ta`limoti asosida izohlab bo`lmaydi. Chunki sinonimlar tovush tomonidan farqli bo`ladi; agar so`zning tovush tomoni predmetning mohiyati, xususiyati bilan bevosita bog`langan bo`lsa, demak, sinonimlar turli xil xususiyatni ifodalovchi so`zlar sifatida bitta predmetni anglatishlari mumkin emas. Qolaversa, tabiatdagi hamma predmetlar ham o`z nomlariga ega emas.

Tilshunoslikning falsafiy davrida eng dolzarb muammo bo`lgan predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi Platonning «Kratil» nomli asarida ham mukammal bayon qilinadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida til masalalari bilan jiddiy va barakali shug`ullangan oqimlardan biri stoicizm hisoblanadi. Stoicizm ta`limotining vakillari bo`lgan stoiklar: Xrisipp, Krates va boshqalar o`z ta`limotlarida jahondagi nomuvofiqlikka hamma narsalarning maqsadga muvofiq bo`lishini qarama - qarshi qo`yadilar. Shunga ko`ra ular tilni kishilarning ruhida tabiat talabiga ko`ra paydo bo`lgan deyish bilan birga so`z predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi, deb aytganlar. Stoiklar so`zlovchi gapirganida so`z orqali u predmetning tabiati haqida qanday taassurotda bo`lsa, eshituvchida ham xuddi shu xususiyatlar haqidagi taassurot tug`iladi, deb o`ylaganlar.

Stoiklar predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasida Geraklit va uning tarafdorlari ta`limotini quvvatladilar. Ya`ni ular ham predmet va uning nomi (so`z) o`rtasida moslik, muvofiqlik mavjud deb hisoblar edilar.

Ayni vaqtda stoiklarning muxolifi bo`lgan epikur va uning ta`limoti tarafdorlari esa Demokritning fikrini quvvatlab, so`zlar va predmetlar orasidagi aloqa, bog`lanish tabiiy bo`lishi mumkin emas. Chunki narsalarning mohiyati bilan ularning nomi orasida qarama-qarshiliklar juda ko`p, degan fikrni ilgari surganlar.

Epikurchilar predmet bilan uning nomi orasidagi aloqa tasodifiy, bu aloqani dastlab tilni o`zaro kelishuvchilik asosida ijod qilgan kishilar yaratgan. Ana shunday tasodifiylik bo`lmaganida edi, barcha xalqlar bir-birlarining tillariga tushungan bo`lar edi, deyishadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida o`zaro qizg`in kurash olib borgan etakchi oqimlardan, yo`nalishlardan yana biri analogistlar va anomalistlar - qarama - qarshi g`oyadagi faylasuflar guruhi edi.

Ular til hodisalarida analogiya mavjudmi? yoki ano-maliyami?, qonuniyat mavjudmi yoki qonuniyat yo`qmi?, degan fikr bilan qurollanib, til bilan ob`ektiv borliq, so`z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishga kirishadilar.

Mashhur yunon grammatikachisi Aristarx boshchiligidagi analogistlar oqimi tilning grammatik qurilishi va lug`at tarkibi bilan borliq orasida moslik, muvofiqlik - o`xshashlik mavjud, degan g`oyani ilgari surishadi. Ular yunon va lotin tillarida otning uch xil grammatik jinsi (rod): erkaklar jinsi, ayollar jinsi va har ikki jinsga ham tegishli bo`lmagan oraliq jins mavjudligini aytishadi. Shunga ko`ra ular predmetlar erkaklar jinsiga, ayollar jinsiga yoki oraliq jinsga tegishli bo`ladi, deyishadi.

Anomalistlar oqimining etakchisi stoik Krates va uning tarafdorlari esa ushbu g`oyaga zid fikrni, zid g`oyani ilgari surishadi. Ya`ni ular aytadi: tilning tarkibi va grammatik qurilishi bilan borliq orasida to`la moslik, o`xshashlik yo`q; biz doim turli tengsizlikka, moslik me`yoridan chetga chiqish-larga duch kelamiz. Masalan, tildagi uch grammatik jins atrofimizdagi narsalarga real ravishda to`g`ri keladi, deb hisoblash be`manilikdir. Haqiqatan ham, masalan, rus tilidagi cherepaxa (toshbaqa), belka (olmaxon) so`zlari shakliga qaraganda grammatik jihatdan ayollar jinsiga mansub bo`lishi kerak edi. Amalda esa o`sha hayvonlarning erkagi ham, urg`ochisi ham bir xilda cherepaxa, belka deyiladi. Shuningdek, rus tilidagi dyatel (qizilishton) so`zi o`z shakliga ko`ra faqat erkaklar jinsiga nisbatan qo`llanaveradi. Demak, bu erda til anomaliyasi mavjud bo`lib, shakl bilan mazmun orasida moslik yo`qdir.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi yunon faylasuflari Anaksimenes, Prodik, Protagor, Platon, Aristotellar til masalalariga oid asarlar yaratganlar va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Anaksimenes (bizning eramizgacha bo'lgan 560-502y).

U «Riktorika» asari bilan stilistika fanining asosini yaratdi.

Prodik (bizning eramizgacha bo'lgan V asr).

Prodik sinonimika masalalarini ishlab chiqdi. U ma'no jihatdan har bir ma'nodosh so'zning o'ziga xos xususiyatlarini, ma'no o'ttinkalarini, qirralarini farqlashga o'rgatdi.

Protagor (bizning eramizgacha bo'lgan 480-410 y).

Protagor otlarning rodlarini (jinsini), fe'l zamonlarini va gaplarning turlarini farqladi.

Shuningdek, ayni davr faylasuflari ot va fe'llarni farqlab, gapning ot bilan fe'lning bog'lanishidan hosil bo'lishini ta'kidladilar.

Platon (bizning eramizgacha bo'lgan 427-347 y).

O'z davrining dastlabki yirik faylasufi Platon etimologika fanining asoschisi sifatida e'tirof qilinadi. U mantiqli nutqda ikki turdagi so'zlarni: otlarni va fe'llarni farqladi. Gapda ega vazifasida kelgan so'zni ot deb, kesim vazifasida kelgan so'zni fe'l deb, atadi. Fe'lning ot haqida nima tasdiqlanishini anglatadigan so'z ekanligini qayd etdi.

Aristotel (bizning eramizgacha bo'lgan 348-322 y).

O'z davrining ikkinchi buyuk qomusiy olimi - faylasufi Aristotel tilga oid masalalarni mantiq bilan bog'liq holda o'rgandi va u birinchi bo'lib, grammatikani mantiqdan ajratdi.

Aristotel ham, Platon kabi, ot - egani va fe'l - kesimni tan oldi. Bu guruhga qo'shimcha ko'makchi so'zlarni-bog'lovchilarni ham kiritdi. Ya'ni so'zlarni uch turkumga: ot, fe'l, bog'lovchi hamda yuklama kabilarga bo'ldi. Ot va fe'llarni mustaqil ma'noga ega so'zlar sifatida, bog'lovchi, yuklamani esa faqat grammatik vazifa bajaruvchi so'z sifatida qayd etdi.

Aristotel o`z davridayoq gapni fikr ifodalovchi nutq birligi deb, ta`rifladi. Shuningdek, u kelishiklar, tovushlar haqida ham ma`lumot berdi. Masalan, u fonetikada unli va undosh tovushlarni ajratdi.

Yuqorida aytilganlardan bir muncha farqli holda tilshunoslikning falsafiy davrida stoiklar nutqda so`zlarni besh guruhga: fe`l, bog`lovchi, artikl`, atoqli otlar va turdosh otlarga ajratdilar.

Shuningdek, ular ushbu so`zlarning barchasi ham ma`nolidir, deyishdi. Stoiklar otlarda beshta kelishikni farqladilar: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, jo`nalish kelishigi, tushum kelishigi va chaqirish (zvatel`niuy; chiqish) kelishigi.

Stoiklar o`sha davridayoq nutqni ikkiga: tashqi nutqqa va ichki nutqqa bo`lib, o`rgandilar. Ular yunon tilida 24 ta tovush borligini aytib, bularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar.

Xullas, tilshunoslikning falsafiy davridan hozirgi tilshunoslik uchun muhim bo`lgan ikki ta`limot qoldi:

1. Tilning elementlari, birliklari (so`z va gap) – ishora, belgi.
2. Til birliklari ma`no, fikr bilan shartli bog`langan.

2. Tilshunoslikning grammatik davri. Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb yuritiladi. Misr davlatining markazi bo`lgan Iskandariya makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog`liq edi. U bosib olgan Sharq mamlakatlarida yunon tili, madaniyati, falsafasining ta`siri natijasida yunon madaniyati, Sharq madaniyati bilan qo`shilib ketib, aralash madaniyat - ellinizm yuzaga keladi.

Iskandariya ellinizm madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Umuman, bizning eramizgacha bo`lgan III asrdan boshlab, birorta ham shahar: na Afina, na Rim yuksak madaniyat namunasi va ilmiy markaz bo`lgan Iskandariya shahri bilan tenglasholmas, raqobat qilolmas edi.

Xullas, yunon tilshunosligi, ayniqsa, ellinizm davrida-yunon - sharq davrida (bizning eramizgacha bo`lgan 334-31y) taraqqiy qildi, rivojlandi.

Aleksandriya grammatika maktabining eng yirik vakillari Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar.

Zenodot (taxminan bizning eramizgacha bo`lgan 250 y).

U 800.000 dan ortiq qo`lyozma manbalarga ega bo`lgan mashhur Iskandariya kutubxonasining birinchi rahbari. Zenodot va boshqa yunon filologlari Gomer, esxil, Sofokl va boshqalarning asarlari ustida faol tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular ushbu asarlarning lug`at tarkibi va grammatikasiga oid sharhlar ustida mehnat qildilar. Zenodot artiklni, olmoshlarni farqladi.

Aristarx (bizning eramizgacha bo`lgan 215-143 y).

Iskandariya maktabining eng mashhur va etakchi olimi samofrakialik Aristarx uzoq yillar davomida Iskandariya kutubxonasini boshqardi. U o`zining 40 ga yaqin shogirdlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Ular Gomer asarlarini mukammal o`rganib, tekshirib chiqilgan to`liq matnini yaratishdi.

Aristarx so`z turkumi haqidagi ta`limotni mukammal ishlab chiqdi va sakkizta so`z turkumini ajratdi. Bular: ot, fe`l, sifat-dosh, artikl` yoki ko`rsatkich, olmosh, old ko`makchi, ravish va bog`lovchi.

Dionisiy (bizning eramizgacha bo`lgan 170-90 y).

Aristarxning shogirdi frakialik Dionisiy o`zigacha bo`lgan tadqiqotchilarning ishlari va tajribalarini o`rganib, ulardan foydalanib, rimliklar uchun «Grammatika san`ati» nomli sistemalashtirilgan dastlabki yunon grammatikasini yaratdi.

Dionisiy ta`limotiga ko`ra so`z so`zlashuv nutqining (bog`langan nutqning) eng kichik bo`lagi (qismi)dir. Gap (yoki nutq) esa so`zlarning o`zaro munosabatidan, bog`lanishidan hosil bo`lib, tugal fikr ifodalaydi.

Dionisiy grammatikasida ot turkumi haqida quyidagi fikr beriladi: ot kelishik va songa ko`ra o`zgaruvchi turkumdir. U sifatlarni ham otga kiritadi.

Dionisiy fe`l haqida fikr yuritib, fe`lning kelishiksiz so`z turkumi bo`lib, zamon, shaxs, son, mayl, nisbat, tuslanish va boshqalarga ega ekanligini aytadi. Fe`lning beshta: aniqlik, buyruq, istak, tobelik va noaniqlik mayllarini; fe`lning uchta: harakat, o`zlik va o`rta nisbatlarini; fe`lning uchta: birlik, juftlik va ko`plik sonlarini; fe`lning uchta: birinchi-nutqni so`zlagan, ikkinchi-nutq yo`naltirilgan va uchinchi-so`z yuritilgan (o`zga) shaxslarni qayd etadi. Grammatik zamon esa hozirgi, o`tgan va

kelasi zamon kabi turlarga bo`linadi. Sifatdoshlar esa fe`l va otlarga xos bo`lgan belgilarni birlashtiradigan kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Artikl, Dionisiy fikricha, turlanuvchi so`z turkumi bo`lib, u turlangan otdan oldin ham, keyin ham kela oladi. Olmosh ot o`rnida qo`llaniladigan so`z bo`lib, ma`lum shaxslarni ko`rsatadi. Ravish turlanmaydigan so`z turkumidir, fe`l haqida ma`lumot beradi va fe`lga birikadi. Bog`lovchi fikrni ma`lum tartibda bog`laydigan va fikrni ifodalashdagi oraliqlarni ko`rsata-digan so`zdir. Old ko`makchi so`z turkumi bo`lib, barcha so`z turkumlari oldidan so`z tarkibida ham, gap tarkibida ham keladi. Ya`ni u sintaksisda ham, so`z yasashida ham qo`llaniladi.

Apolloniy Diskol (bizning eramizning II asrining birinchi yarmi)

Apolloniy Diskol bizgacha etib kelgan yunon tili sintaksisini yaratdi. U «Sintaksis haqida» asarida yunon tili sintaksisiga oid ma`lumotlarni berdi.

Iskandariya maktabi vakillari tilning tovush tomoniga ham katta e`tibor berishdi. Ular tovushlarni akustik prinsip asosida tasvirladilar, tovush va harflarni aynan bir narsa hisoblab, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar. Shunga ko`ra harflarni unli tovushlar va undosh tovushlar nomi bilan tasvirladilar. Unli harflarni (tovushlarni) o`z holicha talaf-fuz qilinadigan va o`zini alohida eshitish mumkin bo`lgan tovushlar sifatida, undosh harflarni (tovushlarni) esa unlilar bilangina talaffuz qilinadigan tovushlar sifatida qaradilar. Shuningdek, ular bo`g`in, urg`u haqida ham ma`lumot berishdi.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo`yicha jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va qator asarlar yaratdilar. Yunon tilshunosligida, ayniqsa, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlangan bo`lib, unga nisbatan fonetika va sintaksis masalalari bo`sh tadqiq qilingan. Shuningdek, Iskandariya maktabi vakillari grammatikani falsafadan ajratdilar.

Xullas, qadimda tilshunoslikning Iskandariya davri grammatikani mustaqil fan sifatida yaratdi.

Qadimgi yunon tilshunosligi (grammatikasi) hind tilshunosligi (grammatikasi) bilan bir qatorda o`z davrida arab tilshunosligiga (grammatikasiga) ta`sir qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. T., 200
2. N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizov. Umumiy tilshunoslik. T., 1979.
3. S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.
4. Yoʻldoshev B. Umumiy tilshunoslik asoslari. S., 2005..



Jahon tilshunosligining tarixiy bosqichlari

- Reja:
- Eng qadimgi tilshunoslik maktablari.
- Qadimgi hind tilshunosligi.
- Qadimgi Xitoy tilshunosligi.
- Qadimgi Gretsiya va Rimda tilshunoslik.
-



O`rta asrlar tilshunosligi

- Arab tilshunosligi
- O`rta Osiyo tilshunosligi
- Abu Nasr Forobiy
- Abu Rayhon Beruniy
- Abu Ali ibn Sino
- Mahmud Koshg`ariy
- Abul Qosim az-Zamaxshariy
- Alisher Navoiy
- Mirzo Mehdixon



Yevropada uyg`onish davridagi tilshunoslik:

- Por-Royal grammatikasi
- Rus tilshunosligi
- Mixail Vasilyevich Lomonosov



Komparatistika

- Frans Bopp
- Rasmus Rask
- Yakob Grimm
- Aleksandr Xristoforovich Vostokov



Tilshunoslik maktablari:

- Avgust Shleyxer. Naturalizm.
- Geyman Shteyntal. Psixologizm.
- Ferdinand de Sossyur. Sotsiologizm.



Strukturalizm:

1. Praga strukturalizm.
2. Amerika strukturalizm.
3. Kopengagen strukturalizm.



MAVZULARNING SOATLAR BUYICHA TAQSIMOTI VA ISHLANMASI

III mavzu:	«Lingvistika» termini. Dinamik va statik lingvistika. Ichki va tashqi lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari ularning mohiyati.
-------------------	---

1.1.TA'LIM BERISH TEXNOLOGISINING MODELI

Mashg'ulot vaqti 80 minut	Talabalar soni 70 - 90 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Axborot berish asosidagi ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Dinamik lingvistika. 2. Statik lingvistika. 3. Atomistik lingvistika. 4. Struktural lingvistika. 5. Sinxronik lingvistika. 6. Diaxronik lingvistika. 7. Intralingvistika. 8. Ekstralingvistika. 9. Makrolingvistika. 10. Mikrolingvistika. 11. Paralingvistika. 12. Psixolingvistika. 13. Sociolingvistika. 14. Etnolingvistika. 15. Matematik lingvistika. 16. Neyrolingvistika
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Dinamik lingvistika, Statik lingvistika, Atomistik lingvistika, Struktural lingvistika, Sinxronik lingvistika, Diaxronik lingvistika, Intralingvistika, Ekstralingvistika, Makrolingvistika, Mikrolingvistika, Paralingvistika, Psixolingvistika,	

Sosiolingvistika, Etnolingvistika, Matematik lingvistika, Neyrolingvistika to'g'risida keng ma'lumot berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • O'quv kursining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma berish;	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • tilshunoslik fanining turlarini anglab yetishadi va uning xozirgi paytda kengaya borganligini anglaydilar; • Umumiy tilshunoslik fanining xakida anik fikrga ega buladilar; • tilshunoslik fanining boshka fanlar urtasida tutgan urnini anglab oladi;
<i>Ta'lim berish usullari</i>	o'zbek tilida ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, taqdimot, tushuntirish
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruh bo'lib ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron doska, videofilm
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol javob.

[1.2. «Lingvistika» termini. Dinamik va statik lingvistika. Ichki va tashqi lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari ularning mohiyati. . MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI](#)

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
5. avzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ukuv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantikiy chizmasini chikaradi mavzular ruyxatini beradi (1 ilova)	Tinglaydi.
	1.2. Ikkinchi mashgulot mavzusi, uning maksadi va ukuv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Asosiy mavzu mazmuni buyicha ma'lumotlar bayon kilishga utadi.	Tinglaydi.
2 - Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maksadida savol beriladi 2.1.1. Dinamik va statik lingvistikaning farqi nimadan iborat? 2.1.2. Diaxron va sinxron lingvistikaning farqi nimadan iborat? 2.1.3. Intralingvistika nimani tekshiradi? 2.1.4. Makro va mikro lingvistikaning farqi nimadan iborat? 2.1.5. Sosiolingvistika va etnolingvistikaning farqi nimadan iborat?	Savolga javob beradi.
	2.2. Javoblar umumlashtirib, Umumiy tilshunoslikning urganadigan soxalari buyicha ma'lumot beradi. 2.3. Dinamik lingvistika, Statik lingvistika,	Tinglaydi. Berilgan savollarga javob beradi.

	Atomistik lingvistika, Struktural lingvistika, Sinxronik lingvistika, Diaxronik lingvistika, Intralingvistika, Ekstralingvistika, Makrolingvistika, Mikrolingvistika, Paralingvistika, Psixolingvistika, Sosiolingvistika, Etnolingvistika, Matematik lingvistika, Neyrolingvistika to'g'risida keng ma'lumot berish.	
6. akuniy bosqich (10 daqiqi)	3.1. Mavzu buyicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa kilinadi. 3.2. Mustakil ishlash uchun umumiy tilshunoslikka oid fanlarning urganish manbalari xakida ma'lumot tuplab topshiriladi. 3.3. Fan bilan bog'liq adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish	Savollar beradi. Vazifani yozib oladi.

3-ma`ruza (2 soat)

«Lingvistika» termini. Dinamik va statik lingvistika. Ichki va tashqi lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari ularning mohiyati.

Reja:

1. Dinamik lingvistika va Statik lingvistika.
2. Atomistik lingvistika va Struktural lingvistika.
3. Sinxronik lingvistika va Diaxronik lingvistika.
4. Intralingvistika va Ekstralingvistika.
5. Makrolingvistika va Mikrolingvistika.
6. Paralingvistika va Psixolingvistika.
7. Sosiolingvistika va Etnolingvistika.
8. Matematik lingvistika.
9. Neyrolingvistika

Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi Np\$ia bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini — tilni sistema sifatida — bir butun obyekt sifatida tadqiq va taxdil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda namoyon bo'ladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish

lozimligidan va bu ilmiylik nuqgai nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Dinamik lingvistika.
2. Statik lingvistika.
3. Atomistik lingvistika.
4. Struktural lingvistika.
5. Sinxronik lingvistika.
6. Diaxronik lingvistika.
7. Intralingvistika.
8. Ekstralingvistika.
8. Makrolingvistika.
9. Mikrolingvistika.
10. Paralingvistika.
11. Psixolingvistika.
13. Sosiolingvistika.
14. Etnolingvistika.
15. Matematik lingvistika.
16. Neyrolingvistika va boshqalar.

Dinamik lingvistika. Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, turlicha vazifalarni faol bajarishda, «taraqqiyotda», o'zgarishda tadqiq qiladi.

Statik lingvistika. Statik lingvistik til taraqqiyotidagi to'liq sinxronlashgan muayyan bir davrni (bo'lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o'zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi — zamonaviy davri bilan bog'liq ma'lum bir «qotgan» qismini holatini tekshiradi.

Atomistik lingvistika. Atomistik lingvistika diqqate'tiborini har bir individual til birlik larining taraqqiyotini, o'sishini alohida o'rganishga qaratadi.

Struktural lingvistika. Struktural lingvistika til sistemasidagi ichki munosabat va aloqalarni tadqiq qiladi.

U til sistemasining struktural qatlamlari (fonetik, leksik, morfologik, sintakgik sathlari) orasidagi o'zaro tabiiy, zaruriy bog'liqliklarni, munosabatlarni o'rganadi.

5. Sinxronik lingvistika. Sinxronik lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning ma'lum bir davrdagi «qotgan», «turg'un» holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

6. Diaxronik lingvistika. Diaxronik lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o'rganadi.

7. Intralingvistika (ichki lingvistika). Ichki lingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini ekstralingvistik faktorlarga bog'liq bo'lmagan holda o'rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo'lib fonologiya, leksikologiya va grammatika hisoblanadi.

8. Ekstralingvistika (tashqi lingvistika). Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shunga ko'ra, ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshiradi.

9. Makrolingvistika. Makrolingvistika tilni keng doirada, «katta hajmda» olib, uni statistik usullar asosida tadqiq qiladi. Aniqrog'i, ushbu soha tilni statistik usullar, statistik usullar orqali taxlil qiladi.

10. Mikrolingvistika. Mikrolingvistika til sistemasi tarkibidagi (strukturasidagi) aloqalar, o'zaro munosabatlar va qaramaqarshiliklarni o'rganadi.

11. Paralingvistika. Paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtda yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini (imoishora, mimika), nutqning balandiligi, ekspressiv-emosional bo'yoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir.

12. Psixolingvistika. Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqgai nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy amaliy maqsadga yo'naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o'rganadi. U nutqsagi — fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e'tibor beradi.

Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish-ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situasiya), uxshashlik (analogiya), farqlash (differensiasiya), ta'sirchanlik, so'zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e'tibor beradi.

13. Sociolingvistika. Sociolingvistika sosiologiya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog'liqligidan hosil bo'lib, jamiyat va til (til va jamiyat) munosabati masalasi bilan shug'ulchanadi. U tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Shunga ko'ra sociolingvistikaning eng muhim, asosiy muammosi tilni tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o'rni va ahamiyatini belgilashdir.

Sociolingvistika, asosan, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot hodisalari, faktlari o'rtasidagi bog'liqlikni, ushbu bog'liqlikning sabablarini o'rganadi. Anig'i mazkur soha jamiyatning yashash va rivojlanishida tildagi ijtimoiy hayot, ya'ni tashqiekstralingvistik faktorlarning (omillarning) ta'siri natijasida hosil bo'lgan hodisalarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni tahlil qilib boradi. Demak, sociolingvistika ijtimoiy faktorlarning tilga qavday ta'sir qilishi, til sistemasida (strukturasida) qanday namoyon bo'lishi, qanday shaklda aks etishi kabilarni tadqiq qiladi.

Eslatamiz, sociolingvistika statistik ma'lumotlar, aholi ro'yxati va anketa ma'lumotlari usulikasi bilan o'z faoliyatini kengaytirib boradi.

14. Etnolingvistika. Etnolingvistika etnografiya va lingvistika fanlarining o'zaro munosabatidan shakllanib, etnik belgi bo'lgan tilga xalq tarixiy taraqqiyotining, rivojlanishining, xalq turmush, urf odatlarining, moddiy va ma'naviy madaniyatining ta'sirini, ularning tilda voqye bo'lishini o'rganadi. Etnolingvistika til va jamiyat munosabatini tadqiq qilishda etnik faktorlarning o'rni, ahamiyati, roli kabilarni aniqlaydi, etnik va lisoniy omillarning o'zaro ta'sirini, bog'liqligini aks ettiradi.

Matematik lingvistika. Matematik lingvistika tilni o'rganish va tasvirlash jarayonida matematik usullarning (masalan, statistik usul, informatsiya nazariyasi kabilarning) qo'llanish imkoniyatlarini tekshiradi.

Neyrolingvistika. Neyrolingvistika neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan, qo'shilishidan hosil bo'lib, inson miyasidagi nerv hujayralarining, neyronlarning tilniso'zlarni hosil qilishdagi vazifasini o'rganadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni tushirish va nutq birliklarini yaratishda faol xizmat qiladi, yetakchi hisoblanadi. Shunga ko'ra neyrolingvistika inson nerv sistemi bilan aloqa qurolitil orasidagi uzviy, doimiy, zaruriy munosabatni yoritadi. Shuningdek, u afatik nutqni, ya'ni tushunib bo'lmaydigan, buzilgan, «kasallangan» nutqni, uning turlarini aniqlash va tasnif qilish, fiziologik nerv sistemi, nutq faoliyati kabilar doirasida tadqiqot ishlarini olib boradi.

Xullas, lingvistika fani umumiylik sifatida, qayd etilganidek, turlicha xususiyliklari, sohalari orqali til sistemasini butun mohiyati, murakkabligi bilan, kommunikativ cheksiz imkoniyatlari bilan tadqiq qiladi. U ayni jarayonda qator fanlar bilan o'zaro aloqada, hamkorlikda ish olib boradi, til va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va nutq kabi o'ta dolzarb va o'ta murakkab masalalarning yoritilishida faol ishtirok etadi.

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullabyashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo'q mezonlaridan biri til aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta'lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini ayni bir fikrni, narsa hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo'llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o'ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni «o'zicha» aks etgirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g'urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar

- 1.O.S.Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov. M., 1966.
- 2.D.E.Rozental, M.A.Telenkova. Slovar spravochnik lingvisticheskix terminov. M., 1976.
- 3.E.Xemp. Slovar amerikanskoy lingvisticheskoy terminologii. M., 1964.
- 4.N.Y.Kondakov. Logicheskiy slovar M., 1971.
- 5.A.Hojiev. Lingvistik terminlarning izoxli lug'ati. T., 1985.

Samarqand davlat chet tillar instituti



Samarqand - 2016

Lingvistika termini

- 1. Dinamik lingvistika.
- 2. Statik lingvistika.
- 3. Atomistik lingvistika.
- 4. Struktural lingvistika.
- 5. Sinxronik lingvistika.
- 6. Diaxronik lingvistika.
- 7. Intralingvistika.
- 8. Ekstralingvistika.
- 8. Makrolingvistika.
- 9. Mikrolingvistika.
- 10. Paralingvistika.
- 11. Psixolingvistika.
- 13. Sociolingvistika.
- 14. Etnolingvistika.
- 15. Matematik lingvistika.
- 16. Neyrolingvistika va boshqalar.

Dinamik lingvistika

- Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, turlicha vazifalarni faol bajarishda, «taraqqiyotda», o'zgarishda tadqiq qiladi.

Statik lingvistika.

- Statik lingvistikada til taraqqiyotidagi to'liq sinxronlashgan muayyan bir davrni (bo'lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o'zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi — zamonaviy davri bilan bog'liq ma'lum bir «qotgan» qismini holatini tekshiradi.

Atomistik lingvistika

- Atomistik lingvistika diqqate'tiborini har bir individual til birlik larining taraqqiyotini, o'sishini alohida o'rganishga qaratadi.

Struktural lingvistika

- Struktural lingvistika til sistemasidagi ichki munosabat va aloqalarni tadqiq qiladi.
- U til sistemasining struktural qatlamlari (fonetik, leksik, morfologik, sintakgik sathlari) orasidagi o'zaro tabiiy, zaruriy bog'liqdiklarni, munosabatlarni o'rganadi.

Sinxronik lingvistika

- Sinxronik lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning ma'lum bir davrdagi «qotgan», «turg'un» holatini tasvirlashga xizmat qiladi. Sinxronik lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning ma'lum bir davrdagi «qotgan», «turg'un» holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

Diaxronik lingvistika

- Diaxronik lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o'rganadi.

Intralingvistika

- Intralingvistika (ichki lingvistika). Ichki lingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini ekstralingvistik faktorlarga bog'liq bo'lmagan holda o'rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo'lib fonologiya, leksikologiya va grammatika hisoblanadi.

Ekstralingvistika (tashqi lingvistika)

- Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiysiyosiy, ijtimoiytarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shunga ko'ra, ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshiradi.

Makrolingvistika

- Makrolingvistika tilni keng doirada, «katta hajmda» olib, uni statistik usullar asosida tadqiq qiladi. Aniqrog'i, ushbu soha tilni statistik usullar, statistik usullar orqali taxlil qiladi. Makrolingvistika tilni keng doirada, «katta hajmda» olib, uni statistik usullar asosida tadqiq qiladi. Aniqrog'i, ushbu soha tilni statistik usullar, statistik usullar orqali taxlil qiladi.

Mikrolingvistika

Mikrolingvistika til sistemasi tarkibidagi (strukturasidagi) aloqalar, o'zaro munosabatlar va qaramaqarshiliklarni o'rganadi.

Paralingvistika

- Paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqgda yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini (imoishora, mimika), nutqning balandiligi, ekspressivemosional bo'yoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir.

Psixolingvistika

- Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuggai nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy amaliy maqsadga yo'naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o'rganadi. U nutqsagi — fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e'tibor beradi.
- Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situasiya), uxshashlik (analogiya), farqlash (differensiasiya), ta'sirchanlik, so'zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e'tibor beradi.

Sosiolingvistika

- Sosiolingvistika. Sosiolingvistika sosiologiya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog'liqligidan hosil bo'lib, jamiyat va til (til va jamiyat) munosabati masalasi bilan shug'ulchanadi. U tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Shunga ko'ra sosiolingvistikaning eng muhim, asosiy muammosi tilning tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o'рни va ahamiyatini belgilashdir.
- Sosiolingvistika, asosan, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot hodisalari, faktlari o'rtasidagi bog'liqlikni, ushbu bog'liqlikning sabablarini o'rganadi. Anig'i mazkur soha jamiyatning yashash va rivojlanishida tildagi ijtimoiy hayot, ya'ni tashqiekstralingvistik faktorlarning (omillarning) ta'siri .natijasida hosil bo'lgan hodisalarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni tahlil qilib boradi. Demak, sosiolingvistika ijtimoiy faktorlarning tilga qavday ta'sir qilishi, til sistemasida (strukturasida) qanday namoyon bo'lishi, qanday shaklda aks etishi kabilarni tadqiq qiladi.
- Eslatamiz, sosiolingvistika statistik ma'lumotlar, aholi ro'yxati va anketa ma'lumotlari usulikasi bilan o'z faoliyatini kengaytirib boradi

Etnolingvistika

- Etnolingvistika etnografiya va lingvistika fanlarining o'zaro munosabatidan shakllanib, etnik belgi bo'lgan tilga xalq tarixiy taraqqiyotining, rivojlanishining, xalq turmush, urf odatlarining, moddiy va ma'naviy madaniyatining ta'sirini, ularning tilda voqye bo'lishini o'rganadi. Etnolingvistika til va jamiyat munosabatini tadqiq qilishda etnik faktorlarning o'рни, ahamiyati, roli kabilarni aniqlaydi, etnik va lisoniy omillarning o'zaro ta'sirini, bog'liqligini aks ettiradi.

Matematik lingvistika

- Matematik lingvistika tilni o'rganish va tasvirlash jarayonida matematik usullarning (masalan, statistik usul, informatsiya nazariyasi kabilarning) qo'llanish imkoniyatlarini tekshiradi.

Neyrolingvistika

- Neyrolingvistika neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan, qo'shilishidan hosil bo'lib, inson miyasidagi nerv hujayralarining, neyronlarning tilniso'zlarni hosil qilishdagi vazifasini o'rganadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni tushirish va nutq birliklarini yaratishda faol xizmat qiladi, yetakchi hisoblanadi. Shunga ko'ra neyrolingvistika inson nerv sistemasi bilan aloqa qurolitil orasidagi uzviy, doimiy, zaruriy munosabatni yoritadi. Shuningdek, u afatik nutqni, ya'ni tushunib bo'lmaydigan, buzilgan, «kasallangan» nutqni, uning turlarini aniqlash va tasnif qilish, fiziologik nerv sistemasi, nutq faoliyati kabilarda doirasida tadqiqot ishlarini olib boradi.

MAVZULARNING SOATLAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA ISHLANMASI

IV mavzu:	« Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Nutq faoliyati. Til va nutq birliklari. Tovush va fonema. »
----------------------	---

1.1.TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASINING MODELI

Mashg'ulot vaqti 80 minut	Talabalar soni 70 - 90 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Axborot berish asosidagi ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1.Til va nutq. 2.Til va nutqning dialektik munosabati. 3. Til tarkibi. 4.Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. 5.Nutq faoliyati. 6.Til va nutq birliklari. 7.Tovush va fonema
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Nutq faoliyati. Til va nutq birliklari. Tovush va fonema to'g'risida keng ma'lumot berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1. O'quv kursining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma berish;	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> •Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Nutq faoliyati. Til va nutq birliklari. Tovush va fonemalar haqida tushunchaga ega bo'lish;
<i>Ta'lim berish usullari</i>	o'zbek tilida ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, taqdimot, tushuntirish
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruh bo'lib ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron doska, videofilm
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol javob.

1.2. “Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Nutq faoliyati. Til va nutq birliklari. Tovush va fonema . “

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1. avzuga kirish	1.1. Ukuv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantikiy chizmasini	Tinglaydi.

(15 daqiqa)	chikaradi mavzular ruyxatini beradi 1.2. Ikkinchi mashg'ulot mavzusi, uning maksadi va ukuv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Asosiy mavzu mazmuni buyicha ma'lumotlar bayon qilishga utadi.	Tinglaydi.
2 - Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimni faollashtirish maksadida savol beriladi 2.1.1. Til sistemami? 2.1.2. Tilning ijtimoiy mohiyati nimada ko'rinadi? 2.1.3. Tilning moddiyligi nimada ko'rinadi? 2.1.4. Nutqning o'ziga xosliklari nimalarda ko'rinadi? 2.1.5. Til va nutq dialektik munosabatini qanday tushunasiz? 2.2. Javoblar umumlashtirib, Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Nutq faoliyati. Til va nutq birliklari. Tovush va fonema to'g'risida keng ma'lumot berish.	Savolga javob beradi. Tinglaydi. Berilgan savollarga javob beradi.
2. Y akuniy bosqich (10 daqiqi)	3.1. Mavzu buyicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa kilinadi. 3.2. Mustakil ishlash uchun umumiy tilshunoslikka oid fanlarning urganish manbalari xakida ma'lumot tuplab topshiriladi. 3.3. Fan bilan bog'liq adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish	Savollar beradi. Vazifani yozib oladi.

4-ma'ruza (2 soat)

Til va nutq. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Nutq faoliyati. Til va nutq birliklari. Tovush va fonema

Ma'ruza rejasi

- 1. Til va nutq.**
- 2. Til va nutqning dialektik munosabati.**
- 3. Til tarkibi.**
- 4. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali.**
- 5. Nutq faoliyati.**

6.Til va nutq birliklari.

7.Tovush va fonema

Til va nutq dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo'lib, ayni masala jahon tilshunosligining doimiy diqqat markazida turgan va hozirda ham shunday.

XX asr tilshunosligining — sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezonlari til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi.

Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, professor H.Ne'matovning ma'lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash dastlab U111X asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o'rganish usullarida qo'rish mumkin. Professor A.Nurmonovning tadqiqotida esa temuriylar davri o'zbek tilshunosligining sardori bo'lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalari farqlangani, alloma shu masalaga alohida e'tibor bergani qayd etiladi.

Til va nutq muammosi umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi bo'lgan Vilgelm fon Gumboldtning tildagi energie (harakat, jarayon, kuch) va ergon (mahsulot), tilshunosliqdagi psixologizm oqimining asoschisi G.Shteyntalning tildagi «barqaror mohiyat» va «harakatdagi kuchlar», buyuk nazariyotchi va amaliyotchi tilshunos Boduen de Kurtenening «tildagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik» haqidagi ta'limotlarida ham beriladi.

Ta'kidlash shart, til va nutq dialektik munosabati o'zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy nazariy yechimini tilshunoslyus fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Demak, til va nutq masalasi nafaqat sistem tilshunoslikning, umuman, jahon tilshunosligi fanining hamma davrlaridagi ham diaxron, ham sinxron bosqichlaridagi eng jiddiy nazariy muammosi bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Negaki, tilshunoslikning ushbu o'ta murakkab va o'ta dolzarb muammosisiz nafaqat nazariyumumiy tilshunoslikning, balki xususiyamaliy tilshunoslikning ham qator eng muhim, asosiy masalalarini to'liq, mukammal va obyektiv hal qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra til va nutq dialektikasi jahon tilshunosligi fanining doimiy muammolaridan biri sifatida qolaveradi.

Sho'ro davri tilshunosligida, ayniqsa, 60 yillardan boshlab, til va nutq masalasiga aloxdda e'tibor berila boshladi. Aniqrog'i, F. de Sossyur tomonidan xalqning aloqa qilish, fikr ifodalash vositasining til va nutq deb berilishi, bularning birbiridan farklanishi olimlar o'rtasida fikrlar qaramaqarshiligini tug'dirdi.

Bir qator olimlar til va nutq o'zaro farklanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta obyekt mavjudsir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash, albatta, kerak, bular farqlanadi, degan g'oyani ilgari suradi.

Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mustahkam o'rin egalladi.

Til va nutq dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demak, F.de Sossyur mutlaqo to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir.

Til sistemasining birbiri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan sathlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqgda ushbu satxdarning har biri o'ziga xos sistemaichki sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasisupersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijgimoiy amaliy vazifa bajaradi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqaaralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi. Shunga ko'ra professor. S.Usmonov «Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijgimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichidajamiyatda voqye bo'ladi», deydi.

Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgalar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, professor V.M.Solnsev «Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir» desa, tilshunos B.V.Kosovskiy «til o'zining material mohiyatiga ko'ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi», deb alohida qayd etadi.

Xullas, til supersistemasistemalar sistemasi sifatida jamiyat uchun tarixan mukammal yaratilgan, barchaga birday xizmat qiladigan va barcha uchun umumiy bo'lgan, asosan fikr ifodalash, fikrni moddiy qilish uchun ishlatiladigan alohida so'zlar, gaplar nutq birliklaridan, ifoda vositalaridan, ularning o'zaro mantiqiy bog'lanishi uchun, nutqni qurish uchun xizmat qiladigan qonunqoidalardan tashkil topadi.

Til o'zining jamiyatdagi kommunikativ (informativ, ekspressiv, emotiv, volyuntativ va boshq.) vazifasini qanday ko'rinishda, qanday «qiyofada», qanday shaklda amalga oshiradi?

Ijtimoiy psixik jarayon bo'lgan til o'zining jamiyatdagi kommunikativ, umuman har qanday vazifasini nutq shaklida, nutq ko'rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so'zlashuv, flkr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagima:«dagi mu«#yan ifodasidir, ko'rinishidir, holatidir. Shunga ko'ra, S.Usmonov «Til qachon ma'lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo'lgandagana ma'lum funksiyani bajarishi mumkin»,.

Miyamizda (ongimizda) obyektiv olamning ta'siri tufayli hosil bo'lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijgimoiy ahamiyatga ega bo'lgan til (nutq) orqali voqyelashadi. Yayaa ham aniqrog'i, har qanday fikrni kfodshtash, bashqalar bilan aloqada bo'lish, faqat til materiali orqali amalm oshadigak real, jonli nutq jarayonida sodir bo'lada. Til aloqa quroli, knsonlar orasqsagi munosabat ositasi deb byaholanpshida til materialiga asoslangan nugq ko'zda tu^ilasch.

Ichki ideal jarayon, tashqimaterial voqyelikka o'tar ekan, aylanar ekan, bu o'tishjarayon faqat nutq asosida, ya'ni hamma vaqt til materialiga suyanadigan nutq orqali amalga oshadi. Nutq uchun esa asos (baza) vazifasini til boyligi, til materiali o'taydi.

Til materialini S.Usmonov ikkiga bo'ladi:

Psixik material. Bu so'z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).

Moddiy material. Bunutq yaratish chog'ida belgili tovush qobig'iga ega bo'lgan, aniq talaffuz qilinayotgan so'zlar, morfemalar va tovushlar.

Demak, real jonli nutqning real til birliklaridan tashkil topishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Qiyoslang. Bizning davrimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davridir, gapi real nutq bo'lib, u tovush materiyasiga ega bo'lgan real til birliklaridan tashkil topadi. Aniqrog'i, ushbu gap: biz, ning, davr, i, miz, bozor, iqtisod, i, yot, i, ga, o't, ish, davr, i, dir kabi aniq til birliklaridanso'z (leksema) va affiksalar morfemalardan tarkib topgan. Demak, ayni gapni qayd etilgan til birliklarigaso'z (leksema) va affiksalar morfemalarga ajratish, aslida, uni real til birliklariga ajratish demakdir. «Ammo ajratishdan hosil bo'lgan har bir element o'sha nutq o'tib ketganidan keyin o'z material .qobig'ini yo'qotib, ma'lum obrazlar sifatida doimiy ravishda xotirada saqlanadi. Xotiradagi bu elementlar endi moddiy hodisa bo'lmay, psixik hodisadir. Psixik hodisadan esa lozim bo'lganida nutq a'zolarining faoliyati tufayli yana moddiy hodisa hosil qilish mumkin».

Ma'lum bo'ldiki, psixik hodisa bilan real nutq orasidagi oraliq hodisa xotiradagi real til elementlarining, til birliklarining nutq tuzish vaqgida talaffuz orqali ro'yobga chiqariladigan real ekvivalentlaridir.

Demak, xotiradagi til elementlarining obrazlari nutq faoliyati vaqgida real til elementlariga aylanadi. Zotan real elementlar aslida birlamchi bo'lib, ularning ongdagi (xotiradagi) obrazlari ikkilamchidir va ular real elementlar tufayli hosil bo'ladi.

Til «tashqi» jihatdan ham moddiy, ham psixik hodisa. Uning moddiyligitovush materiyasi bo'lsa, psixik hodisaligi xotirada saklanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko'rinadi. Tildagi moddiylik so'z, so'z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o'ralganligida namoyon bo'ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.

Ma'lum bo'ldiki, tiddan fikr almashuvkommunikasiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqsir. Hozirgi vaqgda nutqning til materiali orqali aloqa qilish jarayoni ekanligi tajriba yo'li bilan ham isbotlg chgan. Masalan, psixolog V.A.Artemov «Eksyayerimental — fonetik va eksperimental — psixologik tadqiqotlar nutqning til orqali aloqa qilish jarayeni ekanligiga bizni ishontirmoqda. Hozirda ko'pchilik psixologlar, usulist va tilshunoslar ushbu fikrga kelishgan». Demak, til nutq orqali, nutq esa til materiali orqali amalga oshadi.

Akademik I.P.Pavlov tomonidan ikkilamchi signallar sistemasi deb nom olgan tilning nutq bilan chambarchas bog'liqligini yana shundan ham bilish mumkinki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida, odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida vujudga keladi.

Til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma'lum bo'ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqgning o'zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu materialdan fikr shakllantirishdir. F. de Sossyur aytganidek, til bizga nutq tushunarli bo'lishi uchun zarur bo'lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakllanishi uchun zarur. Tarixiy jihatdan nutq faktlari tildan oldin keladi.

Shu o'rinda proffessor. B.A.Serebrennikovning fikrini ham keltirish maqsadga to'la muvofiqsir. U ta'kidlaganidek « til nutq jarayonida foydalaniladi. Har bir nutq

faoliyatida til elementlari ishtirok etadi. Agar til sistem xarakterga ega bo'lsa, nutq ham til elementlari asosida namoyon bo'lgandan keyin sistem xarakterga ega bo'ladi».

Bizningcha ham nutq sistemadir, sistem xarakterga egadir. Ammo u tilga nisbatan ikkinchi darajali sistema bo'lib, til sistemasiga asoslanadi, undan imkoniyat sifatida foydalanadi. Til sistemasi asosida nutqiy sistema, nutq faoliyati, fikrni ifodalash sistemasi yuzaga keladi. Shuningdek, nutq (nutqiy faoliyat) fikrni ifodalash jarayoni ekan, ayni jarayonda ipggarok etuvchi birliklar o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga kirishib, bir butunliknisistemani, masalan, nutqni, gapni hosil qiladi. Qolaversa, nutkdagi — fikr ifodalash jarayonvdagi so'z ham, so'z birikmasi ham, gap ham, matn ham o'ziga xos mikro va makrosistemalardir.

Tilning yashashi, mavjudligi, taraqqiyoti nutq orqali bo'ladi. Masalan, men o'z nutqimda o'zbek tilidan foydalanib gapiryapman, demak, bu o'zbek tilining mavjudligi, uning yashayotganligidir. Demak, tilning har bir aniq ko'rinishi real nutqsir, nutq faoliyatvdir.

Jonli nutq yoki real nutq bu tilning mavjudligi, uning faol harakatidir.

Til inson xotirasida mavjud lisoniy (lingvistik) birliklardan va qoidalaridan iborat xazinadir. Nutq esa ushbu birliklarning muayyan qoidalar asosidagi faol harakati, muayyan ijtimoiy vazifa bajarishi, ya'ni nutq jarayondir, amaliyotdir. Til ham, nutq ham ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til va nutq biri ikkinchisi orqali amalga oshadi, ya'ni til nutq orqali, nutq esa til orqali voqyelashadi, namoyon bo'ladi.

Til va nutq o'zaro aloqador, birbiri bilan bog'liq, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan, ammo birbiridan farqyai bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Demak, til va nutq o'zaro bog'liq bo'lgani bilan aynan bir xil narsa emas. Psixolog P.I.Ivanov: «Biz biror kishiga: siz qaysi tilda (yoki tillarda) gaplashasiz deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o'z nutqida qanday til (yoki tillar) dan foydalanishini aniq bilamiz», deydi.

Har bir kishining o'z nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapiradi. Shu bilan birgalikda har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma'naviymadaniy saviyasiga qarab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bundan esa nutqning individualhodisa ekanligi kelib chiqadi. Lekin biz yuqorida til ham, nutq ham ijtimoiy hodisa degan edik. Gap shundaki, nutq haqiqatan ham individual.

Nutq individual o'zining bajarilishiga, sodir bo'lishiga ko'ra, ya'ni u individ, alohida kishi tomonidan amalga oshadi. Ammo o'zining vazifasiga ko'ra esa nutq ijtimoiydir.

Demak, nutq individual deganda, uning individ alohida shaxs tomonidan amalga oshirilishi, bajarilishi ko'zda tutilsa, nutq ijtimoiy deganda, uning ahamiyati, vazifasi, ommaviyligi tushuniladi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tilni ham ma'lum ma'noda individual deyish mumkin. Chunki til materiali (elementlari, birliklari) psixikada, xotiramizda mavjud. Shuning uchun ham S.Usmonov: «Til elementlari jamiyat a'zolarining xotirasida mavjud», deydi.

Demak, til individual nutq shaklida faoliyat ko'rsatadi. Til va nutq ham ijtimoiy, ham individual. Tiddagi ijtimoiylik nutq orqali namoyon bo'ladi. «Tildagi ijtimoiylik yashirin, ichki hodisa bo'lsa, nutqdagi ijtimoiylik tashqi, real hodisadir».

Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya'ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko'ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo'lib, muayyan o'rinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq so'zlovchining, tinglovchining va predmetning fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo'lishini talab qiladi.

Nutq akti hamma vaqg ijodiy akt. Chunki har bir kishi o'z fikrini muayyan shakl so'z, nutq orqali ifodalayotganida o'zining bilimiga, lug'at xazinasiga, hayot tajribasi va madaniy saviyasiga suyanadi.

Nutq harakatchan, dinamik, jonli bo'lsa, til statik, stabildir.

Nutq alohida shaxsga, individga bog'liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog'liq emas.

Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq. A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo'l harakati bilan (jest) yoki qo'l harakatisiz, aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin, tilga bunday ta'rifavsif to'g'ri kelmaydi.

Nutq ham monologik, ham dialogik bo'la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo'la olmaydi.

Til — aloqa quroli, nutq — aloqa usuli.

Til imkoniyat, nutq voqyelik, ta'sirchanlik.

Til umumiylik, nutqxususiylik, alohidalik.

Nutq kelib chiqishiga ko'ra birlamchi, ya'ni oldin nutq — nutq tovushlari paydo bo'lgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan.

Til taxlil qilish yo'li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi.

Tilning xayoti uzoq, xalkring hayoti bilan bog'liq, nugqning hayoti esa qisqa, ya'ni aytilgan vaqgdagina mavjud.

Tilning alohida vazifasi bo'lgan nutq psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik, nutq madaniyati va boshq.), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini o'rganadi), informasiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi.

Til — tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan o'rganiladi.

Demak, jonli nutq, nutq faoliyati tilning mavjudlik va taraqqiy qilish shaklidir. Tilni nutq faoliyatidanutqsa kuzatganimizdagina uning ijtimoiyamaliy vazifa bajarish mexanizmini ochib berish mumkin. Nutq faoliyatidagina til va nutqning o'zaro ta'siri, bog'likligi, aloqasi amalga oshadi.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi.

Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati — faolligi uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1.S.Usmonov. Til nazariyasining ba'zi bir masalalari. O'zbek tili va adabiyoti, j. 1970. №2.

- 2.S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.
3.YA.VLoya. Istoriya lingvisticheskix uchebniy. M, 1968.
4.B.V.Kosovskiy. Obshee yazykovedenie. Minsk. 1969.
5.V.M.Solnsev. Yazyk kak sistemno strukturnoe obrazovanie. M., 1971.
6.H.Ne'matov. O.Bozorov Til va nutq. T., 1993.
7.H.Ne'matov. R.Rasulov O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T., 1995.
8.A.T.Xrolenko. Obshchee yazykovedenie. M., 1981.
9.R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. 1qism. (Tilshunoslik tarixi). T., 2005.

Samarqand davlat chet tillar instituti



Samarqand - 2016

MAVZU: Til va nutq



- Reja:
- 1.Til va nutq.
- 2.Til va nutqning dialektik munosabati.
- 3. Til tarkibi.
- 4.Tilning ijtimoiy mohiyati, til materialli.
- 5.Nutq faoliyati.
- 6.Til va nutq birliklari.
- 7.Tovush va fonema

Til birliklari

- Fonema
- Morfema
- Leksema
- Model



Nutq birliklari

- Tovush
- So`z
- So`z birikmasi
- Gap



ТИЛ ВА НУТҚ БИРЛИКЛАРИ



ТИЛ БИРЛИКЛАРИ	НУТҚ БИРЛИКЛАРИ
ФОНЕМА МОРФЕМА ЛЕКСЕМА МОДЕЛЬ	ТОВУШ, ҲАРФ АФФИКС СЎЗ СЎЗ БИРИКМАСИ, ГАП, МАТН

ТИЛ ВА НУТҚ БИРЛИКЛАРИНИНГ ФАРҚИ



- Til — aloqa quroli, nutq — aloqa usuli.
- Til imkoniyat, nutq voqyelik, ta'sirchanlik.
- Til umumiylik, nutqxususiylik, alohidalik.
- Nutq kelib chiqishiga ko'ra birlamchi, ya'ni oldin nutq — nutq tovushlari paydo bo'lgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan.

ТИЛ ВА НУТҚ БИРЛИКЛАРИНИНГ ФАРҚИ



- Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya'ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko'ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo'lib, muayyan o'rinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq so'zlovchining, tinglovchining va predmetning fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo'lishini talab qiladi.

ТИЛ ВА НУТҚ БИРЛИКЛАРИНИНГ ФАРҚИ



- Nutq akti hamma vaqg ijodiy akt. Chunki har bir kishi o'z fikrini muayyan shakl so'z, nutq orqali ifodalayotganida o'zining bilimiga, lug'at xazinasiga, hayot tajribasi va madaniy saviyasiga suyanadi. Til taxlil qilish yo'li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi.
- Tilning xayoti uzoq, xalkring hayoti bilan bog'liq, nugqning hayoti esa qisqa, ya'ni aytilgan vaqgdagina mavjud.

ТИЛ ВА НУТҚ БИРЛИКЛАРИНИНГ ФАРҚИ



- Nutq harakatchan, dinamik, jonli bo'lsa, til statik, stabildir.
- Nutq alohida shaxsga, individga bog'liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog'liq emas.
- Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq.
A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

ТИЛ ВА НУТҚ БИРЛИКЛАРИНИНГ ФАРҚИ



- Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo'l harakati bilan (jest) yoki qo'l harakatisiz, aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin, tilga bunday ta'rifavsif to'g'ri kelmaydi.
- Nutq ham monologik, ham dialogik bo'la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo'la olmaydi.

V mavzu:	Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi.
-----------------	---

1.1.TA'LIM BERISH TEXNOLOGISINING MODELI

Mashg'ulot vaqti 80 minut	Talabalar soni 70 - 90 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Axborot berish asosidagi ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1.Substansiya va forma. 2.Sistema va struktura. 3. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi haqidagi farazlar to'g'risida keng ma'lumot berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • <u>O'quv kursining maqsadi</u> va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma berish; • Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi. to'g'risida keng ma'lumot berish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi haqida keng ma'lumotga ega bo'lish.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	o'zbek tilida ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, taqdimot, tushuntirish
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruh bo'lib ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron doska, videofilm
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol javob.

1.2. "Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi. " MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
7. M avzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ukuv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chikaradi mavzular ruyxatini beradi 1.2. Birinchi mashgulot mavzusi, uning maksadi va ukuv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Asosiy mavzu mazmuni buyicha ma'lumotlar bayon kilishga utadi.	Tinglaydi. Tinglaydi.
2 - Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maksadida savol beriladi 2.1.1.Substansiya nima? 2.1.2.Forma nima?	Savolga javob beradi.

	2.1.3.Tilda shakl nimani anglatadi? 2.1.4.Til va nutq birliklariga shakl va mazmun xosmi? 2.1.5.Sistema va struktura orasidagi dialektik munosabatni qanday tushunasiz? 2.1.6.Til sistemami yoki strukturami? 2.2. Javoblar umumlashtirib, Umumiy tilshunoslikning urganadigan soxalari buyicha ma'lumot beradi. 2.3. Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.	Tinglaydi. Berilgan savollarga javob beradi.
8. Y akuniy bosqich (10 daqiqi)	3.1. Mavzu buyicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa kilinadi. 3.2. Mustakil ishlash uchun umumiy tilshunoslikka oid fanlarning urganish manbalari xakida ma'lumot tuplab topshiriladi. 3.3. Fan bilan bog'liq adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish	Savollar beradi. Vazifani yozib oladi.

5-ma`ruza (2 soat)

5.1. Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi

6-ma`ruza. Tipologiya va lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik tasnifi. Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy – tarixiy, chog'ishtirish, distributiv tahlil va boshqalar

Ma'ruza rejasi

1. Substansiya va forma.
2. Sistema va struktura.
3. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi.
4. Tipologiya va lingvistik tipologiya.
5. Tillarning tipologik tasnifi.
6. Lisoniy metodlar:
7. tasviriy metod
8. qiyosiy – tarixiy metod
9. chog'ishtirish metod
10. distributiv tahlil metodi va boshqalar

Dialektik falsafa o'z qonun va kategoriyalari bilan obyektiv voqyelikni ilmiy bilish jarayonida birdanbir usulologik asos bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra deyarli barcha fanlar dilektikaning qonun va kategoriyalariga suyanadi, undan quvvat oladi, unga asoslanadi. Bu esa dunyoni bilish jarayonining obyektivligani, haqqoniyligani ta'minlaydi.

Dialektik kategoriyalar obyektiv voqyelikka tabiat va jamiyatga tegishli bo'lgan predmet, narsa, hodisa va jarayonlarni, ular harakatining umumiy qonuniyatlarini, o'zaro

aloqadorligi, tuzilishi, rivojlanishi, belgi, xususiyatlari kabilarni aks ettiradi. Demak, substansiya¹¹⁰ va forma¹¹¹ dialektik falsafaning eng faol kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Substansiya, ya'ni mohiyat keng ma'nodagi predmetlarni — predmetlarning eng muhim ichki jihatlarini, xususiyatlarini, ularda sodir bo'layotgan jarayonlarni qayd etadi.

Substansiyaning ajralmas zid jufti bo'lgan forma, ya'ni shakl (yoki hodisa) predmetlarni predmetlarning ko'rinishini, bevosita ko'zga tashlanib turgan tashqi tomonini aks ettiradi. Anig'i, shakl (hodisa) muayyan mohiyatning muayyan qiyofasini, turli ko'rinishlarda ta'sir qiluvchi, namoyon bo'luvchi va shunga ko'ra ajralib turuvchi jihatini ifodalaydi.

Mohiyat va shakl (hodisa) o'zaro bog'liq bo'lib, predmetlarning ichki va tashqi tomonini xarakterlaydi. Mohiyat — ichki, yashirin, shakl (hodisa) esa tashqi, realdir. U mohiyatning moddiy ko'rinishi, qobig'idir.

Mohiyat hodisalaridagi — bir turdagi predmetlardagi umumiylik bo'lsa (masalan, barcha hikoyalarning, soatlarning, qalamlarning mohiyati bitta, umumiy), hodisa xususiylikdir, yagonaliqsir (masalan, umumiylik bo'lgan mohiyat turlicha shaklga, ko'rinishga, hajmga ega bo'lgan yagonani, alohidani aks etgiradi. Qiyoslang: soat, kalit, bulut, suv)

Hodisa dinamikroq, o'zgaruvchanroq, mohiyat esa statikroq, o'zgarmasroq, doimiyroqsir.

Falsafiy jihatdan mohiyat hodisani belgilaydi, uning mag'zi, asosi bo'lib, u hodisani, predmetni predmet qiluvchi, ijgimoiy ahamiyatga egaligini ta'minlovchi hisoblanadi.

Shakl (hodisa) predmetning mavjud bo'lish usuli, mohiyatning elementlarini bir butunlikka bog'laydigan narsadir. Forma predmetning borligini, nima ekanligini ko'rsatib turadi.

Mohiyat predmetning belgi va xususiyatlarida kuzatiladi. U predmetning ichki jihatdan qandayligini ifodalaydi.

Falsafadagi mohiyat va hodisa dialektikasi tilshunoslikda til va nutqqa, til va nutq birliklarida (elementlarida) shakl va mazmun munosabatida kuzatilib, ifodalanadi. Binobarin, falsafadagi mohiyat va hodisa munosabati til faktlarida shakl va mazmun munosabatining falsafiy asosi usulologik asosi bo'lib, ayni muammo tilshunosliqqa XIX asrning boshlarida o'rta tashlandi.

Til va nutq muammosidan bizga ma'lumki, ushbu ijgimoiy psixik, ijtimoiy individual hodisalar o'zaro bog'langan, o'zaro munosabatdagi jarayonlardir.

Til va nutqqa ham shakl va mazmun munosabati bevosita xos bo'lib, ularda shakl va mazmun kategoriyasining bog'liqligi o'ziga xos namoyon bo'ladi, lisoniy hodisalar, birliklar tahyailida faol qo'llanadi.

Tilshunoslikda — til sistemasida shakl, odatda, lisoniy birliklarning moddiy tomoni, tashqi ifodalovchi tovush tomoni bilan; mazmun esa til birliklarining ichki tomoni, ma'nosi, ifodalanuvchi tomoni bilan bog'lanadi.

Til va nutq birliklarining shakli va mazmuni o'rtasidagi bog'lanish shartli ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Chunki bunday bog'lanishlar jamiyat tomonidan tayyor holda olinadi. Aniqrog'i, jamiyat a'zolari til birliklari orasida qayd etilgan bog'lanishlarni avlodlardan tayyor holda qabul qiladi, o'rganadi. Ularni qanday holda olgan bo'lsalar, shunday hodda ishlatadi, qo'llaydi, aks holda jamiyat uni qabul qilmaydi va unga

tushunmaydi. Qiyoslang: (i) harfini «i» sifatida talaffuz etish, () bu belgani ayirish alomati, buni (x) ko'paytirish belgisi, ushbu raqamlarni (1, 10, 100, 1000, 1000000) bir, o'n, yuz, ming, bir million deb tushunish vaqqidagi shakl va mazmun bog'lanishi ijtimoiy, (shartli) bog'lanish hisoblanadi. Demak, bunday bog'lanishlar, munosabatlar jamiyat tomonidan avlodlardan shu holda qabul qilingan. Shunga ko'ra jamiyat a'zolari ushbu bog'lanishlarni, aloqalarni shu holatda oladi, o'rganadi va qo'llaydi. Demak, keyingi avlod ularni qanday qabul qilgan bo'lsalar, xuddi shunday ishlatadi, aks holda uni qabul qilmaydi ham, tushunmaydi ham.¹¹² Shunday bog'lanish dialektik bog'lanish, munosabat bo'lib, u ijtimoiy (shartli) bog'lanish sifatida mavjuddir.

Til sistemasida til va nutq, til va nutq birliklari shakl va mazmun munosabatiga ko'ra, alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Til va nutq birliklari bo'lgan tovush, fonema, morfema, leksema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar zaruran shakl va mazmun munosabatini o'zida tashiydi, aks ettiradi.

Muayyan birlik bo'lgan tovush — fonema shakl va mazmun nuqqai nazaridan boshqalaridan farqli o'ziga xoslikka ega, ya'ni tovush nutq tovushlari, fonemalar alohida, ayrim ayrim olinganda shakl (forma) bo'la olmaydi.

Aytmoqchimizki, so'zlarning tashqi tomonini, shaklini hosil qiluvchi alohida alohida tovushlar o'zicha, yakka holda tilning faqat materiali, modsiy birligi, materiyasi hisoblanadi.¹¹⁴ Ayni vaqtda, ta'kidlash lozimki, til sistemasida tovush tomon muhimligi, asosiyliги bilan ajralib turadi. Chunki tovush bo'lmasa muayyan birlik, masalan, so'z (so'z shakli) mavjud bo'lmaydi, «yaratilmaydi». So'z o'zining tovush asosi tufayli nutqqa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi. Tovush so'zni tinglovchi uchun moddiy hodisaga, «borliqqa», voqyelikka aylantiradi.

Til (nutq) birligi bo'lgan so'zda — leksema esa shakl va mazmun munosabati tovushga nisbatan boshqacha — mukammal, aniq, to'liq ifodalanadi. So'z (leksema) shaklga ham, mazmunga ham har ikki jihatga ega bo'lgan lisoniy birliklar til va nutq birliklari sifatida muayyan mikrosistemani hosil qiladi. Demak, so'zleksema shakl va mazmundan iborat belgidir, birliqdir.

Sistem tilshunoslikda leksemaning (til birligining) shakl tomoni (tashqi moddiy tomoni) nomema, leksemaning mazmun tomoni (ma'nosi, signifikati, ichki tomoni) esa semema terminlari bilan ataladi.

Xullas, so'zleksema muayyan mazmunning, ma'noning, shakli, formasidir. Shuningdek, morfemalar (o'zak va affikslar) ham muayyan ma'noni, mazmunni ifodalash shakli (formasi) hisoblanadi. Bunda o'zak morfema leksik ma'noning, affiks morfema esa grammatik ma'noning formasi, ifodalovchisi bo'lib keladi. Demak, morfemalar ham shakl va mazmun munosabatini o'zida tashiydi.

Nutq birliklari bo'lgan so'z birikmasi, gap va matnlar ham shakl va mazmun munosabatini o'zida mukammal aks ettirishiga ko'ra, fikr ifodalashda — fikr almashish jarayonida faol birliklar hisoblanadi.

Demak, muayyan ma'no, tushuncha ifodalovchi til (nutq) birliklarining moddiy tovush tomoni shaklni (formani) hosil qilsa, muayyan ma'no, tushunchalar til (nutq) birliklarining mazmunini, shaklning (formaning) ichki tomonini, mohiyatini tashkil qiladi.

5.2.SISTEMA VA STRUKTURA

Nazariy tilshunoslikning muhim va murakkab muammolaridan bo'lgan sistema hamda struktura munosabatida sistema butunlik — bir butun, yaxlit obyekt sifatida qabul qilinadi. Struktura esa sistemaning — butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan, sistemani sistema qiluvchi birbiri bilan zaruriy bog'langan elementlar, bo'laklarning o'zaro bog'lanish tartibi, chizmasi sifatida voqeyelanadi. Boshqacha aytganda, sistema (yunoncha) elementlardan qismlardan, bo'laklardan iborat butunlik bo'lsa, struktura (yunoncha) o'zaro bog'liqlik, ichki aloqatuzilish, qurilish demakdir. Struktura sistemani — bir butun obyektни tashkil qilgan elementlar, qismlar orasidagi ichki aloqa, munosabatlardir. Anig'i, sistema — butunlik, struktura qismlilik. Sistema — umumilik, struktura — xususiylik. Sistema elementlar aloqasining, bog'liqligining tugallangan nuqqasi, yaxlitligi. Struktura — elementlar aloqasining boshlang'ich nuqqasi, ularning dastlabki hator ichki bog'lanishi, munosabati. Sistema sintetik, struktura analitik tushunchalardir.

Sistema elementlari orasidagi munosabatlarning jami uning — sistemaning strukturasini hosil qiladi.

Demak, sistema va struktura terminlari sinonim tushunchalar bo'lmay, har biri o'ziga xos xususiyatlariga, jihatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi, nisbiy mustaqil hisoblanadi. Sistema va struktura o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan falsafiy kategoriyadir.

Sistema va struktura munosabatida bir butun obyekt va shu obyektning tuzilishini ta'minlovchi, uning tarkibi (atributi) bo'lgan elementlar, qismlar aniq,

obyektiv namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra har bir sistema unda elementlar, qismlar mavjudligiga va ajralishiga ko'ra alohida hisoblanadi. Anig'i, alohidalik har qanday sistemaning eng muhim xususiyatidir.

Qiyoslang, quyosh sistemasi, o'simliklar sistemasi, tirik organizmlar sistemasi, transport sistemasi, ta'lim sistemasi, tarbiya sistemasi va boshqalar.

Sistema muayyan butunlik, obyekt sifatida elementlarni, qismlarni, bo'laklarni va ularning o'zaro aloqasini o'z tarkibiga olsa, struktura ayni obyektning, butunlikning ichki tuzilishi, tartibi, tashkil topishi sifatida farqlanadi.

Professor V.M.Solnsev: 1) elementlar, qismlar va ularning o'zaro aloqalari kategoriyani — sistemani yoki bir butunlik sifatidagi obyektни tashkil qiladi; 2) ichki aloqalarning jami, yig'indisi kategoriyani — sistemaning, butunlikning atributi sifatida strukturani hosil qiladi, deydi. Demak, sistema elementlari, qismlari va sistema strukturasini birgalikda sistemani yuzaga keltiradi. Struktura muayyan sistemaning ichki shaklidir.

Xullas, sistema va struktura tushunchalari, aytilganidek, o'zaro bog'liq bo'lib, har biri o'ziga xos tomonlari, jihatlari va xususiyatlari bilan mustaqil bo'ladi, nisbatan ajralib turadi.

Sistema va struktura tushunchalari tabiat va jamiyat bilan bog'liq jarayonlarga, predmet va hodisalarga xosligi, keng qamrovli, murakkab kategoriya ekanligi, obyektiv borliqni ilmiynazariy, falsafiy o'rganish hamda tushunishda yetakchilik qilishi bilan fan olamida qudratli kategoriya sifatida xizmat qiladi.

Obyektiv borliq sistemalardan iborat ekan, ayni sistemalarni mohiyatan ikki asosiy turga, guruhga aj

ratish mumkin: a) moddiy (material) sistemalar; b) ma'naviy (ideal) sistemalar.

Material (modsiy) sistemalar o'zaro munosabatdagi muayyan material elementlardan iborat sistemadir. Material sistemalar belgi va xususiyatlariga ko'ra cheksiz, turlichadir. Chunki bu sistemani hosil qiluvchi elementlar va ayni elementlar orasidagi aloqa va munosabatlar cheksiz, turlitumandir.

Modsiy sistema sifatida, masalan, toshni, binoni, daraxtni olish mumkin. Toshda elementlar — molekulalar moddaning shu modda asosiy kimyoviy xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik zarrasi; molekula o'zaro kimyoviy bog'langan bir xil yoki turlicha atomlardan iborat bo'ladi (atom kimyoviy elementning eng mayda zarrasi). Atom yadrodan va elektronlardan tuzilgan murakkab sistema bo'lib, atom yadrosining o'zi esa proton va neytronlardan iborat va ular orasida aloqalar (molekulyar aloqalar) mavjud.

Har qanday materiadsan tayyorlangan inshoot, qurilma, imorat, binoni material sistema deb hisoblash mumkin. Chunki u o'zaro aloqada, o'zaro bog'liq bo'lgan qismlardan, bo'laklardan tashkil topadi.

Har qanday jonli organizmni material sistema deb hisoblash mumkin. Shuningdek, odamlarning tartibga solingan qo'shilmalariharbiy qo'shilma, bo'linmarazvedka bo'linmasi, o'qchi bo'linma, sport bo'linmasi va boshqalar ham o'ziga xos moddiy sistemadir

Tarkibiy qismlarga ajraluvchi, tartibga solingan har qanday obyekt material sistema sifatida olinishi mumkin.

Sistemani tashkil qilgan moddiy elementlarning yig'indisi shu sistemaning moddiy asosini (substansiyasini) hosil qiladi. Boshqacha aytganda, material sistemaning moddiy asosi (substansiyasi) sistemaning

elementlaridan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra material sistemaning elementlari haqida gapirganda, muayyan ma'noda, uning substansiyasini nazarda tutish mumkin; substansiya haqida gapirganda esa uning (material sistemaning) elementlarini nazarda tutish mumkin. Ammo substansiya va element tushunchalari bir xil emas.

Material sistemalar birlamchi material sistemalar deb nomlanadi. Ular kishilar faoliyatiga ko'ra (masalan, mashina, bino) yoki ularning faoliyatisizfaoliyatiga bog'liq bo'lmagan hodsa (masalan, yulduzlar sistemasi, yer sistemasi) paydo bo'ladi.

Material sistemalardan farqli ideal sistemalar ham bo'lib, ular shunday sistemalarki, ayni sistemalarning elementlari ideal sistemalardir, ya'ni o'zaro muayyan munosabatlar bilan bog'langan muayyan g'oya, tushuncha yoki fikrlardir.

Ideal sistema sifatida u yoki bu asar goyalari sistemasini, u yoki bu fan tushunchalari sistemasini olish mumkin.

Ideal sistemalar material sistemalardan farqli holda hamma vaqg kishilarning faoliyatiga, anig'i ularning fikriy faoliyatiga ko'ra yuzaga keladi. Ular muayyan (biror) moddiy substansiyadanasosdan tashqarida mavjud bo'lmaydi.

Ideal sistemalar material substansiya, ya'ni insonning miya a'zosimiyaning fikrlashi orqali hosil bo'ladi va material substansiyada (har qanday materiyada) mustahkamlanadi, «qotiriladi».

Ideal sistema (tushuncha yoki g'oyalar sistemasi) axborot (informasiya), semantik informasiyaning ko'rinishlaridan, turlaridan biri bo'lgan sistemadir. U biror boshqa material substansiyada (uni o'zida tashuvchida) mustahkamlanadi.

Demak, aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ldiki, ideal sistemalarni o'zida saqllovchi yoki tashuvchi maxsus, alohida material sistemalar mavjud. Ushbu material sistemalar nima? Ular nimalardan tashkil topadi, degan mantiqiy savol tug'iladi.

Bunday sistemalar, anig'i, material sistemalarikkilamchi material sistemalar deb nomlanib, ular semantik informasiyani (g'oyalar, tushunchalar sistemasini) o'zida mustahkamlash, saqlash, qayd etish va ifodalash vositasi sifatida faqat inson faoliyati tufayli yuzaga keladi. Ularikkilamchi material sistemalar tushuncha yoki g'oyalarni bir insondan boshqasiga yetkazish, berish, kishilarning o'zaro fikr almashish vositasi sifatida yuzaga keladi. Bunday sistemalar belgilar sistemasini yoki semiotik sistemalar deb yuritiladi. Til ana shunday sistemagabelgilar sistemasini yoki semiotik sistemaga kiradi.

Ikkilamchi material sistemalarning elementlari (birliklari) belgi sifatida, ya'ni moddiy elementlar sifatida o'zicha emas, balki o'zidan tashqaridagi biron narsapredmetni ifoda etishiga, anglatishiga ko'ra ahamiyatga ega bo'ladi. Bu barcha ikkilamchi moddiy sistemalarning umumiy xususiyati bo'lib, shunga qo'ra ular semiotik birliklar yoki belgilar deb yuritiladi.

Demak, ikkilamchi material sistemalarning material substansiyasi.biror ideal sistemani o'zida qayd etish, «aks ettirish», mustahkamlash vazifasini bajaradi. Bu mustahkamlash kishilar faoliyati orqali amalga oshib, sistemaning alohidaligiga (diskretligiga) ko'ra shunday yuz beradi.

Jamiyat muayyan tushuncha yoki g'oyalar sistemasini (semantik informasiya sistemasini) o'zida saqlash va ifodalash vazifasiga ega ikkilamchi moddiy (material) sistemalardan — moddiy elementlardan ijgimoiy — amaliy maqsadlar uchun faol foydalanadi.

Ikkilamchi material sistemalar muayyan xususiyatlarga, jihatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlar, aytilganidek, ularning ushbu material sistemalarning substansial tabiatiga xos bo'lmaydi, ularda bevosita, mohiyatan mavjud bo'lmaydi. Masalan, qizil rang o'zicha man qilish, ko'k rang o'zicha ruxsat berish xabarini ifodalaydi. Ularga ko'cha harakatlarini boshqarish signallar sistemasining man etish va ruxsat berish axboroti yuklatilgan, shunday vazifa berilgan, «buyurilgan».

Ideal sistemaning biror ko'rinishiga, xiliga (obyektiga) ikkilamchi material sistemaning biror obyektiga muvofiq keladi: yurishga ruxsat axborotiga (ideal sistemaga) ko'k rang material obyektiga; o'rin, chiqish axborotiga ga, dan; ko'plik informasiyasiga — lar kabi moddiytil birliklari to'g'ri keladi.

Ikkilamchi moddiy sistemalar moddiy asosining (substansiyasining) birinchi vazifasi g'oya, fikr, tushuncha ifodalashdan iboratdir. Ikkilamchi material sistemalar material substansiyasining ikkinchi eng muhim vazifasi ideal sistemalar (tushuncha, g'oya, fikrlar) elementlarini o'zaro differensiasiya qilishda, farqlashda ko'rinadi.

Tilda ham xuddi shunday. Masalan, bilan so'zining tilda ko'makchi yoki bog'lovchi sifatida qo'llanishi uning fizik, substansial xususiyatiga bog'liq emas, uning mohiyatidan kelib chiqmaydi: olma bilan anor. Balki bunday xususiyat (ko'makchi, bog'lovchi bo'lish) unga yuklatilgan, «yozib qo'yilgan» va bu xususiyat ijtimoiy amaliyot orqali mustahkamlangan.

I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha inson obyektiv borliqni ikki xil yo'l bilan qabul qiladi: 1) predmet hodisalarning kishi sezish (eshitish, ko'rish, ta'm bilish) a'zolariga bevosita ta'siri orqali — birinchi

signallar sistemasi va 2) so'zlarning ta'siri orqali — ikkinchi signallar sistemasi.

Birinchi signallar sistemasi insonlarga ham, hayvonlarga ham tegishli bo'lsa, ikkinchi signallar sistemasi faqat insonga xosdir. Demak, til ikkilamchi belgilar sistemasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi.

Xullas, til o'ziga xos strukturaga (tuzilishga) ega bir butun sistemadir. Til o'zaro uzviy bog'liq va birbirini taqozo etadigan moddiy birliklarning yig'indisidan tashkil topgan, o'ziga xos qurilishga ega bo'lgan murakkab sistemadir.

Til sistemasini tashkil etgan til birliklari, ularning o'zaro munosabati, birbiri bilan bog'lanish qonunqoidalari tilning strukturasi tashkil etadi.

Til sistemasi strukturasi ko'ra juda murakkabligi, ko'p sathdigi (yarusligi) bilan ajralib turadi. Tilning birbiri bilan uzviy bog'liq fonetik tomoni, leksikasi, morfologik va sintaktik qurilishstrukturasi qatlamlari bo'lib, bular birgalikda, dialektik bog'liqliqsa «yashaydi», bir butunlikni tashkil qiladi, til sistemasini tuzib, uning mavjudligini (obyektivligini) ta'minlaydi.

Tilning har bir birligi, elementi butunlikning qismi sifatida sistema tarkibiga kiradi. U til sistemasining boshqa birliklari va elementlari bilan bevosita yoki bivosita til kategoriyalari orqali bog'langan bo'ladi.

Til sistemasi tuzilishiga ko'ra ham, vazifasiga qo'llanish va rivojlanishiga ko'ra ham murakkab hamda ko'p tarmoqlidir.

Til sistemasining har bir sathi: fonetik, leksik, grammatik yaruslari o'ziga xos sistema bo'lib, ular ham muayyan qismlardan, struktural elementlardan moddiy birliklardan tashkil topadi, muayyan ijtimoiy vazifa

bajaradi. Demak, aytilganlarga ko'ra tilni sistemalar sistemasi deb aytish mantiqan to'g'ridir. Til sistemasi sathdariga ichki sistemalariga nisbatan makrosistema bo'lsa, uning ichki yaruslari qatlamlari unga nisbatan mikrosistema sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, falsafiy ma'noda har qanday makrosistemaning ichki qurilishi, tashkil topishi mikrosistemalardan iborat bo'ladi.

Tipologiya tilshunoslikning muayyan sohasi sifatida tillarni tipologik klassifikatsiya qilish jarayoni bilan shug'ullanadi. Shunga ko'ra tipologiya tillarning tipologik tasnifining muxim qonunqoidalari va usullarini tekshiradi. Shuningdek, tipologiya lisoniy birliklarni biron umumiy belgisi asosida tasnif qilish jarayonini ham bajaradi.

Ma'lum bo'ldiki, tipologiya, bir tomondan, tillarni tasnif qilishning umumiy nazariyalari, qonunqoidalari va usullarini o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, u til sistemasi birliklarini umumiy belgisi, xususiyati asosida tasnif qilish bilan shug'ullanadi.

XIX asrda tezlik bilan rivojlanish bosqichiga o'tgan tipologiyaning muhim xususiyati shundaki, u turli tillar qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar doirasida ish ko'radi. Ushbu tillarni o'zaro qiyosiy o'rganadi. Shu jarayonda tipologiya qiyoslanayotgan tillarning tuzilishidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, izohlaydi.

Qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarning mavjudligi, ushbu tomonlarning yuzaga kelish sabablarini o'rganishga va tushunishga bo'lgan intilish tilshunosliqsa alohida soha, yo'nalish bo'lgan lingvistik tipologiyaning (tipologik lingvistikaning) maydonga kelishiga sabab bo'ldi.

Lingvistik tipologiya tillarning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat'iy nazar, ularning tuzi

lishi jihatidan yaqinlik, bog'liklik darajasini tekshiradi, mavjud materiallar asosida muayyan hodisaning mohiyatini, tabiatini aniqlaydi.

Lingvistik tipologiya (tipologik lingvistika) tillarni o'zaro qiyosiy tadqiq qilish jarayonida tillar uchun umumiy bo'lgan hodisalarga alohida e'tibor beradi, ushbu umumiyliklarni aniqlaydi.

Eslatamiz, dunyo tillarining deyarli barchasida uchraydigan, barchasi uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlar universaliza deb yuritiladi. Demak, universalizatsiyalar qiyos qilinayotgan qator tillar tuzilishiga xos lisoniy hodisalar, birliklar bilan belgilaladi. Masalan, so'zlarning bir va ko'p ma'noliligi, zamon kategoriyasi, omonimlar, so'z turkumlari, unli va uvdosh tovushlar, terminlar, sinonimlar, urg'u, harakat va holat fe'llari kabilar.

Ma'lum bo'ldiki, qayd etilgan ushbu lisoniy hodisalar universalizatsiyalar sifatida o'nlab, yuzlab tillarga tegishli ekanligi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtda qiyos obyekti bo'lgan tillarning faqat o'zigagina xos — shaxsiy jihatlari hodisalari borki, bular ham tillarni tipologik tadqiq qilish jarayonidalingvistik tipologiyada aniqlanadi. Masalan, o'zbek tiliga xos o', q, g', h kabi unli va undosh tovushlar, urg'uning tilimizda, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushishi (istislol, tadbirkor, ma'naviyat), rus tilida esa urg'uning so'z boshida, o'rtasida va oxirida ham kelishi. Shuningdek, rus tilida urg'uning so'z yasash vazifasiga ham egaligi, ya'ni urg'u pozitsiyasining o'zgarishi bilan so'z ma'nosining ham o'zgarishi yuz beradi. Masalan, muka (un) — muka (azob), zamok (qulf) — zamok (qal'a, qo'ryun).

Rus tiliga xos m, sh, s kabi undoshlar, shuningdek, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan, ammo rus tiliga xos rod va vid kategoriyalari kabilar.

Demak, lingvistik tipologiya tillar o'rtasidagi umumiy jihatlargagina emas, balki farqli, o'ziga xos tomonlarga ham alohida e'tibor beradi.

Lingvistik tipologiya qiyoslanayotgan tillar tahlili va tadqiqida o'z vazifasini, faoliyatini dialektik falsafaning usulologik asos bo'lib xizmat qiluvchi muhim kategoriyalaridan biri umumiylik va xususiylik kategoriyasiga ko'ra ish olib boradi. Shu jarayonda tillarning sistem — struktur tabiatiga xos yalpi jihatlar, alohidaliklar (maxsusliklar) aniklanadi, tavsiflanadi.

Xullas, umumiy tilshunoslikning muhim bir sohasi bo'lgan lingvistik tipologiya — tillar tipologiyasi turlicha tuzilishga ega bo'lgan, turlicha til oilalariga mansub tillarning tipologik xususiyatlarini hamda mazkur tillarning paydo bo'lishini, ularning taraqqiyotini aniklashga, belgilashga xizmat qiladi ular haqida qator asosli, ishonchli, haqqoniy ma'lumotlar beradi.

AN'ANAVIY METODLAR TIPOLOGIYASI

Metod haqida. Til o'z tabiatiga ko'ra juda murakkab hodisa bo'lgani uchun, uni o'rganishda ham juda ko'p xil metodlar qo'llanilib keldi. Chunonchi, qadimgi Gresiyada tilga falsafaning bir elementi deb qaralgan bo'lsa va shu jihatdan tahlil qilingan bo'lsa, qadimgi Hindistonda, O'rta Osiyoda va arablarda amaliy ta'lim maqsadida tahlil qilindi. Bunda faktlarni bir-biriga qiyoslash, o'xshash va noo'xshash qismlarga ajratish

priyomlaridan foydalanildi. Lekin hali u davrlarda tilni tekshirishning jiddiy metodi yaratilmagan edi.

Tilni o'rganish, tekshirish metodi tom ma'noda, asosan, Hind-Yevropa tilshunosligi shakllanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keldi.

Metod termini grekcha *methodos* so'zidan bo'lib, «tadqiqot, ta'limot, bilish yo'li» ma'nolarini ifodalaydi. U fanda asosan ikki ma'noda: a) falsafiy ma'noda, b) ayrim fan sohasiga oid metod ma'nosida qo'llanadi.

Hamma fanlarga oid umumfalsafiy ma'noda qo'llanganida metod hayotdagi istagan narsa yoki hodisani bilish va tushuntirish yo'lini anglatadi. Bunday metod barcha maxsus fanlar uchun bir xildir. Bu metod obyektiv borlikdagi har qanday hodisani materiya bilan ongning birligi asosida, materiyaning birlamchiligi, ongning ikkilamchiligi, tabiat qonunlarining obyektivligini e'tirof qilish asosida, narsa va hodisalarning o'zaro bog'langanligini, ularning doimiy, uzluksiz rivojlanish jarayonida ekanligini, bu taraqqiyotdagi ziddiyat sifat o'zgarishlarining miqdor o'zgarishlari bilan o'zaro bir-biriga ta'sir qilishi kabilarni e'tirof qilish asosida ko'rishni, izohlashni talab qiladi.

Maxsus ilmiy metod ayrim fanga oid hodisani bilish va izohlash yo'lidir. Masalan, fizika, ximiya, biologiya, matematika, tilshunoslik, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga oid hodisalarni aniqlash va izohlashning o'z metodlari, ya'ni yo'llari bor.

Har bir metodning, birinchidan, o'z asosiy vazifasi, ikkinchidan, o'rganish obyektida o'zining ayrim sohasi bo'ladi. Masalan, tilshunoslikda uzoq vaqt qo'llangan metod qiyosiy-tarixiy metod edi. Uning asosiy vazifasi—qarindosh tillarning taraqqiyot qonunlarini o'rganish edi. Tilni o'rganishdagi uning o'z sohasi til strukturasidagi qarindoshlik yaqinlikni ko'rsatuvchi hodisalardir.

Hozirgi paytda keng tarqalgan struktural tahlil metodi esa boshqa narsani o'z asosiy vazifasi qilib qo'yadi: bunda til struktural elementlari orasidagi munosabatlarni va aloqalarni o'rganish maqsad qilib qo'yiladi. Bu metodning tekshirish sohasi struktural munosabatlar sistemasidir. Har bir metodning o'z metodikasi, tekshirish usuli bo'ladi.

Metod haqiqatni bilish yo'li bo'lsa, metodika shu yo'lni ochish va amalga oshirish yo'lidir. Tilshunoslikda qo'llangan va qo'llanilayotgan ilmiy-tadqiqot metodlari anchagina.

Maxsus ilmiy tadqiqot metodi falsafiy metodga ma'lum darajada tobe bo'ladi, falsafiy metod ta'siri ostida o'zgaradi. Masalan, struktural tahlil metodi Amerika tilshunosligida boshqacha, Rossiya tilshunosligida boshqacha tatbiq qilinadi.

Umumfalsafiy metod maxsus ilmiy metodlarga (ko'p xil fan sohasidagi metodlarga) ta'sir qiluvchi umumiy ta'limot bo'lgani uchun uni metodologiya, ya'ni ilmiy tadqiqot usuli bo'lgan metodlar haqidagi ta'limot deb yuritadilar. Ilmiy tadqiqot metodidan aniq ishlash metodikasini farqlash lozim. Metodika olimning amaliy ravishda ishlash sistemasi bo'lib, u faktlarni to'plash, o'rganish va umumlashtirish usullarini nazarda tutadi. Demak metod — haqiqatni bilish yo'li bo'lsa, metodika shu yo'lni ochish va ko'rish qurolidir.

Tilshunoslik sohasida qo'llangan va qo'llanayotgan ilmiy tadqiqot metodlari ancha. Ulardan eng qadimgisi va bizning kunlarimizgacha asrlar davomida qo'llanib kelingani tasviriy tahlil metodidir.

1.1. Tasviriy metod til sistemasiga kiruvchi elementlarni tasvirlab, ko'rsatib berish bilan birga, o'sha elementlarni tahlil qiladi va ijtimoiy funksiyalarini o'rganish uchun qo'llanadi. Tasviriy metod asosida tilning fonemalar sistemasi, morfemalari, grammatik kategoriyalari sinchiklab o'rganiladi, tahlil qilinadi va ularning harakterli xususiyatlari ko'rsatib beriladi. Shu metod asosida tillarning ta'lim uchun zarur bo'lgan tasviriy grammatikalari, lug'atlar yaratildi. Bu metodning yutuqlari juda katta.

Hozirgi maktab va oliy o'quv yurtlari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalarning ko'p qismi tasviriy metod asosida yaratilgan.

Tasviriy metod tilshunoslik bilan birga taraqqiy etdi, turli davrda turli lingvistik yunalishlar, maktablar uchun xizmat qildi, Hatto qiyosiy-tarixiy metod bilan ish olib borgan tilshunoslar ham tasviriy harakterda asarlar yaratdilar. Bu metod til tizimiga kiruvchi birliklarni tasvirlab, ko'rsatib berish bilan birga, bu birliklarni tahlil qiladi va ijtimoiy vazifalarni o'rganish uchun qo'llanadi. Tasviriy metod asosida tilning fonema tizimi, morfem tuzilishi, grammatik kategoriyalari, so'zlarning ma'nolari va gap turlarni o'rganiladi, tahlil qilinadi, tilning ichki qurilishi, tilning tizimini tashkil etgan birliklar orasidagi munosabatlarni o'rganishga katta e'tibor beriladi. Tildagi harakterli xususiyatlarni ko'zatish, til birliklarining qo'llanilishi va ularni tasniflash, ilmiy asoslash tasviriy metodning asosiy vazifasi hisoblanadi.

1.2. QIYOSIY-TARIXIY METOD

Qiyosiy-tarixiy metod — aniq tillardagi bir-biriga teng bo'lgan faktlarni solishtirib ko'rib, yozma yodgorliklarda qayd qilinmagan til faktlarini qayta tiklash usulidir.

Demak bu metod bilan ish qilinganida, birinchidan, kamida ikki tilda mavjud bo'lgan ayni bir hodisa bir-biriga qiyos qilinadi; ikkinchidan, shunday qiyoslov orqali bungacha ma'lum bo'lmagan lingvistik birliklarni (xususan, so'z va morfemalarni) «tiriltirish»ga, ya'ni ularning tarixiy qiyofalarini qayta tiklashga erishiladi(.

Qiyosiy-tarixiy metodning vazifasi garchi qarindosh tillarning o'tmishda qanday qonunlar asosida rivojlanganligini aniqlash bo'lgan bo'lsa ham, bu metod biron bir til sistemasini yoki uning taraqqiyotidagi biror bosqichni tiklash uchun xizmat qilolmasdi.

Odatda qiyosiy-tarixiy metod asosida qarindosh tillarni o'z ichiga oladigan til oilalarining qiyosiy fonetikasi va qiyosiy morfologiyasi yaratildi. So'z yasash masalalari ham bu metod asosida tahlil qilipishi mumkin. Ammo qiyosiy leksikologiya, semantika va sintaksis sohalarida qiyosiy-tarixiy metod kammahsul bo'ldi.

Qiyosiy-tarixiy metod qadimgi hind adabiy tilida (sanskritda) yozilgan yozma yodgorliklar tilini Yevropa tillariga qiyoslab ko'rish va ular orasida o'xshashlik borligini aniqlash natijasida XIX asrning boshlarida maydonga keldi.

Bu metoddan foydalangan olimlar hind tillari va Yevropadagi tillarning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda bitta asos tildan ajralib chiqqan, qiyosiy-tarixiy metod esa ana shu asos til davridagi so'z va ularning formalarini tiklashga yordam beradi deb hisobladilar. Buning uchun mavjud yozma yodgorliklar orqali qadimgi tillardagi so'zlarning talaffuzi va ma'nosi qanday bo'lganligi aniqlanar edi, so'ng ular qiyoslanib, tekshirilayotgan so'zning aniqlanishi mumkin bo'lgan eng qadimgi qiyofasi va ma'nolari haqida fikr yuritilar edi.

Qiyoslash uchun faktlar faqat qarindosh tillardan—genetik tenglikka ega bo'lgan tillardangina olinadi. Masalan: ruscha svetok polyakcha kwiatok «gul»; forsha nov (nov), ruscha nov(iy), nemischa pey, inglizcha new «yangi», grekcha pater, patros, latinchacha pater, sanskritcha pitar, nemischa vater, forsha padar, ruscha papa, xindcha bobo «ota» demakdir.

Genetik tenglik fonetik tenglik va semantik tenglikka suyanadi. Fonetik tenglikning ikki xil tarixiy ko'rinishi mavjud: 1. Tovushlarning bir-biriga variant bo'la olishidan kelib chiqadigan fonetik tenglik. 2. Tovushlarning ma'lum ma'nodagi so'zni shakllantirishda bir xil xizmat qilishiga asoslangan funksional tenglik.

Tovushlarning bir-birlariga variant bo'lishi ularning talaffuzi bir-birlariga yaqinligidan kelib chiqadi. Bunday yaqinlik qiyoslanayotgan so'zlarning genetik jihatdan teng ekanliklarini ko'rsatadi. Masalan: german tillarida yozilgan eng qadimgi yodgorliklarda ko'rsatish olmoshi va undan tug'ilgan ko'rsatish artikli r harfi bilan yozilgan; keyinroq qadimgi ingliz tilida bu so'z r bilan ham, d bilan ham ifodalangan. Hozirgi nemis tilida bu tovush portlovchi d sifatida, ingliz tilida esa interdental (ikki Tish orasidan chiqadigan) th (ze) tovushi sifatida shakllangan. Solishtiring: nemischa denken («uylamoq»), Ding («narsa», «ish»), dick («semiz») — inglizcha think, thing, thick.

Demak d va th (ze) tovushlari aslida umumgerman tili tovushi bo'lgan r dan ajralib chiqqan bo'lib, ular bir-birlarining variantlaridir. Bunday holni o'zbek tili dialektlarida ham ko'rish mumkin. Masalan, eski o'zbek tilida oddiy sirg'aluvchi z tovushi bilan bir qatorda interdental sirg'aluvchi z tovushi ham bo'lgan. Ular talaffuz jihatidan bir-biriga yaqin edi. Ikkinchi tomondan z tovushi portlovchi d tovushiga ham o'xshab ketadi. (Qiyoslang: ozoq — ozoq—odoq). Endi z bilan d tovushlarini bir-birining varianti deb bo'lmaydi — ular funksiya jihatidan bir-biriga teng bo'lgan tovushlardir. Ma'lumki, yuqoridagi so'zning oyoq (oyoq) varianti ham bor. Bunday y tovushi ham z va d tovushlarining variantlari bo'lmay, ular bilan funksiyadoshdir, oradagi z tovushi esa z va d tovushlarini tarixiy jihatdan o'zaro bog'laydigan nuqta bo'lib, z — d tovushlarining funksional tengligi tasodifiy bo'lmay, qonuniy ekanligini ko'rsatib turadi.

Ba'zan shunday bo'ladiki, tovushlarning fonetik tengligini ko'rsatadigan o'tkinchi yoki oraliq tovush unutiladi, natijada fonetik jihatdan noo'xshash bo'lgan tovushlar orasida faqat funksional tenglikka qoladi. Bunday paytda so'z yoki morfemalarning semantik aloqalariga ahamiyat berilib, o'sha aloqalarga suyanan holda ish tutiladi. Masalan, so'roq olmoshi grek tilida r va t tovushlari bilan (poteros «qaysi», tis «kim», ti «nima»), latin tilida qu bilan (qualis «qanday», quis «kim», quid «nima»), slavyan tillarida k va ch bilan (ruscha kotoriy, kto, kogo, chto, chego), got tilida hv bilan (hvas «kim», hva

«nima»), nemis tilida w bilan (wyer «kim»), was «nima»), ingliz tilida h bilan (who [hu:] «kim»), how [hau] «qanday») kfođalanadi.

Demak bu tillarda r—t—q—k—ch—hv—h tovushlari bir xil funksiyani bajarishlari mumkin bo'lgan tovushlardir.

Boshqa bir misol: rus tilidagi zvezda so'zi polyak tilida gwiazda tarzida talaffuz qilinadi. Bunda z va g tovushlari bir-birlariga variant emas, ammo har ikkovi funksiya jihatidan tengdir. Xuddi shu kabi z—d—y tovushlarining funksional tengligi ham, y—g (siyir—sigir), y—n (kuy—kun uy hayvoni nomi) tovushlarining funksional tengligi ham o'zbek dialektlarida ko'plab uchraydi.

Tovush tengligi tillarning butun sistemasida ko'rinadi. Tenglik tasodifiy bo'lmasligi uchun o'sha qiyoslanayotgan so'zlarning tovushlari boshqa o'rinda ham teng kelishi lozim. Masalan, ruscha onena bilan got tilidagi qino va qyens so'zlarida, birinchidan, j—q va n—p tengligi bor; ikkinchidan, j—q tengligi slavyan tilidagi jiv va got tilidagi qins, qiwana («jiv(oy)» so'zining tushum kelishigi, ko'plik er.jinsi formasi) formalari orqali ham tasdiqlanadi.

Qiyoslanayotgan tillardagi tovushlarning muntazam tengligini aniqlash yetarli emas. Usha funksional tenglikka ega bo'lgani holda tovush tomonidan bir-biridan farqli bo'lib qolish sabablarini ham izohlab, tushuntirib berish kerak.

Til faktlarini qiyoslashda semantik tomonning ahamiyati katta. Chunki so'zlar fonetik jihatdan o'xshash bo'lgani bilan, ma'no tomonidan bir-biriga mutlaqo aloqador bo'lmasligi yoki bir-biridan uzoqlashib ketishi, hatto zid ma'noli bo'lib qolishi ham mumkin. Masalan, qadimgi ingliz tilidagi [sad] «tuk» (ruscha «sitiy») so'zi yangi ingliz tilida sad «g'amg'in» bo'lib qolgan. Buning sababini tushuntirib berish kerak.

Demak lingvistik birliklarni (so'z yoki morfemalarni) qiyoslaganda ularni fonetik jihatdan aniq izohlab berish bilan birga, ma'no jihatidan ham izohlab bera olish prinsipiga amal qilinadi. Masalan, slavyan, grek, latin tillaridagi o—ye, t—d tovushlarining german tillaridagi t (nem. g), a,ye (o'rni bilan i) tovushlariga teng kelishi «uy» ma'nosida slavyan tillarida dom (‘ grek tilida domos, latin tilida domus deb aytiladigan so'zlardan, «qo'lga o'rgatilgan», «uyi(si)» ma'nosidagi qadimgi ingliz tilida tarn, yangi ingliz tilida tame, nemis tilida Zahm deb aytiladigan so'zlardan, «qurmoq» ma'nosida grekcha demein,

«yog'och material» ma'nosida inglizcha timber, «xona», «yog'och material» ma'nosida nemischa Zimmer deb aytiladigan so'zlardan ko'rinib turibdi. Semantik va fonetik xususiyatlariga qaraganda ularning manbai bir bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Qiyosiy-tarixiy metod Xind-Yevropa tillarining strukturasini tahlil qilishda katta rol uynadi.

Ma'lumki, mashhur Grimm frank dialekti fransuz va yuqori nemis tillariga singib ketgan desa, eng yangi tadqiqotchilar bu dialekt Dyunkirxen va Amsterdamdan tortib Unshtrut, Zaala va Resat, hatto Dunaygacha tarqalgan deydlar.

Ya.Grimm bu dialektning haqiqiy tarqalish chegarasini aniqladi. Buning uchun dastavval frank dialektiga aloqador deb hisoblangan qadimgi yodgorliklarning tilini tahlil qildi. Shu maqsadda yodgorliklarda qanday so'z formalari mavjudligini va ularni qiyoslab, frank dialekti bilan sakson dialekti orasida qanday farqlar borligini aniqladi. So'ngra dialektlarni bir-biriga qiyosladi va frank dialektini klassifikasiya qilib, bu dialektga kiruvchi har bir shevaning o'ziga xos bo'lgan fonetik belgilarini ko'rsatib berdi.

Qiyosiy-tarixiy metodni keyinchalik boshqa til oilalarini tadqiq qilishga ham tadbiiq qildilar. Biroq bunda o'sha tillarga asos bo'lgan tilni qayta tiklashga harakat qilinmadi.

Qiyosiy-tarixiy metod qarindosh tillarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa ham, undan ba'zan qarindosh bo'lmagan tillardagi ayrim faktlarni o'rganishda foydalanish mumkin. Masalan, Hind-Yevropa tillari oilasiga kiruvchi arman tilida va hyech qaysi oilaga kirmaydigan bask tilida (Ispaniyada) ko'plik ma'nosi -yeg (-yer) affiksi bilan ifodalanadi. Uni Oltoy tillaridagi -s, -d (-ud),sr -l, -t (-at), -lat, -lan, -tar, -lar kabi variantlarda qo'llanadigan ko'plik affiksiga qiyos qilish mumkin. Oltoy va boshqa ko'p tillarda morfemalardagi d — z— z—r — l — n tovushlari tengligi yuqoridagi ko'plik ko'rsatkichlarining bir-biriga qandaydir aloqasi borligini ko'rsatadi.

Shuning uchun qiyosiy-tarixiy metod tilshunoslikni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Biroq uning jiddiy kamchiliklari ham bor edi. Masalan:

1.Qiyoslash yo'li bilan qayta tiklangan so'z yoki uning biror qadimgi formasi qaysi davrga oidligi ma'lum emas, uning qo'llangan vaqti noma'lum edi.

2.Qayta tiklangan turlanish va tuslanish sistemalarini o'tmishdagi bironta tilga mansub deb bo'lmas edi.

3.Qiyosiy-tarixiy metod asosidagi etimologiyalarni hamma vaqt ham mutlaqo to'g'ri deb tasdiqlash imkoniyati bo'lmaganligidan ular munozarali edi.

4.Ba'zi faktlar barcha qarindosh tillarda uchramaydi (masalan, slavyan tillaridagi kon so'zi). Bunday chog'da qiyosiy-tarixiy metod yordamida o'sha so'zning eng qadimgi qiyofasini tiklab bo'lmaydi.

Qiyosiy-tarixiy metod, asosan, Hind-Yevropa tillariga nisbatan qo'llangan edi. Qiyosiy-tarixiy metod tilshunoslikda til tizimlarining bir-biri bilan munosabati, til birliklarining substansiya (ifoda va ma'no)siga asoslanib o'rganiladi. Tillarning qarindoshlik munosabati til birliklarining ifoda va manosi bir-biriga mos kelishi yoki mos kelmasligiga asoslanadi. Bu metod aniq, tillardagi bir-biriga teng bo'lgan birliklarni solishtirib ko'rib, yozma yodgorliklarda qayd qilinmagan til birliklarini qayta tiklash usulidir.

Bu metod qadimgi sanskritda yozilgan yozma yodgorliklar tilini Yevropa tillariga qiyoslab ko'rish va ular orasida o'xshashlik borligini aniqlash natijasida XIX asrning boshlarida maydonga keldi. Masalan, eski o'zbek tilida sirg'aluvchi z qorishiq dz, portlovchi d va shular bilan vazifadosh y tovushi bo'lgan ozoq,-odzoq-odoq,-oyoq. Qiyosiy-tarixiy metodning qo'llanilishi natijasida uning bajarilishi mumkin bo'lgan to'rtta tipi vujudga keldi:

1 .Chog'ishtirish uchun material to'plash.

2.Qator chog'ishtiriladigan birliklarni belgilash va ularni aynan bir narsa deb hisoblash.

Z.Fonetik o'zgarishlarning nisbiy xronologiyasini belgilash.

4.Arxitip rekonstruksiyani aniqlash (so'z va morfemalarning engqadimgi shakli va ma'nolarini tiklash).

Qiyosiy-tarixiy metod ta'sirida ichki va tashqi rekonstruksiya, glotoxronologiya, lingvistik geografiya metodlari shakllangan.

1.3.CHOG'ISHTIRISH METODI

Ikki yoki undan ortiq tillarning strukturasi va struktura elementlarining bir-biriga o'xshash va noo'xshash tomonlarini bilishni maqsad qilib qo'yadigan tasvirlashga chog'ishtirma metod deyiladi.

Chog'ishtirish metodi ko'pincha bir tilda oddiy tasvirlash metodidan foydalanilganida payqalmagan xususiyatlarni ochishga («kashf» qilishga) yordam beradi. Shu bilan tillarning strukturasi chuqurroq o'rganish va tushunish imkoniyati tug'iladi.

Ikkinchi tomondan, chog'ishtirish metodi sof amaliy maqsadga xizmat qiladi. Chunonchi, ona tilidan boshqa tilni (shu jumladan, chet tilni) o'rganish uchun bu metod xulosalaridan muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin .

Uchinchidan, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasi uchun ham chog'ishtirish metodi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari katta ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham «o'zbek va rus tillarining chog'ishtirma grammatikasi» tipidagi grammatikalar, rus tilidagi biron kategoriyaning o'zbek tilida ifodalanishiga bag'ishlangan ilmiy ishlar, nihoyat, ikki tilli lug'atlar jahon tilshunosligida salmoqli o'rinni egallaydi.

YANGI METODLAR

2.1. STRUKTURAL TAHLIL METODI

Struktural tahlil metodi tilni o'zaro bog'langan va nisbatlangan til birliklaridan tashkil topgan butun bir struktura deb biladi. Bu metod tasviriy metodga o'xshab ketadi. Chunki har ikki metod ham tilning jamiyatga amaliy xizmat qilishini nazarda tutadi. Ammo ular orasida prinsipial farq ham bor: tasviriy metod tilda mavjud bo'lgan birliklarning o'zini tasvirlasa, struktural tahlil metodi o'sha birliklar orasidagi munosabatlarni, tobeliklarni tasvirlaydi.

Struktural tahlil metodi til va nutqni ajratish, til birliklari orasidagi o'xshashlik va noo'xshashliklarni, joylashish tartibi va boshqa nisbiy aloqalarni aniqlash lozim deb hisoblaydi.

Struktural tahlil metodi struktural lingvistikaniig mahsuli bo'lib, strukturalizm maktabining har bir turiga ko'ra uning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Praga funksionalistlari metodi. Praga tilshunoslari tilni ma'lum maqsad uchun xizmat qiladigan ifoda vositalari sistemasi deb hisoblanganliklari uchun, ana shu sistemani har taraflama — fonologik, morfologik, sintaktik va hatto, leksik jihatdan tahlil qilishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'yadilar.

Ular, masalan, fonologik elementlarning uch asosiy funksiyasini ko'rsatdilar. Bular: 1) kulminativ («cho'qqi yasovchi») funksiya. Bu jihatdan tahlil qilinganida ma'lum gapda qancha so'z, so'z birikmasi birliklari mavjudligi aniqlanadi, 2) delimitativ («chegaralovchi») funksiya. Bunda har bir lingvistik birlikning chegarasi aniqlanadi; 3) distinktiv («ma'no ajratuvchi») funksiya. Nomlanishidanoq ko'rinib turibdiki, bunda gap ma'noli qismlarni ajratish, farqlash haqida boradi. Ma'noni ajratish funksiyasi Praga maktabi vakillarining fonologik ta'limotida markaziy o'rinda turar edi. Uning asosiy, bosh tushunchasi ma'no ajratish oppozitsiyasidir.

Ma'no ajratish oppozitsiyasi—bu tovushlarning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishidan iborat. Bunday qarama-qarshilik tovushning tildagi ikki so'zning ma'nosini farqlab berish imkoniyatiga asoslangan. Masalan, ruscha rol—mol («kuya»), nemischa stillen («tinchlantirmoq») — Stollen (konchilikda qiyaroq kavlangan joy—shtolnya), inglizcha line [lain] («liniya») — lane [lein] («yo'lak», «yo'lcha»). Bu juftliklarda r — m, i — o, i — a tovushlari ma'no ajratuvchilardir.

Funksionalistlar metodiga amal qilinganida fonemani aniqlash uchun tubandagilarni ajrata bilish lozim:

1. Fonemani uning variantlaridan ajrata bilish. (Bu — fonemalarning paradigmatic tengligi deyiladi.)

Fonemalarning paradigmatic tengligi aniqlanganda, ularning fakultativ va kombinator variantlari ajratiladi.

Fakultativ variant—ma'lum territorial yoki ijtimoiy dialektida fonema o'rnida qo'llanadigan variantdir.

Fakultativ va kombinator variantlar erkin almashish (cheredovaniye) va qo'shimcha distributsiya sharoitida aniqlanadi. Qarama-qarshi distributsiya sharoitida esa turli fonemalar mavjudligi aniqlanadi.

2. Fonemani fonemalar birikmasidan (sintagmatik tenglik) ajratish. Fonemalarning sintagmatik tengligi aniqlanganda, birinchidan, ikki bo'g'in tarkibiga kirmaydigan tovushlar birikmasi ajratiladi, masalan, s < s: liso, seliy so'zlaridagi kabi; ikkinchidan, bitta artikulyasion harakat yordamida hosil bo'ladigan tovushlar birikmasi ajratiladi, masalan, ingliz tilidagi [ai], [ei], [oi] diftonglari; uchinchidan, shu tildagi boshqa fonemalarning cho'ziqligidan oshib ketmaydigan cho'ziqlikka ega bo'lgan tovushlar birikmasi bitta fonema hisoblanib ajratiladi. Praga strukturalistlari ma'no ajratuvchi oppozisiyalarni uch belgi asosida klassifikatsiya qiladi:

1. Ma'lum oppozisiyaning butun sistemaga bo'lgan munosabatiga ko'ra.
2. Oppozisiyaning a'zolari orasidagi munosabatga ko'ra.
3. Oppozisiyalarning ma'no ajratuvchilik kuchi hajmiga ko'ra.

Bu belgilarning keyingi ikkitasi muhimroqdir. Shuning uchun ularga mufassalroq to'xtalinadi.

Oppozisiyaning a'zolari orasidagi munosabatga ko'ra quyidagilar ajratiladi:

a) zid (privativ) oppozisiyalar. Masalan, undoshlarning «jarangli» — «jarangsiz», «burunlashgan» — «burunlashmagan» kabi qarama-qarshi xususiyatlariga ko'ra zid qo'yilishi (ya'ni A—A emas).

Zid oppozisiya neytrallashishi mumkin. Bunday chog'da oppozisiyaning kuchli («markirovanniy») va kuchsiz («nemarkirovanniy») a'zolari ajratiladi.

Oppozisiyaning ma'lum o'z belgilari mavjud bo'lgan a'zosi kuchli, o'z belgilari mavjud bo'lmagan a'zosi esa kuchsiz a'zo deyiladi.

Belgiga ega bo'lmagan a'zo neytrallashish pozitsiyasidagi arxifonemaga tengdir. Masalan, rus tilidagi jarangsiz undoshlar jaranglilarga nisbatan «belgisiz»dir. So'z oxirida jarangli va jarangsizlikka asoslangan zidlik neytrallashib, arxifonema hosil bo'ladi. Arxifonema jarangsiz undoshga teng. Demak jarangsiz undosh «belgisiz» va kuchsiz («nemarkirovanniy») a'zo, u «arxifonema + 0» (nol) dan iborat. Uning kuchli jufti esa «arxifonema + ba'zi belgilar»dan iboratdir;

b) bosqichli (gradual) oppozitsiyalar. Masalan, i — ye — ye kabi v) teng qiymatli (ekvivalent) oppozitsiyalar. Masalan, r—t, f—k kabi.

Ma'noni farqlash kuchining hajmiga ko'ra oppozitsiya ikkiga bo'linadi: a) doimiy, b) neytrallashadigan oppozitsiya.

a) Agar ikki fonema qo'llanishi mumkin bo'lgan barcha holatlarda ham bir-biridan farq qilsa, demak ular doimiy oppozitsiyadadir. Masalan, fransuz tilidagi a—o fonemalari hamma o'rinlarda ham bir-biridan farqlidir.

b) Agar ikki fonema ba'zi holatlarda bir-biridan farqlansa-yu, ba'zilarida farqlanmasa, ular neytrallashgan oppozitsiyadadir. Masalan, rus tilidagi t va d tovushlari so'z boshida bir-biridan farqli (tom—dom kabi) bo'lsa ham, so'z oxirida bir-biridan farq qilmaydi (rot—rod kabi). So'nggi oppozitsiyadagi fonema, yuqorida aytilganidek arxifonemadir.

Fonologik sistemani tahlil qilishning yuqoridagi metodi morfologiyaga ham tatbiq qilindi. Morfologik tahlil tubandagi prinsiplarga asoslandi:

1. Agar fonologiyada fonema asosiy birlik deb hisoblangan bo'lsa, morfologiyada morfema asosiy birlik deb hisoblangani uchun, gap morfologik zidliklarning ba'zi pozitsiyada neytrallashishi haqida borganida, morfemalarning neytrallashishi ko'zda tutiladi. Masalan, rus tilida jonsiz predmetlar oti erlar jinsining qaratqich va tushum kelishiklarida bir xil bo'ladi, ya'ni neytrallashadi — arximorfema hosil bo'ladi (arximorfema amerikalik strukturalistlar tomonidan keyinchalik kiritildi).

2. Morfologik oppozitsiyalar binar (ikki qismli)dir. Shuning uchun rus tilidagi kelishiklar sistemasi pragachilar tomonidan olti qiymatli bitta belgi asosida emas, ikki qiymatli uchta belgi asosida tasvirlandi.

Birinchi belgi: joyga taalluqlilik (datelniy, tvoritelniy, predlojniy)—joyga taalluqli emaslik (imenitelniy, roditelniy, vinitelniy).

Ikkinchi belgi: yo'nalishli bo'lish (datelniy, vinitelniy)—yo'nalishsiz bo'lish (imenitelniy, tvoritelniy). Bu belgi roditelniy va predlojniy padej formalariga tatbiq qilinmaydi.

Uchinchi belgi: hajmlilik (roditelniy, predlojniy) Hajmsizlik (imenitelniy, datelniy, vinitelniy, tvoritelniy).

3. Morfologik oppozitsiyalar nomutanosibdir. Chunki morfologik oppozitsiyaning bir a'zosi kuchli («markirovanniy») bo'lsa, ikkinchisi kuchsiz bo'ladi. Masalan, ruscha uchitel'nisa, tkachixa, poetessa so'zlarida ma'lum kasbdagi kishining ayollar jinsiga xosligi ifodalangan, demak bu so'zlar kuchli oppozitsiyada, ammo uchitel, tkach, poet so'zlarida jinsga xoslik belgisi ifodalanmagan, demak bu so'zlar kuchsiz oppozitsiyadadir. Shuningdek «sovershenniy vid» fe'llarida harakat tugallangan, bu harakat fe'lining o'ziga xos belgisi bo'la oladi, demak u kuchli a'zo, ammo «nesovershenniy vid» fe'lida harakat belgi olish darajasiga yetmaydi, chunki unda harakat tugallanmagan, demak u kuchsiz a'zodir.

Kuchli a'zoning qo'llanish doirasi tor, kuchsiz a'zoning qo'llanish doirasi esa keng. Masalan, uchitel'nisa, tkachixa qo'llangan joyda uchitel, tkach so'zlarini qo'llash mumkin, ammo buning aksi mumkin emas.

Ko'rinib turibdiki, pragalik tilshunoslar ilgari surgan kuchli va kuchsiz pozisiya a'zolari haqidagi ta'limotning lug'at tarkibining aktiv va passiv bo'lish sababini izohlashda chuqur ilmiy ahamiyati bor.

Sintaktik tahlil sohasida ham Praga tilshunoslari o'z fikrlari bilan chiqdilar. Masalan, ular gapning grammatik ega va grammatik kesimga bo'linishiga gapning a k t u a l bo'linishini («yangilik»ni) avvaldan «ma'lum bo'lgan» narsaga («berilgan»ga), «rema»ni «tema»ga qarama-qarshi qo'ydilar. «Berilgan» («ma'lum bo'lgan») narsa psixologik yoki mantiqiy subyekt bo'lib, uning haqida xabar qilinadi. «Yangilik» esa psixologik yoki mantiqiy predikatdir. U subyekt haqida mavjud bo'lgan yangilikni xabar qiladi.

Grammatik ega har vaqt ham «berilgan» bilan, grammatik kesim esa «yangilik» bilan teng kelavermaydi. Masalan, qush uchyapti gapida grammatik bo'laklar mantiqiy bo'laklarga teng, ammo uchyapti qush gapida grammatik kesim «berilgan» (ya'ni mantiqiy subyekt) bo'lsa, grammatik ega esa «yangilik» (ya'ni mantiqiy predikat) bo'ladi.

Gapning bunday tahlil qilinishi mantiqiy urg'uning tushish sababini tushuntirishga yordam beradi.

Kopengagen glossematikachilari metodi. Kopengagen maktabi tilni tahlil qilishda uning ifoda planini va mazmun planini ajratdi.

Tilning ifoda plani deb, tashqi tomoni (tovush, grafik va boshqa tomoni) tushuniladi, mazmun plani deb esa, til orqali anglatilgan fikrlar tushuniladi.

Ifoda plani ikki narsadan iborat:

a) ifoda substansiyasi, b) ifoda formasi.

a) ifoda substansiyasi fonetik grafik vositalar kabi ifoda materiali bo'lib, u tillarda bir xil bo'lishi mumkin. Masalan, Yevropaning ko'p tillarida jarangli va jarangsiz tovushlar mustaqil fonemalarni tashkil qiladi. Shuning uchun ruscha *shest*—*jest*, inglizcha *god* «xudo» — *cod* «treska balig'i», fransuzcha *pas* «qadam» — *Bas* «tinch, sekin» so'zlaridagi jarangsiz *sh*, *s* (*k*), *r* undoshlari ham, jarangli *j*, *d*, *v* undoshlari ham mustaqil fonemalardir. (Ba'zi tillarda jarangli va jarangsiz undoshlar bir-birlarining variantlari holatidadir. Masalan, AQShdagi hindi tillaridan *chippeva* tilida «osmon» ma'nosidagi so'z [gi:z1k] — [gi:sik] — [ki:zik] — [ki:sik] variantlarida qo'llanadi. Bunda jarangli *g* va *z* («j») undoshlari bilan jarangsiz *k* va («sh») undoshlari bir-birlarining variantlaridan iborat.)

b) Ifoda materiali bilan uni qo'llash usuli birgalikda ifoda formasini tashkil qiladi. Ifoda planining formasi tovushlarning birikish usuli bo'lib, u faqat aniq olingan tilga xos, u boshqa tilda takrorlanmaydi. Masalan, Yevropa tillarida tovushlarning uzun yoki qisqa bo'lishi fonologik ahamiyatga (so'zlarni ajratish xususiyatiga) ega emas, ammo *chippeva* tilida uning ahamiyati bor: [ki:sikk] «kedr» — *fkirsikl* «osmon».

Mazmun plani ham a) mazmun substansiyasidan, b) mazmun formasidan iborat:

a) mazmun substansiyasi fikrning predmeti bo'lgan hamma narsalardir. Bu narsalar barcha til uchun bir xil, albatta. Masalan, grammatik son tushunchasi mazmun substansiyasi (materiali)dir;

b) mazmun formasi tushunchalarni tartibga solish, birga qo'shish usuli bo'lib, har bir til uchun harakterli, o'ziga xosdir. Masalan, son tushunchasi rus, ingliz,

fransuz, nemis tillarida birlikni ko'plikka zid qo'yishdan iborat, Sanskrit tilida esa birlikni juftlikka va ko'plikka zid quyishga asoslanadi.

Ifoda formasi bilan mazmun formasi kommutasiya (o'zgartirish, «aylantirish») prinsipi asosida aloqaga kirishadi. Bu kommutasiyaning ahamiyati shundan iboratki, mazmun planidagi farqlar ifoda planidagi biron farqqa mos kelar ekan, u shu til uchun muhimdir.

Ifoda planida mazmun plani bilan bog'lanmagan farqlar bo'lishi mumkin. Masalan, fonemaning variantlari mazmundagi hyech qanday ayirma bilan bog'lanmaydigan hollar uchraydi. Bunday chog'da variantlar mustaqil fonema bo'lmaydi. Ba'zan mazmunda ham shunday farqlar bo'ladiki, ular ifodadagi hyech qanday ayirma bilan bog'lanmaydi. Masalan, fin, vengr va xitoy tillarida bitta so'zning o'zi «on» («u») va «ona» («u») ma'nolarini anglatadi. Tilda esa o'sha ma'nolarni ifodalaydigan maxsus vositalar yo'q. Shuning uchun bunday farqlar ham muhim emas.

Demak bir plandagi farq boshqa plandagi farq bilan bog'lanmasa, ayni bitta birlikning variantlari hosil bo'ladi.

Variantlarni bir-birlari o'rniga almashtirish (substitusiya) mumkin.

Ifoda planining invariantlari (struktura elementlari) kenemalar deb, mazmun planidagi invariantlar esa pleremalar deb nomlanadi (Kenemalar «fonemaga», pleremalar «ma'no»ga to'g'ri keladi).

Kopengagenliklarning ta'limotiga ko'ra, til invariantlar sistemasidir. Tilga faqat ifoda formasi va mazmun formasi kiradi. Ifoda materiali (substansiyasi) va mazmun materiali tilga bevosita aloqador emas. Chunki ular fonetika va semantikaning predmetlaridir.

Glossematikaning vazifasi matnni tahlil qilishdir. Bu tahlildan tilning sistemi aniqlanadi.

Tahlilning birinchi etapida ifoda darajasi mazmun darajasidan ajratiladi. Keyingi etaplarda esa bu darajalarning har biri mayda qismlarga bo'linadi. Qismlarga ajratish ishoralar (abzaslar, qo'shma gaplar, sodda gaplar va boshqalar) orasidagi

chegaralarga ko'ra olib boriladi. Bu ajratish bildiruvchi («oznachayushiy») va bildiriluvchi («oznachayemiy») ni aniqlaguncha davom qildiriladi.

Bildiruvchi va bildiriluvchilar morfemalarga (aniqrog'i, morflarga) tengdir. Bildiruvchilar va bildiriluvchilar ifoda plani va mazmun planining elementar birliklariga ajraladi. Bu elementlar endi ishoralar emas.

Ishoradan ishora bo'lmagan elementga o'tish matndan sistemaga o'tishni ko'rsatadi. Demak sistema fonologik elementlardan iborat.

Qismlarning matn elementi yoki sistema elementi bo'lishidan qat'i nazar, tahlil paytida har gal ajratilgan qismlar orasidagi tobelik yoki funksiyaning harakteri aniqlanadi.

Glossematik funksiyalarning (ya'ni tobelikning) uchta tipi bo'ladi:

1. Ikki tomonlama tobelik (yoki interdependensiya). Bu — biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan ikki element orasidagi munosabatdir. Masalan, unli bilan undosh tovushlar orasidagi, ot bilan fe'l orasidagi, ega bilan kesim orasidagi munosabat ana shunday.

2. Bir tomonlama tobelik (yoki determinasiya). Bu—biri boshqasining bo'lishini talab qiladigan ikki element orasidagi munosabatdir. Masalan, istagan vosita kelishiklari bilan bosh kelishik orasidagi munosabat ana shunday. Chunki sistemada jo'nalish kelishigi bo'lsa, unda, albatta, bosh kelishik bo'lishi lozim. Aksi bo'lmaydi—bosh kelishikning bo'lishi jo'nalish kelishigining bo'lishini talab qilmaydi.

Boshqarish hodisasining ba'zilar mana shu determinasiyaga kiradi. Masalan, dlya, vozle, u old ko'makchilari «roditel'niy padej»ni talab qiladi.

Yasama so'zdagi suffiks bilan negiz orasidagi munosabat (suffiks negizning bo'lishini talab qiladi); bo'g'indagi undosh bilan unli orasidagi munosabat (undosh unlini talab qiladi, unli esa undoshni talab qilmaydi) kabilar bir tomonlama tobelik hodisasiga kiradi.

3. Erkin tobelik (yoki konstellyasiya). Bu — biri ikkinchisiz mavjud bo'la oladigan ikki element orasidagi munosabatdir. Masalan, rus tilida fe'ldagi shaxs va grammatik jins orasidagi munosabat ana shunday. Chunki hozirgi zamon formasida

shaxs ifodalanadi, ammo jins ifodalanmaydi, o'tgan zamon formasida jins ifodalanadi, ammo shaxs ifodalanmaydi.

Amerika diskriptiv tahlil metodi. Tadqiqotchi o'zi bilmagan tilni o'rganishda ikki bosqichli ish bajarishi lozim: 1. Lingvistik birliklarni aniqlaydi. 2. Bu birliklarning bir-birlariga nisbatan distribusiyasini aniqlaydi.

Bu ishlar shunday bajariladi: dastlab notanish bo'lgan nutqdagi pauzalar, ular orqali esa gaplar chegaraladi. So'ngra gaplarning «tashqi» (tovush) tomondan ayrim qismlari (segmentlari) ajratiladi. Bunday segmentlar bitta fonemaga ham, bir necha fonemaga ham yoki morfemaga ham teng kelishi mumkin. So'ngra o'sha gap yana takror eshitib ko'riladi va yana o'shanday segmentasiya qilinadi. Bundan maqsad segmentlarning qaysi birini boshqasi bilan erkin almashtirish mumkinligini aniqlashdir. Bu vazifani bajarish uchun lingvistik birliklar distributiv tahlil qilinadi. Birliklar distribusiyasi (qo'llanish o'rinlari) ning uch tipi bor:

1. Birliklar harch qachon bir xil sharoitda qo'llanmasa, qo'shimcha distribusiyada bo'ladi. Bu sharoitdagi tovushlar bitta fonemaning variantlari (allofonlar) deb hisoblanadi. Masalan, sem, den so'zlaridagi yumshoq undoshlar orasida eng yopiq bo'lgan ye, sel, del so'zlaridagi yumshoq va qattiq undosh orasida birmuncha ochiq ye, shest, jest so'zlaridagi qattiq va yumshoq undoshlar orasida yana ham kichikroq bo'lgan ye, shest, jest so'zlaridagi qattiq undosh orasida eng ochiq ye variantlari ye fonemasining allofonlaridir.

Morfemaning allomorflari (variantlari) bo'lishi uchun morflar, birinchidan, qo'shimcha distribusiya munosabatida bo'lishlari, ikkinchidan, ular bir xil differensial qiymatga ega bo'lishlari kerak. Masalan, nemischa sein «bor bo'lmoq» va haben «ega bo'lmoq» bir xil zamonni ifodalaydigan analitik forma (perfekt) yasaganidagina bir-biriga allomorf bo'ladi.

2. Matndagi birliklar bir xil sharoitda qo'llangani holda, ma'noni farq qilish uchun xizmat qilsa, kontrast distribusiyada bo'ladi. Bunday elemental har xil birliklarga kiradi. Masalan, tom — dom — kom — lom — rom so'zlarining birinchi undoshlari besh xil fonemaga kiradi.

3. Ma'noni farqlamagan holda bir xil sharoitda qo'llangan birliklar erkin almashish holatida bo'ladi. Bunday elementlar bitta til birligining variantlari bo'ladi. Masalan, fransuz tilidagi til oldi (titroq) g va til orqa (uvulyar) R bir-biriga variantdir. Chunki ular erkin ravishda almashtirilishi mumkin. Rus tilidagi «tvoritelniy padej» ko'rsatkichlari -yey va -yeyu ham bir-biriga variantdir.

Erkin ravishda almashtirilishi mumkin bo'lgan segmentlar erkin variantlar deb nomlanadi.

Shunday qilib, birinchi gal eshitilganida gap A1, B1, S1, D1, Ye1, F1 segmentlariga ajratilgan bo'lsa, ikkinchi gal (takror) eshitib ko'rilganida o'sha gap A2, V2, S2, D2, Ye2, F2 segmentlariga ajratiladi. Natijada $A1=A2$, $V1 = V2$, $S1 = S2$, $D1=D2$, $Ye1=Ye2$, $G'1=G'2$ ekanligi ma'lum bo'ladi. Shundan so'ng har xil gaplar bir-biriga qiyos qilinadi va o'sha bir xil segmentning borligi boshqa gaplarda ham aniqlanadi. Shu yo'l bilan nutq, zanjiri uzunligi bitta fonemadan iborat bo'lgan segmentlarga ajratiladi.

Ajratilgan birliklar yana boshqa qismlarga bo'linmasmikan degan shubha bo'lmasligi uchun, aniqlangan segmentlarni qo'shib (biriktirib) ko'riladi. Shu ishlardan so'ng aniqlangan lingvistik birliklar ayrim sinflarga (fonemalarga) ajratilguncha fon (tovush) deb ataladi. Fonlar boshqa qanday fonlar doirasida kelishiga va o'zaro o'xshashligiga ko'ra ayrim sinflarga, ya'ni fonemalarga birlashtiriladi. Shu bilan tilning fonemalar sistemasi aniqlanadi.

Nutqning uzunroq bo'lagi olib qaralsa, odatda, tovushlarning birikishi ma'lum bir qonunga bo'ysunganligi ko'rinadi. Masalan, rus tilidagi z tovushi istagan bir unli yoki jarangli undosh oldida kela oladi; iz-za, iz zlakov, iz zala, iz doma kabi.

Shu bilan bu tovushning eng yaqin doirada, yuza distribusiyada (masalan, yanagi fonemagacha bo'lgan masofada) kelishi ma'lum bo'ladi. Ammo olisroq doirada, chuqurroq distribusiyada, masalan, 3—4—5-fonemagacha bo'lgan masofada z ning birikishi keskin kamayib ketadi. Chunonchi, iz zli... (iz zlit), iz zula, iz domami kabilarning tuzilishi mumkin emas.

Fonemalarning nutqdagi katta qismlarda barqaror birikmalar hosil qilishi morfemadan iborat bo'lgan segmentlarni aniqlashga olib keladi.

Deskriptiv lingvistik metod tilning ichki mohiyatini o'rganish o'rniga, uning faqat bir tomoninigina tasvirlash bilan shug'ullanadi.

Strukturalizmning tildagi ichki munosabatlarni maksimal darajada sxemalashtirish, bir tomondan, ilgari o'rganilgai hodisalarni soddalashtirdi va tilning mohiyatini bilish uchun hych qanday ahamiyati bo'lmagan formulalarga soldi, ikkinchi tomondan, tilda mavjud bo'lmagan kategoriyalarni bor deb hisoblab, til strukturasini asossiz ravishda murakkablashtirib yubordi.

Masalan, Amerika tilshunosi L. Blumfild «Til haqidagi fan uchun pastulatlar qatori» nomli asarining «Forma va ma'no» degan qismida morfemani matematik formula yordami bilan shunday isbotlamoqchi bo'ladi: minimal X—bu butunlay kichik X lardan iborat bo'lmagan X dir. X1, agar X2 X3 X4 lardan iborat bo'lsa, X1 minimal X emas. Ammo X1, agar X2 X3 A dan iborat bo'lsa yoki X2 A dan, yoki A1 A2 dan, yoki qismlarga ajralmasa, unda X1 minimal X dir.

Minimal forma — bu morfemadir va hokazo.

Yuqoridagi chalkash formula o'rniga morfema — bu bo'linmas ma'noli qism deyilsa, yetarli bular edi.

Klassik struktural tahlil metodi hozirgi paytda butun holda biron tilni tahlil qilish uchun qo'llanmasa ham, boshqa metodlar asosida ish olib borilganida bu metodning ayrim prinsiplaridan (masalan, distribusiyani aniqlash, substitusiya tahlili, transformasion tahlil, bevosita tuzuvchilarga ko'ra tahlil va boshqalardan) foydalaniladi. Struktural metod ko'pchilik adabiyotlarda taksonomik metod deb ham yuritiladi. Taksonomik metod tasviriy metodning sifat jihatdan boshqacha, uning rivojlangan bosqichi hisoblanadi. Taksonomik metod til tizimini tasvirlashga da'vat qiladi. Shuning uchun bu metod tilshunoslikka oid adabiyotlarda struktural metod sifatida tavsiflanadi. Struktural tahlil metodi til tizimini tashkil etgan birliklar orasidagi munosabatni o'rganadi. Bu metod tasviriy metodga o'xshab ketadi. Lekin u gap orasida farq bor: tasviriy metod tildagi birliklarning o'zini o'rgansa, struktural tahlil metodi o'sha birliklar orasidagi munosabatlar tobeliklarini tasvirleydi. Struktural tahlil metodi til va nutqni ajratish, til birliklari orasidagi o'xshashlik va

noo'xshashliklarni, joylashish tartibi va boshqa nisbiy aloqalarni aniqlash lozim deb hisoblaydi.

Struktural tilshunoslik uchun tilning tuzilish aspekti ahamiyatli bo'lib, til nazariyasini yaratishda, umumiy tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda tayanch hisoblanadi.

Kommutativ tekshirish metodi til birliklaridan mazmun plani va ifoda plani munosabatlarini bir o'rinda o'zaro almashtirishni hisobga olib, ularni tovush birliklaridan ajratishni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'yadi. Masalan, bet so'zining oxiridagi tovush almashtirilsa, boshqa so'zlar hosil bo'ladi: beq bel, ber, bez kabi.

Struktural tahlil metodi hozirgi zamon matematik tahlil metodining yaratilishida ayniqsa muhim rol o'ynadi. Shuning uchun uning yuqorida ko'rsatilgan asosiy prinsiplariga matematik metodda ham duch kelamiz. Buning sababi shuki, struktural tahlil metodi o'zining bir talay prinsipini matematika fanidan olgan edi.

2.1.MATEMATIK TAHLIL METODI

Til strukturasining elementlari — tovush sostavi, morfologik va sintaktik birliklari, grammatik qoidalar sifat jihatidagina emas, miqdor jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, ba'zi elementlar boshqalariga nisbatan ko'p, ba'zilari, aksincha, kam; ba'zilari, umuman, kam qo'llanadi, ba'zilari esa tez-tez uchrab turadi va hokazo.

Til elementlarining ahamiyati hammadan burun ularning nutqda takrorlanib turish imkoniyati bilan o'lchanadi. Boshqacha aytganda, til elementlarining sifat belgilaridan tashqari, miqdoriy belgilari ham mavjud bo'lib, sifat belgilari bungacha yuqorida ko'rib o'tilgan metodlar asosida o'rganilsa, miqdor belgilari matematik tahlil metodi asosida o'rganiladi .

Til elementlarining matematik metod yordamida o'rganiladigan miqdor belgilarini uchga ajratadilar: 1. Nazariy to'plamlilik (jamlik) belgilari. 2. Mantiq algebrasiga asoslangan transformasion (yoki algoritmik) belgilar. 3. Ehtimollik belgilari.

I. Til elementlarini to'plamlik belgilari asosida tahlil qilish elementlar orasidagi ekvivalentlik va tartibning binar munosabatini (ikki qism orasidagi munosabatni) tahlil qilishdan iborat.

To'plam (mnojestvo) istagan miqdordagi obyektlarning jamligi(sinfi, yig'ini)dir. To'plamga kirgan har bir obyekt to'plamning elementi deb ataladi.

To'plamning muhim harakteristikasi uning quvvatidir. To'plamning quvvati chekli to'plam uchun elementlar miqdoridan iborat. Masalan, M to'plamining quvvati 3 elementni [1, 2, 3] yoki [a, v, s] elementlarini o'z ichiga olishi mumkin. To'plamlar orasidagi munosabat ana shu quvvatga asoslanadi. Masalan, ikki to'plam orasida tubandagi munosabatlar bo'ladi:

1. Ikki to'plam kesishishi mumkin. Agar M va K to'plamlarining elementlari (yoki belgilari) ayni zamonda ham M, ham K to'plamlariga tegishli bo'lsa, bu to'plamlar kesishgandir. Masalan, [a, v, s] va [v, s, p] elementlaridan iborat bo'lgan M va K to'plamlari [v, s] elementlari orqali kesishgan. Kesishish P belgisi bilan ifodalanadi. Formulasi $M \cap K = P$

To'plamlar orasidagi kesishish formulasi so'zlarning polisemantik xususiyatini aniqlash va isbotlashda juda qulay. Ma'lumki, ko'p ma'noli so'zlar omonimlarga o'xshaydi: unda ham, bunda ham bir xil tovush kompleksi bir necha ma'no bilan bog'langan bo'ladi. Agar shu ma'nolar orasida bog'lanish bo'lsa, u polisemantik so'z hisoblanadi; agar ma'nolar orasida bog'lanish bo'lmasa, demak bularda tovush tomoni bir xil bo'lgan turli so'zlar, ya'ni omonimlar mavjuddir. Lekin ana shu aloqaning bor-yo'qligini isbotlash lozim. Shunga qarab o'sha olingan so'z ko'p ma'noli so'zmi yoki omonimmi ekanligi tasdiqlanadi. Masalan, ko'z so'zining ma'nolari orasidagi munosabatni tahlil qilib ko'raylik.

Ko'z so'zining ma'nolarini bir-biridan ajratish uchun har bir ma'noni anglashga yordam beradigan gap yoki birikmalar (matnlar) tuzamiz. Bular: 1. Ko'z—ko'rish organi. 2. Taxtaning ko'zi. 3. Buloqning ko'zi. 4. Xurjunning ko'zi. 5. Uzukning ko'zi. 6. Tizzaning ko'zi. 7. Yaraning ko'zi. 8. Ishning ko'zi.

Ko'rsatilgan har bir matnda ko'z so'zi har xil ma'nolarni anglatadi. Har bir ma'noni bitta to'plam deb hisoblaymiz. Har bir to'plam o'zining elementlariga ega.

Bu elementlar ma'no mazmunini tashkil qiladigan tushunchaning muhim belgilaridan iboratdir.

Asosiy ma'nosiga ko'ra «ko'z» tushunchasining tubandagi belgilarini a, v, s, p, h, u kabilar bilan ajratib ifodalash mumkin. Masalan: a—ko'rish vazifasini bajarish belgisi.

v—dumaloq yoki ellipsis shaklda bo'lish belgisi.

s—juftlik belgisi.

p—cheti botiqlik belgisi.

h—o'rtasi bo'rtib chiqqanlik belgisi.

u—materiali.

Materialni u harfidan tashqari, qo'shimcha belgilar bilan ko'rsatishga to'g'ri keladi. Chunonchi: odam tana- si—t, yog'och—yo, yer—ye, mato—m, tosh—tsh, r—hajmi (katta—q kichik—kch).

Grafadagi belgining yo'qligi o bilan ko'rsatiladi.

Endi har bir ma'noda qanday belgilar mavjud ekanligini aniqlab chiqish kerak. Buning uchun tubandagicha jadval tuzish mumkin.

To'p lamlar kato ri	Konmatn ma'nolar	va	Belgilar			
1.	Ko'rish organi				-t	- kch
	Taxtaning ko'zi				-yo	- kch
3.	Buloqning ko'zi					

								-ye	-
									kch
4.	Xurjunning ko'zi							-m	-k
5.	Uzukning ko'zi							-tsh	-
									kch
6.	Yaraning ko'zi							-t	-
									kch
7.	Tizzaning ko'zi							-t	-k

Endi to'plamlarning kesishgan-kesishmaganligini aniqlaymiz:

I. 1. $[a + v + s + p + x + u + (r - kch)]$ va 2. $[v + (u - yo) + (r - kch)]$.

Ular $[v + (r - kch)]$ orqali kesishgan.

1. $[a + v + s + p + x + u + (r - kch)]$ va 3. $[v + (u - s) + (r - kch)]$.

Ular $[z + (r - kch)]$ orqali kesishgan.

1. $[a + v + s + p + x + u + (r - kch)]$ va 4. $[v + (u - m) + (r - k)]$.

Ular faqat $[v]$ elementi orqali kesishgan.

1. $[a + v + s + p + x + u + (r - kch)]$ va 5. $[x + (u - tsh) + (r - kch)]$.

Ular $[v + x + (r - kch)]$ orqali kesishgan.

1. $[a + v + s + p + x + u + (r - kch)]$ va 6. $[v + x + (u - t) + (r - kch)]$.

Ular $[v + x + (r - kch)]$ orqali kesishgan.

1. $[a + v + s + p + x + u + (r - kch)]$ va 7. $[v + x + (u - t) + (r - k)]$. Ular $[v + x]$ orqali kesishgan.

II. 2. $[V + (u - yo) + (r - kch)]$ va 3. $[v + (u - ye) + (r - kch)]$.

Ular $[v + (r - kch)]$ orqali kesishgan.

2. $[V + (u - yo) + (r - kch)]$ va 4. $[v + s + (u - m) + (r - k)]$. Ular $[v]$ orqali

kesishgan.

2. $[v + (u - yo) + (r - kch)]$ va 5. $[v + x + (u - tsh) + (r - kch)]$.

Ular [v+(r-kch)] orqali kesishgan. 2. [v+(u-yo)+(r-kch)] va 6. [v+x+(u-t)+(r-kch)].

Ular [v-]-(r-kch)] orqali kesishgan.

2. [v+(u-yo)+(r-kch)] va 7. [v-]-x+(u-t)+(r-k)]. Ular [v] orqali kesishgan va h. k.

Ko'rinadiki, birinchidan, 1-to'plam qolgan oltita to'plam bilan v elementi orqali kesishgan. Ikkinchidan, boshqa to'plamlar ham o'zaro kesishgan bo'lib, birorta ham to'plam o'zicha mutlaqo ajralib qolmagan.

Demak bu to'plamlar, ya'ni ma'nolar o'zaro bog'langan, ular bitta ko'z so'zining har xil matnlardagi ma'nolaridir (14:89).

Endi boshqa bir ko'p ma'noli so'zni, masalan, yoz so'zini tahlil qilib ko'raylik. Bunda ham, albatta, bir necha ma'noga duch kelinadi: 1. Yilning bahor faslidan keyin keladigan fasli. 2. Ma'lum ishoralar sistemasi bilan biron materialda (masalan, qog'ozda) iz qoldirish orqali fikr ifodalash haqidagi buyruq. 3. Nimanidir (qanot, mato va b.) ma'lum tekislikda tarqatib (yoyib) qo'yish haqidagi buyruq.

Shu ma'nolarni ifodalovchi matnlar tuzaylik: 1. Yoz keldi. 2. Xat yoz. 3. Dasturxon yoz.

Birinchi ma'noga ko'ra, 1-to'plamning [a, v, s, k] elementlari bor.

Bunda: a—payt belgisi;

v — issiqlik belgisi;

s — hamma usimliklar kukarganlik belgisi;

k—suvga chansoklik belgisi.

Ikkinchi ma'noga ko'ra 2-to'plamning [ye, t, p, r] elementlari bor.

Bular: ye—shartli ishora (harf) yasash;

t — ishorani biron materialdan yasash;

p — biron ma'noni ifodalash;

r — qul bilan bajarish.

Uchinchi ma'noga ko'ra 3-to'plamning [h u, z] elementlarini ajratish mumkin.

Bular: x — tarqatib (yoyib) qo'yish;

u—ma'lum tekislikda (odatda, gorizontal tekislikda) bajarish; z—biron yumshoq, jismoniy ta'sirga beriladigan narsani yoyish (2- va 3-to'plamlarning elementlari 1-to'plamdagidan boshqa bo'lgani uchun ular boshqa harflar bilan belgilanadi). To'plamlarning kesishgan-kesishmaganligini aniklash lozim.

1. $[a + v + s + k]$ va 2. $[ye + t + p + r]$. Ular orasida birorta ham bir xil element yo'q. Demak ular kesishmaydi.

1. $[a + v + s + k]$ va 3. $[x + u + z]$. Bular ham kesishmaydi.

2. $[ye + t + p + r]$ va 3. $[x+u + z]$. Mushtarak element bo'lmagani uchun kesishmaydi.

Ko'rinadiki, yuqoridagi uchala ma'no orasida bog'lanish mutlaqo yo'q. Binobarin, ular faqat shakli bir xil bo'lib, aslida ma'nolari boshqa-boshqa bo'lgan omonimlardir.

2. To'plamlar jamlanishi mumkin. M va K to'plamlarining jami deb o'sha to'plamlarning elementlari qo'shilishidan hosil bo'lgan to'plamga aytiladi. Bunda har ikki to'plamga xos bo'lgan xech bo'lmasa bittadan element mavjud bo'ladi. Masalan, $[a, v, s]$ elementlaridan iborat bo'lgan M to'plami bilan $[v, s, k]$ elementlaridan iborat bo'lgan K to'plami $[a, v, s, k]$ elementlaridan iborat bo'lgan to'plam sifatida jamlanadi $[a, v, s]$ va $[q, ye, r]$ elementlaridan iborat bo'lgan to'plamlarning jami esa $[a, v, s, k, ye, r]$ kabi elementlardan tashkil topadi. Jamlik belgisi U. Formulasi: MUK. Grafik ifodasi.

Masalan, toshning, toshni, toshga, toshda, toshdan formalari — glossemalar bizga ma'lum, ammo leksema ma'lum emas. Vazifa — leksemani topish.

Ma'lumki, leksema so'zning barcha grammatik formalarini o'zida birlashtirishi kerak.

Buning uchun berilgan glossemalarni fonetik jihatdan qo'shamiz:

$[t+o+sh+n+i+ng]$ U $[t+o+sh+n+i]$ U $[t+sh+g+a]$ U $[t+o+sh+d+a]$ U $[t+o+sh+d+a+n]$ = $[5(t+o+sh)+2(n+i)+ng+g+3(a)+2u+n]$ = $[5(t+o+sh)+Zn+2i+ng+g+Za+2u]$.

Qo'shishdan hosil bo'lgan natijada ikki narsa ko'zga tashlanadi: ba'zi elementlarni yonma-yon qo'yganda, ular bitta to'plam hosil qiladi. Yuqorida [t + o + sh] to'plami hosil bo'ldi. Bu to'plam olingan beshta to'plamning har birida mavjud. Qolgan elementlarning hech biri barcha to'plamlar uchun umumiy emas. Ularning yonma-yon kelishi hech narsani ifodalamaydi. Demak $t + o + sh = tosh$ yuqoridagi beshta glossa (yoki glossema) uchun bitta leksema bo'lib, qolgan elementlar unga kirmaydi (2:183).

3. Bir to'plam boshqasining ichiga kirishi mumkin. Agar M to'plamining har bir elementi ayni zamonda K to'plamiga ham tegishli bo'lsa, M to'plami K to'plami ichiga kirgan bo'ladi. Masalan, [a, s] to'plami [a, v, s] to'plami ichiga kiradi. Formulasi:

$M \subseteq K$; chunki $K = M + a$.

Grafik ifodasi: 

To'plam ichiga kirgan har bir to'plam berilgan to'plamning juz'iy to'plamini tashkil qiladi.

Agar berilgan to'plamning juz'iy to'plamlari kesishmasa, berilgan to'plam bo'linishi lozim. Bunday juz'iy to'plamlar-bo'linish sinflari deyiladi.

Olingan to'plamda birliklar, juftliklar, uchliklar va umuman, o'nliklar ajratilishi mumkin. Masalan, [a, v, s] to'plamida shunday juftliklar bor: av, vs, as, va, sv, sa, aa, vv, ss.

Berilgan to'plamga nisbatan o'nliklardan iborat bo'lgan juz'iy to'plam munosabat deyiladi. Lingvist uchun ekvivalentlik va tartibning binar munosabati muhimdir.

Binar munosabatlar juft elementlarga xos bo'lib, bu munosabatlarning tubandagi xususiyatlari mavjud.

1. Refleksivlik xususiyati. Bunda har qanday a elementi o'ziga teng munosabatda bo'ladi: aRa (R—binar munosabat). Masala, $a=a$, $v=v$ kabi. Agar $a > a$ bo'lsa, «tenglik» munosabati o'rnida «ortiqlik» munosabati mavjud bo'ladi, ya'ni refleksivlik o'rniga irrefleksivlik hosil bo'ladi.

2. Simmetriklik xususiyati. Binar munosabatdagi aRv dan vRa chiqarish mumkin bo'lsa, simmetrik munosabat hosil bo'ladi. Masalan, $a=v$ dan $v=a$ chiqadi. Ammo $a>v$ bo'lsa (ya'ni «ortiqlik» bo'lsa), asimmetriklik hosil bo'ladi.

3. Tranzitivlik xususiyati. Agar aRv va vRc dan aRc chiqarish mumkin bo'lsa, binar munosabat R tranzitivlik xususiyatiga ega. Masalan, $a=v$ va $v=s$ dan $a=s$ chiqadi. Shu bilan birga, $a>v$ va $v>s$ dan $a>s$ chiqarilsa (ya'ni „ortiklik" munosabati bo'lsa), binar munosabat tranzitivlik xususiyatiga ega.

Refleksivlik, simmetriklik va tranzitivlik xususiyatlari mavjud bo'lgan binar munosabat ekvivalentlikka ham egadir. Tenglik ekvivalentlikning xususiy ko'rinishidir.

Irrefleksivlik, asimmetriklik va tranzitivlik mavjud bo'lgan binar munosabat qat'iy tartibli bo'ladi.

Mana bu ko'rib o'tilgan qoidalar lingvistikaga tatbiq qilinishi mumkin.

Lingvistikada tovushlar, fonemalar, morfemalar, so'z-formalar, so'zlar, so'z birliklari, gaplar singari elementlar to'plami bilan ish qilinadi. Bunda: 1) til birliklari matnning ekvivalentlikka ega bo'lgan birliklari *s i n f i* sifatida ta'riflanadi. Masalan, fonemalar tovushlar sinfi sifatida, morfemalar morflar sinfi sifatida, so'zlar so'z-formalar sinfi sifatida, ma'nolar esa qo'llash sinfi sifatida ta'riflanadi; 2) til birliklari klassifikasiya qilinadi. Masalan, fonemalar unli va undoshlarga, so'zlar so'z turkumlariga va boshqalarga ajratiladi; 3) sinf ichidagi til birliklari va klassifikasiya qilingan sinflar ko'pincha bosqichli bo'ladi. Masalan, paradigmaning bosh a'zosi, so'z yasash uyasining asos so'zi, «asosiy» so'z turkumlari, gapning «bosh» va «ikkinchi darajali» bo'laklari. Bosqichlilik (iyerarxiya) tartib munosabati bo'lishini talab qiladi. 2. Transformasion yoki algoritmik jihatdan tahlil qilish til ifoda vositalari sistemasini tasvirlashning aniq qoidalarini ko'rsatib berishdir.

Tabiiy tillarni tahlil qilish va tasvirlashda ikki xil lingvistik model tuzish qoidalarini ko'zda tutiladi (lingvistik model — tilning reallikdan holi bo'lgan ongdagi umumlashtiruvchi qolipidir). Bular: a) bevosita tuzuvchilar bilan bajariladigan operatsiyalar qoidalarini, b) transformasion model tuzish qoidalarini.

a) Bevosita tuzuvchilar bilan bajariladigan operasiyalar soʻz (yoki morfema)lar orasidagi sintaktik aloqalarni tadqiq qilishga doir boʻlgan qoidalardan iborat. (Bevosita tuzuvchilar deb, maʼlum kattaroq konstruksiya tarkibida ayrim birlik sifatida qoʻllanadigan har qanday soʻz yoki soʻzlar tizmasiga aytiladi).

Bu qoidaga koʻra, ikki elementdan uchinchi, yangi bir element yasaladi. Masalan, X va U elementlaridan $X // U$, $X + U$ yoki XU kabi turli formalar yasash mumkin. Shuningdek har bir katta butunlik ikkita kichik butunlikka boʻlinadi.

Ikkita bevosita tuzuvchi sintagma hosil qiladi. Mana shunday sintagmalardan gap tuziladi. Demak gap ikki sodda element birikib, oddiy sintagma hosil qilish, ikki oddiy sintagma birikib, murakkabroq sintagma hosil qilish prinsipida tuziladi. Bu bosqichli tartibning ch o' q q i s i, agar kesimga ega tobe deb hisoblansa, kesim boʻladi; agar kesimga ega va ayni zamonda egaga kesim tobe deb hisoblansa, ega va kesim guruhi boʻladi.

Masalan, Moy drug chitayet ochen interesnuyu knigu gapida shunday bevosita tuzuvchilardan sintagma hosil boʻlgan:

1. Moy + drug, 2. ochen + interesnuyu. 3. interesnuyu + knigu, 4. drug + chitayet.

Buni matematik simvollar yordamida shunday ifodalash mumkin:

$An + Nn + D + Aa, Aa + Na, Nn + V$

N — ot yoki kishilik olmoshini, Nn — bosh kelishikdagi, Ng — qaratqich, Nd — joʻnalish, Na — tushum kelishiklaridagi, Ni — «tvoritelniy», Np — «predlojniy» kelishiklardagi ot yoki kishilik olmoshini ifodalaydi; A — sifatni, An, Ag, Ad... — sifatning bosh, qaratqich, joʻnalish kelishik formalarini, V — feʼlni, D — ravishni, P — «predlog»ni, S — bogʻlovchini ifodalaydi.

Siitagmalarning bir elementi tobe, ikkinchi elementi hokim boʻladi. Yuqoridagi sintagmalarda birinchi elementlar tobe, ikkinchi elementlar hokimdir. Har bir sintagma oʻz sintaktik xususiyatiga koʻra ya d r o g a teng.

Sintagmani ixchamlashtirish mumkin. Bunda hokim soʻz sintagmaning yadrosini tashkil qilgani uchun, u ixchamlashtirilgan sintagmani ifodalaydi:

1) $An + Nn - Nn$,

2) $D+Aa \rightarrow Aa$,

3) $Aa+Na-Na$,

4) $Hn+B-S$

(S—gapni ifodalovchi simvol.)

Demak sintagmalar ikki xil sintaktik munosabatga asoslanadi: predikativ munosabat— u gap (S) hosil qiladi, predikativ bo'lmagan munosabat — u gap tuzish uchun xizmat qiladigan, so'z formasi bosqichidan yuqori turadigan bosqichdagi yangi element hosil qiladi.

Yuqoridagi qoidalar, ya'ni bevosita tuzuvchilar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar qoidasi, turli tilda turlicha. Masalan, ko'rib o'tilgan ruscha gap o'zbek tiliga tarjima qilinganida formulalar o'zgaradi. Qiyoslang:

Mening do'stim juda qiziq kitobni o'qiyapti. Sintagmalar formulasi: $N1g+N2n+D+An$, $N3a+V$, $N2n+V$ (simvollarining o'ng tomoniga yuqoridan qo'yilgan raqamlar otlarning tartibini ifodalaydi).

b) Transformasion qoidalar deb, odatdagi bevosita tuzuvchilar modeli asosida yaratilgan gaplardan yangi gaplarga o'tish qoidalariga aytiladi.

Transformasion qoidalar bir gapni boshqa gapdan tug'dirish uchun, shuningdek ishoralarning o'rnini almashtirish va tarkibini har turli qilib o'zgartirish yo'li bilan bir tipdagi gaplardan boshqa tipdagi gaplarni yaratish uchun ham xizmat qiladi.

Gaplarning transformasiyasi simvollar yordamida shunday formula orqali ifodalanadi: $H1n \ V \ N2a+N2nV \ 1i$

Yana solishtiring:

Kitob uni qiziqitirdi // Kitob unga qiziqarli. Formulasi: $N1n \ N2a \ V \ \longleftrightarrow \ N1n \ N2d \ An$

Gaplarning transformasiyasi asosida transformasion model yaratiladi. Bunday model formal model bo'lib, u matematik sistemadan iborat. Demak formal bo'lish — matematik bo'lish demakdir. Tilning mana shunday formal yoki matematik modelini yaratish bir tildan ikkinchi tilga mashina yordamida tarjima qilish uchun kerak.

4. Tilni ehtimollik belgilariga ko'ra tahlil qilish til elementlarini statistik harakteristikolari asosida baholash demakdir.

Til birligining gapda (yoki matnda) qo'llanish chastotasi (sur'ati) ehtimollik deyiladi. Bu nazariya umumiy hodisalar yoki voqyealar bo'ysunadigan qonuniyatlarni o'rganadi. Bunda voqyealar, aniq tabiatidan qat'i nazar, abstrakt formada tekshiriladi.

Ehtimollik nazariyasiga ko'ra, boshqa ko'p voqyealar qatorida lingvistik voqyealar (biror fonemaning, so'zning, so'zlar guruhining, ma'lum gap tipining qo'llanishi va boshqalar) ham tasodifiy voqyealar sifatida qaraladi. Ehtimollik ularning tasodifiy o'lchovidir (17:301).

Tasodif — zaruriyatning yuz berish formasi ekanligi nazarda tutilsa, demak uning (tasodifning) qonuniy va zaruriy hodisa ekanligi anglashiladi. Shuning uchun ham tasodif termini ma'lum bir aniq ma'noga ega.

Ehtimollik nazariyasi uchun voqyealar uch turga bo'linadi: 1) ishonchli voqyea («dostovernoye sobitiye»), 2) mumkin bo'lmagan voqyea («nevozmojnoye sobitiye»), 3) tasodifiy voqyea («sluchaynoye sobitiye»).

Ma'lum sharoitlar to'plami mavjud bo'lsa, albatta yuz beradigan voqyea ishonchli voqyea deyiladi. Masalan, ot bosh kelishik formasida takrorlansa, gapda boshqa ot oldida kelganida, albatta aniqlovchi vazifasini, fe'l kesim oldida kelganida, albatta hol vazifasini bajaradi. Solishtiring:

Ch a m a n-ch a m a n gullar quyoshda yashnab, yonib tovlanadi. (Oybek Qutlug' qon).

Yulduzlar chaman-chaman yonadi (Oybek Oltin vodiya shabadalar).

Yuqoridagi birinchi gapda takrorlangan ot aniqlovchi vazifasida bo'lsa, ikkinchi gapda u hol vazifasidir. Aniqlovchi vazifasi bu forma uchun harakterlidir.

Biz bu xulosalarimizning ishonchli ekanligini qayd qilibgina qolmay, uni hisoblash orqali aniq ifodalashimiz ham mumkin. Chunki xulosalarimizning ishonchlilik darajasi voqyeaning ehtimollikiga tengdir. Masalan, Oybekning «Navoiy» romanidan tanlamay ketma-ket olingan bosh kelishik formasida takrorlangan 37 ta otning 30 tasi aniqlovchi, 6 tasi hol, 1 tasi esa to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan.

Shu bilan bosh kelishik formasida takrorlangan otlarning xususiyati haqida elementar statistik tahlil o'tkazilgan bo'ladi. Ularning uchrash chastotasi (sur'ati) aniqlanadi. Uchrash chastotasiga qarab lingvistik hodisaning ehtimollik belgisi xaqida hukm chiqariladi. Aslini olganda, bosh kelishikda takrorlangan otlar, asosan, aniqlovchi vazifasida qo'llanadi, degan umumlashtiruvchi xulosa ma'lum uzunlikdagi, ya'ni ma'lum chegaraga ega bo'lgan matnni tahlil qilish natijasida chiqariladi. Tilni statistik metod asosida o'rganishning mohiyati ham mana shundadir.

Tilni statistik metod asosida tahlil qilish uchun har vaqt ma'lum bir matn yoki matnlar to'plami olinadi. Ular badiiy adabiyotdan, gazeta va jurnallardan, publisistik maqolalardan, ilmiy asarlardan, dialektologlarning jonli nutqdan yozib olgan materiallaridan tanlanadi.

Statistik xususiyati o'rganilayotgan aniq matnlar tanlama («viborka») deyiladi.

Tanlamaning hajmi yoki miqdorini bilish juda muhim. Tanlamaning hajmi deb, tekshirilayotgan voqyealarning umumiy soniga aytiladi. Demak tanlamaning hajmi, ilgari ko'rib o'tilgan to'plamning quvvatiga o'xshash tushuncha bo'lib, ayrim elementlarning yig'indisidan iborat. Masalan, yuqorida ko'rilgay 37 ta takrorlangan ot tanlamaning hajmi (yoki miqdori)ni tashkil qiladi.

Bundan keyingi hisoblarni olib borish oson bo'lsin uchun matematik simvollardan foydalaniladi. Chunonchi, tanlama hajmi N harfi bilan belgilanadi. Aniqlanayotgan hodisani ko'rsatadigan miqdor (masalan, ot oldida aniqlovchi vazifasida keladigan takrorlangan otlarning miqdori) shu voqyeaning absolyut chastotasi deb hisoblanadi. Uni M harfi bilan belgilash mumkin. Yuqorida keltirilgan misolda $M=30$ ga teng. Absolyut chastota (M) ning tanlama hajmi (N) ga nisbati ($—$) dan voqyeaning nisbiy chastotasi kelib chikadi. Nisbiy chastota P harfi bilan belgilansa, demak $P = M/P$ bo'ladi. Nisbiy chastota oddiy kasr hisobida ($P = M/P$) yo prosent($P = M \cdot 100/N$) bilan hisoblanadi:

Tanlamadagi voqyeaning nisbiy chastotasi asosida tekshirilayotgan til hodisasining to'plamdagi (ya'ni tildagi) ehtimolligi haqida xukm chiqarish mumkin.

Yuqorida bosh kelishik formasida takrorlangan otlarning hol vazifasida ham qo'llanishi aytilgan edi. Uning ham nisbiy chastotasini aniqlash lozim: $P = 6/37 = 0,16$ yoki 16% Aniqlovchi bilan hol vazifalarini hisoblashda ularni aralashtirib yubormaslik uchun birinchi voqyeani M1, P1 tarzida, ikinchisini esa M2, P2 tarzida ifodalash lozim. Demak aniqlovchi vazifasining nisbiy chastotasi $P1 = M1/N = 30/37 = 0,81$ bo'lsa, hol vazifasining nisbiy chastotasi $P2 = M2/N = 6/37 = 0,16$ kabi ifodalanadi. Shu xilda to'ldiruvchi vazifasining nisbiy chastotasi $P3 = M3/N = 1/37 = 0,03$ bo'ladi.

Tanlamalar (matnlar) soni bir necha bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi eksperimentlarga ko'ra, so'z o'zgartish formalarining nisbiy chastotasi ma'lum bir P atrofida (undan ortiqroq yoki undan kamroq) o'zgarib turadi. Shuning uchun P ni, ya'ni urtacha nisbiy chastotani topish lozim. Bunda T eksperimentlar (matnlar) miqdorini ifodalaydi.

Yuqoridagi hisobga asoslanib, hozirgi o'zbek adabiy tilida gap tuzish chog'ida, nutqda qo'llanadigan so'zlardan yasaladigan barcha so'z formalarining 65 foizini sintetik va aralash tipdagi so'z o'zgartish formalari, 35 foizini esa analitik tipdagi so'z o'zgartish formalari tashkil qiladi, degan natijani chiqarish mumkin. Boshqacha aytganda, hozirgi o'zbek adabiy tilida 65 prosent agglyutinativlik ehtimolligi mavjuddir.

Affiksasiya va aralash usul bilan yasalgan so'z o'zgartish formalarining miqdor jihatdan ko'pligiga qarab hozirgi o'zbek adabiy tilini agglyutinativ-ajratuvchi til deb baholash to'g'ri bo'ladi.

Tilshunoslikda statistik metodni qo'llash doirasi tobora kengayib boryapti. Ayniqsa, chastota lug'atlari tuzish sohasida bu metoddan unumli foydalanilyapti. Agar chastota lug'atlari dastlab (1861 yilda) bosmaxonada harf terish ishiga bog'liq holda tuzilgan bo'lsa, keyinchalik stenografiya sistemasini yaratish, orfografiyani, kurslarni o'rgatishga metodikani mukammallashtirish maqsadida, keyingi vaktlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, Amerikada va Rossiyada o'qitish metodikasini yaxshilash maqsadida foydalanilayapti.

So'zlarning qo'llanish chastotasi ulardan qaysilarini til o'rgatishda tanlash lozimligini ko'rsatadi. Shu asosda maxsus chastota lug'atlari tuziladi. Masalan, E. A. Shteynfeldning chastota lug'atiga 2500 leksema muhim so'z sifatida kiritilgan. AQSh tilshunosi P. N. Vakar esa hozirgi rus og'zaki tilida 360 leksemani eng zarur so'zlar sifatida ko'rsatadi.

Shunday qilib, til elementlarining uch xil miqdoriy elementlarini — to'plamlilik (jamlik) belgilari, transformatsion belgilari, ehtimollik belgilarini tahlil qilishda matematikaning tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan uch soha — mantiq algebrasi, to'plamlar nazariyasi va ehtimollik nazariyasi qisqacha yuqorida sxematik tarzda bayon qilindi. Matematik tahlil metodlari. Til qurilishining tovush tarkibi, morfologik va sintaktik birliklari, grammatik qoidalar sifat jihatidagina emas, miqdor jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Miqdor belgilarini o'rganishda matematik tahlil metodlari qo'llaniladi.

Til birliklarining matematik metod yordamida o'rganiladigan miqdor belgilarini uchga ajratadilar:

A). Nazariy to'plamlilik belgilari.

B). Mantiq, algebrasiga asoslangan transformatsion belgilar.

V). Ehtimollik belgilari.

1. Til birliklarini to'plamlilik belgilari asosida tahlil qilish birliklar orasidagi ekvivalentlik va tartibning binar munosabatini tahlil qilishdan iborat. To'plam istagan miqdordagi obyektlarning jamligidir. To'plamga kirgan har bir obyekt to'plamning element deb ataladi. Masalan, ko'z so'zining ma'nolarini bir-biridan ajratish uchun har bir ma'noni anglashga yordam beradigan gap yoki birikmalar tuzamiz: 1. Ko'z - ko'rish organi. 2. Taxtaning ko'zi. 3. Buloqning ko'zi. 4. Uzunlikning ko'zi. 5. Xurjuning ko'zi. 6. Tizzaning ko'zi. 7. Yaraning ko'zi. 8. Ishning ko'zi.

Ushbu gaplarda ko'z so'zi har xil ma'nolarni anglatadi. Har bir ma'noni bitta to'plam deb hisoblaymiz. Har bir to'plam o'zining elementlariga ega. Bu elementlar ma'no mazmunini tashkil qiladigan tushunchaning muhim belgilaridan iborat.

Asosiy manosi ko'ra «ko'z» tushunchasining a, v, s, p, h, ye kabi belgilarini ajratib ifodalash mumkin: a - ko'rish vazifasini bajarish belgisi; v - dumaloq, yoki

ellipsis shaklda bo'lish belgisi: s - juftlik belgisi; ya - cheti botiqlik belgisi; x - o'rtasi bo'rtib chiqqanlik belgisi; ye - material.

Shundan so'ng qo'shimcha belgilar va ularning mavjudligi hamda to'plamlarning kesishgan-kesishmaganligi aniqlanadi.

Bu to'plamlar, ya'ni ma'nolar o'zaro bog'langan, ular bitta ko'z so'zining har xil matnlardagi ma'nolaridir.

Ushbu qoidalar lingvistikaga tadbiq, qilinishi mumkin.

Lingvistikada tovushlar, fonemalar, morfemalar, so'z-shakllar, so'zlar, so'z birikmalari, gallar singari birliklar to'plami bilan ish qilinadi.

2. Transformasion yoki algoritm jihatdan tahlil qilish til ifoda vositalari tizimini tasvirlashning aniq, qoidalarini ko'rsatib berishdir.

Tabiiy tillarni tahlil qilish va tasvirlashda ikki xil qolip tuzish qoidalarini ko'zda tutiladi:

a) bevosita tashkil etuvchilar bilan bajaradigan ishlar qoidalarini,

b) transformasion qolip tuzish.

Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi. Bu metod til birliklari orasidagi munosabat va ularning qanday joylanishini o'rganadi.

Tildagi eng kichik birlik fonema bo'lib, ular nutqda eng kichik segmentlarda namoyon bo'ladi. Fonemalarni tekshiruvchi pog'ona segmental fonologiya deb yuritiladi. Fonemalardan katta bo'lgan til birliklariga tegishli bo'lgan fonologik xususiyatlar suprasegmental fonologiyada tekshiriladi. So'zning fonologik tuzilishi va gapning intonasiyasini o'rganishda ularni tashkil etuvchi birliklar o'rganiladi. Bu metod gapning sintaktik qurilishini, gap bo'laklarining munosabatini va til birliklarini o'rganishda qanday qismlardan tuzilganligini aniqlashda yordam beradi.

Transformasion tahlil metodining asosiy maqsadi tilda mavjud bo'lgan gaplarning yadro gaplardan tuzilganligini, ulardagi chuqur va yuzaki strukturalar munosabati o'rganiladi. Transformasion tahlil metodining barcha xususiyatlarini amerikalik olim Naum Xomskiy ochib bergan. Hozirgi tilshunoslikning sintaktik va stilistik tadqiqotlarida bu metod ko'p ishlatiladi. Masalan: Behzod o'qigan kitob stol ustida turibdi. Bu gapni transformasiya qilsak quyidagicha bo'lishi mumkin: Bekzod

o'qib chiqqan kitob stol ustida turibdi. Behzod tomonidan o'qilgan kitob stol ustida turibdi (o'qigan, o'qib chiqqan, tomonidan o'qilgan).

3. Tilni ehtimollik belgilariga ko'ra tahlil qilish til elementlarini statistik harakteristikalar asosida baholash demakdir. Til birligining gapda qo'llanish chastotasi ehtimollik deyiladi. Ehtimollik fonema, so'z, so'zlar guruhi, gaplarning qo'llanishidagi tasodifiy o'lchovdir.

Tanlanma matn asosida statistik xususiyatlarni o'rganish natijasida chastotali lug'atlar tuziladi.

Matematik tahlil metodlari tilshunoslikning yana ham takomillashishiga, shubhasiz, katta yordam ko'rsatadi. Natijada kibernetika va elektron-hisoblash mashinasi bilan ishlashning ravnaq, topishi avtomatik tahlil metodining shakllanishiga olib keldi. Bu metod tilni shunday shakliy qismlarga ajratadiki, bir tilning elementlari boshqa tilning shu ma'nodagi shakliy elementlariga ekvivalent bo'lishi lozim. Ekvivalentlik esa bir tildan boshqa tilga mashina yordamida tarjima qilish imkoniyatini beradi.

Matematik metod tilshunoslikning yana ham takomillashishiga, shubhasiz, katta yordam ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan metodlardan o'rinli foydalanilsa yoki ularning bir nechasidan bir vaqtda foydalanilsa, yaxshi natija beradi.

2.3.AVTOMATIK TAHLIL METODI

Fan oldiga yangi vazifalar qo'yilishi, tilni boshqa tomondan ko'rsatish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan yangi metodlar ham yaratiladi.

Kibernetika va elektron-hisoblash mashinasi bilan ishlash ravnaq topishi avtomatik tahlil metodining shakllanishiga olib keldi. Bu metod tilni shunday formal qismlarga ajratadiki, bir tilning bunday elementlari boshqa tilning shu ma'nodagi formal elementlariga ekvivalent bo'lishi lozim. Ekvivalentlik esa bir tildan boshqa tilga mashina yordamida tarjima qilish imkoniyatini beradi.

Tarjima qilish bir tilda ifodalangan fikrni boshqa bir til vositalari bilan ifodalash demakdir. Tarjima xalqlar orasidagi aloqani kuchaytiradi, bir xalq yaratgan

madaniyat boyliklaridan boshqa xalqlarning bahramand bo'lishiga juda katta yordam beradi, shu bilan u xalqlarni bir-birlariga yaqinlashtiribgina qolmay, madaniyatning taraqqiy qilishida muhim rol o'ynaydi.

Tarjima qilish tarjimondan katta mehnat, ijodiy kuch sarf qilishni talab qiladigan ishdir. Shuning uchun ham bu jarayonni avtomatlashtirish va mexanizasiyalash zarur. Ammo tarjima, ikkinchi tomondan, ijodiy ish bo'lgani uchun, uni texnika vositasi bilan amalga oshirish murakkab va qiyin ish. Chunki har qanday mukammal mashina ham insonning miyasi bajara oladigan ijodiy ishlarni amalga oshirishga ojizlik qiladi. Shuning uchun ham mashina yordamida har qanday matnni maqsadga muvofiq tarzda tarjima qilib bo'lmaydi. Bu ish ma'lum sohalardagi matnlar bilangina chegaralanadi.

Keyingi yillarda avtomatik elektron-hisoblash mashinasi yaratilishi munosabati bilan tarjima qilish ishini mexanizasiyashtirishning katta imkoniyatlari ochildi.

Elektron-hisoblash mashinasi yordamida tarjima qilish dastlab 1954 yilda AQSh da, 1955 yilda Rossiyada amalga oshirilib, ingliz tilidagi matn rus tiliga tarjima qilindi. Biroq shuni aytish kerakki, tarjima qilishda mashinadan foydalanish g'oyasi va bunga dastlabki urinishlar Rossiyada ancha ilgari boshlangan edi. 1939 yilda kashfiyotchi texnik P. P. Smirnov-Troyanskiy mashina bilan tarjima qilish usulini ishlab chiqqanligini ma'lum qildi. Uning usuli elektronika bilan bog'lanmagan edi.

P. P. Smirnov-Troyanskiyning prinsipiga ko'ra, mashina bir tildagi so'zlarni boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib berishi kerak. Har bir so'zning grammatik xususiyati, gapdagi vazifasi esa o'sha so'zdan so'ng maxsus ishora bilan ko'rsatiladi. So'ngra muharrir ko'rsatilgan grammatik belgilariga qarab bu so'zlarning grammatik formalarini yasashi va gap tuzishi lozim.

P. P. Smirnov-Troyanskiy taklif qilgan mashinaning imkoniyatlari juda ham chegaralangan edi. Mashina yordamida chinakam tarjima qilish elektron-hisoblash mashinasi kashf qilingandan keyingina amalga oshirildi. Hozirgi elektron mashina yordamida she'riy asarlardan bo'lak har kanday prozaik asarlarni tarjima qilish mumkin. Mashina she'rni she'r bilan tarjima qila olmaydi. U she'rni prozaik matnga aylantiradi.

Mashina bilan tarjima qilish ikki imkoniyatdan birini tanlash va tabiiy sonlar qatoridagi sonlarni hisoblash prinsipiga asoslangan. Mashinaning matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishi uchun shular zarur:

1) maxsus tanlangan soʻzlar bilan birgalikda matnni mexanistik ravishda tarjima qilish imkoniyatini beradigan qoidalar sistemasini yaratish kerak;

2) bu qoidalarni va soʻzlarni «mashina tilida» yozish, yaʼni oʻsha qoidalarni reallashtiruvchi programma tuzish kerak.

Programma va lugʻat maxsus shartli belgilar bilan yoziladi va mashinaga kiritiladi. Shu bilan mashina tarjimaga tayyor boʻladi.

Tarjima qilish tufayli ikki til orasida paydo boʻlgan munosabat faqat formal, toʻgʻrirogʻi, mexanistikdir. Bunday formalizm tildagi maʼno va uning ifoda vositalari birligiga asoslangan tabiiy birliklar (xususan, fonemalar, morfemalar) tufayli boʻlmay, mexanistik tenglikka erishish tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun tilda tabiiy ravishda ajratiladigan morfemalarning chegarasi elektron mashinada oʻzgarib ketishi mumkin.

Tarjima qilish qoidalari faqat ikki til uchun boʻlib, birgina yoʻnalishni koʻzda tutadi (faqat, masalan, fransuz — rus tili boʻyicha, ammo rus — fransuz tili yoʻnalishi uchun boshqa sistema tuziladi).

Bir tildan koʻp tilga tarjima qilish uchun oʻrtada vosita til boʻlishi ham mumkin. Bunday paytda avval vosita tilga tarjima qilinib, matn bir umumiy qolipga solinadi, soʻng undan boshqa tillarga tarjima qilish oson boʻladi.

Vosita til uchun aniq tillardan birini tanlash ham, shu bilan birga maxsus mantiqiy simvollar tili yaratish ham mumkin.

Elektron-hisoblash mashinasi yordamida tarjima qilish jarayoni qanday borishini tasavvur qilish uchun quyida fransuz tilidagi matematik matnni rus tiliga tarjima qilish yoʻli qisqacha koʻrsatiladi.

Tarjima qilish uchun shunday narsalar tayyorlanadi: 1) negizlar lugʻati, 2) oborotlar lugʻati, 3) old koʻmakchilarni tarjima qilish jadvallari, 4) omonimlarni ajratish qoidasi, 5) har ikki tildagi affikslar jadvali, 6) tahlil kiluvchi qoidalar guruhi, 7) sintez kiluvchi qoidalar guruhi.

Bu ma'lumotlar mashinaniig «xotirasiga» kiritiladi.

Mashina yordamida tarjima q i l i sh jarayoni:

Mashina bilan tarjima qilish jarayoni shunday ishlarni o'z ichiga oladi:

1) lug'atdan kerakli so'zni qidirish va uning turini ko'rsatuvchi belgisi bilan birga mashina «xotirasi»ning ishlovchi qismiga o'tkazish; 2) oborotlarni ishlash; 3) omonimlarni farqlash; 4) «tahlil» qilish, tahlil qiluvchi qoidalar yordamida ma'lum izchillik asosida (so'z turkumlariga ko'ra) tarjima qilinuvchi so'zni ishlash; 5) «sintez»lash (sintezlovchi qoidalar yordamida ruscha gap tuzish).

Tarjima lug'atdan so'z qidirishdan boshlanadi: mashina tarjima qilinadigan matndan so'zlarni birin-ketin olib, ularning har biriga mos keladigan negizni negizlar lug'atidan qidiradi. Vazifa kerakli so'zni lug'atdagi negizlar bilan taqqoslab, harflar soni jihatidan maksimal darajada tarjima qilinayotgan so'zga sig'adigan negizni topishdir.

Masalan, generalisons so'zini tarjima qilish uchun uning negizi lug'atdan topiladi. Lug'atda uchta negiz bor: generalisation-, generalis-, genera-.

Birinchi negiz tarjima kilinayotgan so'zga sig'maydi, ikkinchisi va uchinchisi sig'adi, ammo uchinchisi juda qisqa bo'lgani uchun so'zning tovush tarkibida unga o'xshamagan tovushlar soni ikkinchi negizdagiga nisbatan ko'p. Demak ikkinchi negiz tarjima uchun olinadi. Ana shu ikkinchi negiz lug'at belgisi bilan birga lug'atdan mashinaning «xotira» qismiga o'tkaziladi.

Jumladagi so'zlar uchun mos bo'lgan negizlar lug'atdan tanlab bo'lingach, mashina negizlarning belgilarini tekshirib, oborotda ishora bor-yo'qligini aniqlaydi. Agar belgi bo'lmasa, tarjimaning navbatdagi etapiga (omonimlarni farqlashga) o'tiladi. Bordi-yu, oborotga ishora bo'lsa, mashina «oborotlar lug'ati»ga murojaat qiladi va ko'rsatkichdagi nomerga qarab birinchi oborotni topadi. Bu oborotda o'sha so'z asosiy so'z hisoblanganligi ko'rsatilgan bo'ladi. So'ng mashina bu oborotni tarjima qilinayotgan jumla bilan taqqoslaydi. Agar u jumlagi to'la mos kel-sa, ya'ni oborotdagi so'zlar jumladagi so'zlarga teng, ularning joylashish tartibi ham teng kelsa, tegishli oborot topilgan bo'ladi va jumlagi kirgan so'zlarning lug'at belgilari oborotning belgisi bilan almashtiriladi.

Agar oborot jumlagam mos kelmasa, mashina shu soʻz asosiy soʻz hisoblangan barcha oborotlarni jumlagam ketma-ket qiyoslaydi. Agar birorta ham oborot jumlagam mos kelmasa, demak u oborotga kirmaydi va uni mustaqil tarjima qilish kerak boʻladi.

Omonimlarni farqlashda 2 ish bajariladi:

1. Ikki negizdan biri tanlanadi.
2. Bir necha belgidan bittasi (olingan negizga tegishlisi) tanlanadi.

1. Ikki negizdan birini tanlash fransuz tilida koʻpincha ot bilan feʼl orasida boʻladi. Negizlar teng kelib qolganda (omonim boʻlganda), ularning tugallanmasiga qaraladi. Masalan, tugallanma -s boʻlsa, demak u — ot. Feʼlda buyruq mayli-: ning II shaxs birligidagina-s keladi. Matematik matnda feʼlning bu formasi qoʻllanmagani uchun, oxirida -s tugallanmasi mavjud boʻlgan soʻz ot deb hisoblanaveradi va feʼl negizi olinmaydi.

Agar boshqa biror tugallanmasi boʻlsa, demak u — ot emas, faqat feʼl. Ot negizi endi olinmaydi.

Soʻzlarni «tahlil qiluvchi qoidalar» bilan ishlash shundan iboratki, fransuz soʻzining formalari va soʻzning jumlada boshqa soʻzlar orasidagi holati tahlil qilinadi.

Bu esa ruscha formalarni va ularning oʻrnini belgilash uchun yordam beradi.

«Tahlil qiluvchi qoidalar» soʻz turkumlari boʻyicha gruppalandi.

Soʻzlarni «tahlil qiluvchi qoidalar» bilan ishlash feʼldan boshlanadi. Chunki feʼl: 1) jumlaning maʼno kaliti, 2) fransuz tilida feʼl eng sintetik soʻz turkumidir. Uning formalari boshqalarnikidan koʻp. Feʼl oʻz formalari orqali shaxs, son, zamon, mayl, nisbatni ifodalaydi.

Feʼlni koʻpincha oʻz formasiga qaraboq (boshqa soʻzlar bilan aloqasiga eʼtibor bermayoq) tarjima qilish mumkin.

Fransuz tilidagi ot mutlaqo kelishikni ifodalamaydi. Rus tiliga tarjima qilish paytida ruscha otning kelishigi feʼlga qarab aniqlanadi. Shuning uchun otni feʼldan, old koʻmakchilardan keyin, sifatni otdan keyin ishlash kerak. Demak tahlil qiluvchi qoida bilan ishlash tartibi shunday: feʼl — yuklama —old koʻmakchi — ot — olmosh — sifat — sifatdash.

Nihoyat, so'zlar sintezlovchi qoidalar bilan ishlanadi. Bunda ruscha so'zlarning kerak bo'lgan formasi yasaladi va jumlaning tegishli o'rniga joylashtiriladi.

Sintezlovchi qoidalar tahlil qiluvchi qoidalardan ancha kam bo'ladi.

Shunday qilib, hozirgi zamon tilshunosi ixtiyorida bir qancha ilmiy tadqiqot metodlari mavjud bo'lib, ularning qaysi biridan foydalanishi tadqiqotchining o'z oldiga qanday maqsad qo'yganligiga bog'liq. Chunonchi, til birligining ilgari qiyofasi va ma'nosi aniqlanmog'chi bo'lsa, qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanishi mumkin. Bardi-yu, tilning strukturasi tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, unda obyektiv tasvirlash metodidan foydalanib ish tutishi yaxshiroq natija beradi. Ba'zan tilning tipologik xususiyatini aniqlash lozim bo'ladi. Bunday paytda uni struktural tahlil metodi va matematik (statistik) metodlar bilan tadqiq qilish mumkin va h. k.

Demak yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodlardan foydalanish tilshunosning o'z ixtiyoridagi narsadir.

2.4.Distributiv tahlil metodi. Bu metod til birliklarining o'zaro joylashishi, ularning o'zaro birikish qonunlarini o'rganadi. Distributiv tahlil metodi til tizimining fonologik morfologik va sintaktik birliklarini o'rganishda qo'llaniladi.

Til birliklarining distribusiyasi biror bir birlikning boshqa bir birlik bilan birikish usullari qayerda, qaysi holda va qanday qo'llanish doirasi yig'indisidan iborat, degan savollarga javob beradi. Bular distributiv tahlil metodining mohiyatini tashkil etadi.

2.5. Lingvogeografik metod.

Lingvistik geografiya umumiy tilshunoslik fanining bir aspekt yo'nalishi sifatida areal-tipologik metod orqali tillar tipologiyasini o'rganish bilan ham, areal tadqiqot metodi bilan ham ish ko'radi. Bu metod dialekt va shevalarning tarqalish chegarasini butunicha aniqlaydi, ularning ayrim fonetik leksik va grammatik xususiyatlarining joylashish o'rnini belgilaydi hamda tilning dialektik bo'linish manzarasi va tuzilishini aniqlaydi (3:145).

Lingvogeografik metod quyidagi tushuncha va atamalar bilan ish ko'radi:

a) lingvistik atlaslar, b) mos hodisalar, v) areallar, g) izoglossalar, d) til landshafti, ye) aralash zonalar, z) innovasiya markazi, j) irradiasiya, y) lingvogeografik haritalar, k) haritalashtirish kabilar.

Ma'lum til yoki shevalarga xos xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi lingvistik haritalarning albom shaklidagi sistemali to'plami lingvistik atlas deyiladi.

Umummilliy til tuzilishining zvenolari har xil dialektlarda o'zining turli belgilari bilan ishtirok etib, shevachilik farqlarini vujudga keltirishga mos hodisalar sanaladi: ona (oyi), narvon (shoti).

Tilning dialektal farqlanishini areal deb ataladi qipchoq areali, ug'o'z areali kabilar.

Mos hodisalarning u yoki bu a'zosi, bo'lagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas haritasidagi chiziq, izoglossalar deb ataladi.

Mazkur til uchun ma'lum bo'lgan izoglossalar yig'indisi va ularning shu til hududida joylashish harakteri til landshaft deyiladi.

Bir til yoki dialekt ichida boshqa bir til yoki dialekt birliklarining mavjudligi aralash zona hisoblanadi.

U yoki bu til yoki sheva hodisasining markaziy nuqtasi innovasiya markazi sanaladi. Masalan -din affiksining shevalarda tarqalishiga innovation markaz uyg'ur tilidir.

Hodisaning tarqalish tushunchasi bo'lib, arealning harakterli belgilaridan biri irradiasiya deyiladi. Masalan, adabiy tildagi - da affiksining shahar tip shevalarga kirib borishi.

Lingvogeografik metodidagi ilmiy tadqiqotning asosiy natijasi bo'lib, unda til tarixining barcha davri o'z aksini topsa lingvistik harita hisoblanadi.

Lingvistik geografiya metodining asosiy vazifasi til hodisalarining xududga tarqalishini haritalashtirish, tadqiq, etish va shundan kelib chiqadigan ilmiy muomalalarini hal etishdan iborat.

Tipologik metodning mohiyati tip tuzilishidagi o'xshash va farqli tomonlar tilning o'zi mansub bo'lgan genetik tomonlar bilan qiyoslanadi. Hamma tillar ichki

tomonidan o'xshash, tashqi tomondan farqli bo'ladi, chunki ularning tuzilishi asosida bir xil tamoyil yotadi. Ana shu tamoyillarni aniqlash jarayonida tipologik metod paydo bo'lgan.

Tillarni tipologik o'rganishning maqsadini aniqlashda bir necha yondashuvlar mavjud tasnifiy, harakterologiq belgiga xosliq ichki tizim kabi.

Tasnifiy yondashuvga ko'ra, dunyodagi barcha tillar ma'lum bir belgisi bilan tillar tipi, to' dasidan farqlanadi, buning natijasida tillarning morfologik tasnifi yuzaga keladi. Bu tasnif tillarning morfologik xususiyatlarini, aniqrog'i, o'zak va affikslarni qarama-qarshi qo'yish asosida qiyoslab o'rganishga asoslanadi.

Xarakterologik yondashuv orqali har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

Belgiga xos yondashuv orqali alohida til hodisalarining tipologiyasi va yaruslarini yaratish nazarda tutildi: fonetik tipologiya, sintaktik tipologiya kabi.

Ichki tizim asosida yondashuv orqali hozirgi tildagi ayrim hodisalar o'rtasidagi munosabat tekshiriladi.

Xullas, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida undagi fonologik grammatik leksik va stilistik xususiyatlarni ona tili bilan chog'ishtirish qiyosiy-tipologik metod deb ataladi.

Demak yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodlardan foydalanish tilshunosning o'z ixtiyoridagi narsadir.

Adabiyotlar

- 1.N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar. M., 1971.
- 2.O.S.Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov. M., 1966
- 3.D.E. Rozental. M.A.Telenkova. Slovar spravochnik lingvisticheskix terminov. M., 1976
- 4.V.M. Solnsev. YAzyk kak sistemnostrukturnoe obrazovanie. M., 1971.
- 5.Общее языкознание. Vnutrennyaya struktura yazyka. M., 1972.
- 6.S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1971.
- 7.V.I.Koduxov. Общее языкознание. M., 1974.
- 8.B.I.Kosovskiy. Общее языкознание.Minsk. 1969.
- 9.A.G.Xrolenko. Общее языкознание. M., 1981.

Samarqand davlat chet tillar instituti



Samarqand – 2016

Mavzu: Substansiya va forma. Sistema va struktura. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi.

- 1.Substansiya va forma.
- 2.Sistema va struktura.
- 3. Til sistemasi, uning mohiyati va tarkibi.

Sistemaning turlari:

- 1. Material (moddiy) sistemalar
- 2. Ideal sistemalar

Moddiy sistemalar:

- Quyosh sistemasi
- O`simliklar sistemasi
- Tirik organizmlar sistemasi
- Transport sistemasi

Ideal sistemalar:

- Ta`lim sistemasi
- Tarbiya sistemasi
- Til sistemasi

Sistemalar:

1. Sistema – umumiylik
2. Struktura – xususiylik
3. Sistema – sintetik
4. Struktura - analitik

Sistema

- Sistema muayyan butunlik, obyekt sifatida elementlarni, qismlarni, bo'laklarni va ularning o'zaro aloqasini o'z tarkibiga olsa, struktura ayni obyektning, butunlikning ichki tuzilishi, tartibi, tashkil topishi sifatida farqlanadi.

Material (moddiy) sistemalar

- Material (moddiy) sistemalar o'zaro munosabatdagi muayyan material elementlardan iborat sistemadir. Material sistemalar belgi va xususiyatlariga ko'ra cheksiz, turlichadir. Chunki bu sistemani hosil qiluvchi elementlar va ayni elementlar orasidagi aloqa va munosabatlar cheksiz, turli-tumandir.

Moddiy sistema

- Moddiy sistema sifatida, masalan, toshni, binoni, daraxtni olish mumkin. Toshda elementlar — molekulalar moddaning shu modda asosiy kimyoviy xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik zarrasi; molekula o'zaro kimyoviy bog'langan bir xil yoki turlicha atomlardan iborat bo'ladi (atom kimyoviy elementning eng mayda zarrasi). Atom yadrodan va elektronlardan tuzilgan murakkab sistema bo'lib, atom yadrosining o'zi esa proton va neytronlardan iborat va ular orasida aloqalar (molekulyar aloqalar) mavjud.

ideal sistemalar

- Material sistemalardan farqli ideal sistemalar ham bo'lib, ular shunday sistemalarki, ayni sistemalarning elementlari ideal sistemalaridir, ya'ni o'zaro muayyan munosabatlar bilan bog'langan muayyan g'oya, tushuncha yoki fikrlardir.

Ideal sistema

- Ideal sistema sifatida u yoki bu asar goyalari sistemasini, u yoki bu fan tushunchalari sistemasini olish mumkin.
- Ideal sistemalar material sistemalardan farqli holda hamma vaqt kishilarning faoliyatiga, anig'i ularning fikriy faoliyatiga ko'ra yuzaga keladi. Ular muayyan (biror) moddiy substansiyadan asosdan tashqarida mavjud bo'lmaydi.
- Ideal sistemalar material substansiya, ya'ni insonning miya a'zosi miyaning fikrlashi orqali hosil bo'ladi va material substansiyada (har qanday materiyada) mustahkamlanadi, «qotiriladi».

Ikkilamchi moddiy sistemalar

- Ikkilamchi moddiy sistemalar moddiy asosining (substansiyasining) birinchi vazifasi g'oya, fikr, tushuncha ifodalashdan iboratdir. Ikkilamchi material sistemalar material substansiyasining ikkinchi eng muhim vazifasi ideal sistemalar (tushuncha, g'oya, fikrlar) elementlarini o'zaro differensiasiya qilishda, farqlashda ko'rinadi.

Til sistemasi

- til o'ziga xos strukturaga (tuzilishga) ega bir butun sistemadir. Til o'zaro uzviy bog'liq va birbirini taqozo etadigan moddiy birliklarning yig'indisidan tashkil topgan, o'ziga xos qurilishga ega bo'lgan murakkab sistemadir.
- Til sistemasini tashkil etgan til birliklari, ularning o'zaro munosabati, birbiri bilan bog'lanish qonunqoidalari tilning strukturasi tashkil etadi.
- Til sistemasi strukturasi ko'ra juda murakkabligi, ko'p sathdigi (yarusligi) bilan ajralib turadi. Tilning birbiri bilan uzviy bog'liq fonetik tomoni, leksikasi, morfologik va sintaktik qurilishstruktura qatlamlari bo'lib, bular birgalikda, dialektik bog'liqliqsa «yashaydi», bir butunlikni tashkil qiladi, til sistemasini tuzib, uning mavjudligini (obyektivligini) ta'minlaydi.

Til sistemasi

- Til sistemasining har bir sathi: fonetik, leksik, grammatik yaruslari o'ziga xos sistema bo'lib, ular ham muayyan qismlardan, struktural elementlardan moddiy birliklardan tashkil topadi, muayyan ijtimoiy vazifa bajaradi. Demak, aytilganlarga ko'ra tilni sistemalar sistemasi deb aytish mantiqan to'g'ridir. Til sistemasi sathdariga ichki sistemalariga nisbatan makrosistema bo'lsa, uning ichki yaruslari qatlamlari unga nisbatan mikrosistema sifatida namoyon bo'ladi.
- Xullas, falsafiy ma'noda har qanday makrosistemaning ichki qurilishi, tashkil topishi mikrosistemalardan iborat bo'ladi.

Shakl

- Shakl (hodisa) predmetning mavjud bo'lish usuli, mohiyatning elementlarini bir butunlikka bog'laydigan narsadir. Forma predmetning borligini, nima ekanligini ko'rsatib turadi.
- Mohiyat predmetning belgi va xususiyatlarida kuzatiladi. U predmetning ichki jihatdan qandayligini ifodalaydi.

shakl va mazmun

- Til va nutq muammosidan bizga ma'lumki, ushbu ijtimoiy psixik, ijtimoiy individual hodisalar o'zaro bog'langan, o'zaro munosabatdagi jarayonlardir.
- Til va nutqqa ham shakl va mazmun munosabati bevosita xos bo'lib, ularda shakl va mazmun kategoriyasining bog'liqligi o'ziga xos namoyon bo'ladi, lisoniy hodisalar, birliklar tahyailida faol qo'llanadi.
- Tilshunoslikda — til sistemasida shakl, odatda, lisoniy birliklarning moddiy tomoni, tashqi ifodalovchi tovush tomoni bilan; mazmun esa til birliklarining ichki tomoni, ma'nosi, ifodalanuvchi tomoni bilan bog'lanadi.

Substansiya

- Substansiya, ya'ni mohiyat keng ma'nodagi predmetlarni — predmetlarning eng muhim ichki jihatlarini, xususiyatlarini, ularda sodir bo'layotgan jarayonlarni qayd etadi.
- Substansiyaning ajralmas zid jufti bo'lgan forma, ya'ni shakl (yoki hodisa) predmetlarni predmetlarning ko'rinishini, bevosita ko'zga tashlanib turgan tashqi tomonini aks ettiradi. Anig'i, shakl (hodisa) muayyan mohiyatning muayyan qiyofasini, turli ko'rinishlarda ta'sir qiluvchi, namoyon bo'luvchi va shunga ko'ra ajralib turuvchi jihatini ifodalaydi.

Mohiyat

- Mohiyat va shakl (hodisa) o'zaro bog'liq bo'lib, predmetlarning ichki va tashqi tomonini xarakterlaydi. Mohiyat — ichki, yashirin, shakl (hodisa) esa tashqi, realdir. U mohiyatning moddiy ko'rinishi, qobig'idir.
- Mohiyat hodisalardagi — bir turdagi predmetlardagi umumiylik bo'lsa (masalan, barcha hikoyalarning, soatlarning, qalamlarning mohiyati bitta, umumiy), hodisa xususiylkdir, yagonaliqsir (masalan, umumiylik bo'lgan mohiyat turlicha shaklga, ko'rinishga, hajmga ega bo'lgan yagonani, alohidani aks etgiradi. Qiyoslang: soat, kalit, bulut, suv)
- Hodisa dinamikroq, o'zgaruvchanroq, mohiyat esa statikroq, o'zgarmasroq, doimiyroqsir.

Til va nutq birliklarining shakli

- Til va nutq birliklarining shakli va mazmuni o'rtasidagi bog'lanish shartli ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Chunki bunday bog'lanishlar jamiyat tomonidan tayyor holda olinadi. Aniqrog'i, jamiyat a'zolari til birliklari orasida qayd etilgan bog'lanishlarni avlodlardan tayyor holda qabul qiladi, o'rganadi. Ularni qanday holda olgan bo'lsalar, shunday hodda ishlatadi, qo'llaydi, aks holda jamiyat uni qabul qilmaydi va unga tushunmaydi. Qiyoslang: (i) harfini «i» sifatida talaffuz etish, () bu belgani ayrish alomati, buni (x) ko'paytirish belgisi, ushbu raqamlarni (1, 10, 100, 1000, 1000000) bir, o'n, yuz, ming, bir million deb tushunish vaqgidagi shakl va mazmun bog'lanishi ijtimoiy, (shartli) bog'lanish hisoblanadi.

Til sistemasi

- Til sistemasida til va nutq, til va nutq birliklari shakl va mazmun munosabatiga ko'ra, alohida muhim ahamiyat kasb etadi.
- Til va nutq birliklari bo'lgan tovush, fonema, morfema, leksema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar zaruran shakl va mazmun munosabatini o'zida tashiydi, aks ettiradi. til va nutq, til va nutq birliklari shakl va mazmun munosabatiga ko'ra, alohida muhim ahamiyat kasb etadi.
- Til va nutq birliklari bo'lgan tovush, fonema, morfema, leksema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar zaruran shakl va mazmun munosabatini o'zida tashiydi, aks ettiradi.

	Yunon tilshunosligi. Arab tilshunosligi. O'rta Osiyo tilshunosligi.
--	---

1.1 .Seminar mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi

1.2. «Tilshunoslik tarixi, maktablari. Hind va Yunon tilshunosligi. Arab

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1. Tilshunoslik tarixi, maktablari. 2. Hind va Yunon tilshunosligi. 3. Arab tilshunosligi. 4. O'rta Osiyo tilshunosligi.
Mashg'ulotning maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
- Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganganlar yuzasidan suhbat; - Talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish;	- Seminar mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; - Tilshunoslik tarixi, maktablari. Hind va Yunon tilshunosligi. Arab tilshunosligi. O'rta Osiyo tilshunosligi haqida ma'lumot beradi..
O'qitish usullari	Suhbat, izlanish, mustaqil ish, kuzatish, kichik guruhlarda ishlash metodi.
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar, markerlar, qog'ozlar.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.
O'qitish shakllari	Jamoa va guruhlarda ishlash.

tilshunosligi. O'rta Osiyo tilshunosligi.» mavzusidagi seminar mashg'ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
Tayyorlov bosqichi	Har bir talaba uchun seminar mashg'ulot mavzusi, rejasi tarqatiladi. Talabalar seminar mashg'ulotga puxta tayyorlanishlari kerakligi aytiladi.	

1. Kirish bosqichi (10 minut)	1.1 Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini eslatadi va uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tadi.	Diqqat bilan tinglaydilar
2. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1 Talabalarni faollashtirish maqsadida aqliy hujumdan foydalaniladi va uning qoidalari bilan tanishtiriladi. 2.2 Vazifa tushuntiriladi. Guruhlar ishni kuzatadi. 2.3. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi. Mavzuni bayon qilish reglamenti eslatiladi va ularga albatta rioya qilish ta'kidlanadi. 2.3. Faoliyat natijalari taqdimot boshlanadi. Javoblarni to'ldiradi, tuzatishlar kiritiladi.	
3. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha qisqa xulosalar qilinadi, yakun yasaladi. Guruhlar faol ishtirokini alohida qayd qilib, baholar e'lon qilinadi. 3.2. Mustaqil ish chun topshiriq beriladi.	Eshitadi. Vazifani yozadilar.

1-ilova

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

- <u>Hech qanday o'zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik!</u> - <u>Taklif etilgan fikrlarni baholashdan o'zini tiyishlik.</u> - <u>Hamma narsa mumkin.</u> - <u>Tanqid qilmaslik – hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.</u> - <u>Asosiy maqsad fikrning miqdoridadir.</u> - <u>Qancha ko'p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrlı fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.</u> - <u>Fikrlar qaytarilsa, jahl chiqmaslik umumiy tilshunoslik majmua.doc</u>
--

2- ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni badarish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhdagi fikrlar chegaralanmaganligi haqida ogohlantirish lozim.
5. Guruh ish natijalari qanday taqdim etilishini aniq bilishi, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

Tilshunoslik tarixi, maktablari. Hind va Yunon tilshunosligi. Arab tilshunosligi. O'rta Osiyo tilshunosligi mavzusidagi seminar mashg'ulotning

matni

Reja:

9. Eng qadimgi tilshunoslik maktablari.
10. Qadimgi hind tilshunosligi.
11. Qadimgi Xitoy tilshunosligi.
12. Qadimgi Gretsiya va Rimda tilshunoslik.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Vedalar tili, vyakarana, nol morfema, logogramma, predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi, stoiklar maktabi; tilshunoslikning 2 davri: falsafiy davri, grammatik davri; so'z bog'lanishli nutqning eng kichik qismi.

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shak-shubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, «mahsuli» sifatida o'zining alohida o'rganish ob'ektiga va tekshirish metodiga ega bo'ldi.

Qat'iy aytilish mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga etib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, «o'sish» davrini bosib

o`tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta`limotlar ta`sirida bo`ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko`plab manbalarga «guvoh bo`ldi», shakllandi. Anig`i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o`ziga xos va o`ziga mos doimiy mustahkam o`rin egalladi.

Tilshunoslik fanining qadimgi eng muhim manbalari, ta`limotlari, oqimlari, ilk bor, qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim mamlakatlarida maydonga keldi.

O`rta va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Ovrupoda, Arabiston va O`rta Osiyoda taraqqiy qildi.

Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e`tirof etiladi. Bu-mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga bo`lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug`ullanish ilk bor Hindistonda - hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega bo`ldi. Aniqrog`i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida - sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari - Vedalar tili davrlar o`tishi bilan mamlakat aholisining so`zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Ya`ni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so`zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo`qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o`rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e`tiborga, hurmatga sazovor bo`lgan Vedalardagi ma`nosi tushunarli bo`lmagan so`zlarni aniqlab, ularning ma`nosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug`atlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi so`z va jumlar ma`nosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga bo`lgan qat`iy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo`ldi.

Hindlar qadimiy davrda eng buyuk fonetikachi va gram-matikachi sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida Yunonlardan ham oldin unli va undosh

tovushlarni farq-laganlar, portlovchi va sirg'aluvchi, jarangli va jarangsiz to-vushlarni, tovush birikmalarini, bo`g`in, urg`u, intonaciya, cho`-ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shular yuzasidan mukammal ma`lumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunosligida fonema haqida ham muayyan tushunchalar bo`lgan.

Qadimgi hindlar so`zlarning faqat ma`no tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham o`zgarishlar bo`lishini bilganlar. Shunga ko`ra ular so`zlarning tovush jihatiga alohida e`tibor berganlar. Tovush haqida, tovushlarning o`zgarishi ha-qida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik - artikulyacion xususiyat-lari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta`siri bilan o`zgarishi (kombinator o`zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e`tibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyacion – fiziologik xususiyatlarini hi-sobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida ay-tilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a`zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga ta`siridan, ya`ni tegishidan undoshlar hosil bo`lishini qayd etganlar.

Agar yunon filologlari tovush almashinuvi masalasiga umuman ahamiyat bermagan bo`lsalar, hind tilshunoslari bu jarayonga alohida e`tibor berganlar, tadqiqot olib borganlar, ayni jarayonning o`ziga xosliklarini aniqlab berganlar. Qiyoslang: sanskrit tiliga oid so`zlarda, masalan, vidma so`zi «biz bilamiz» ma`nosini bersa, veda «men bilaman» tushunchasini, vaidyas so`zi esa «olim», «ilimli» ma`nosini berishini ko`rsatib berganlar. Qayd etilgan ma`no (tushuncha) o`zgarishlari esa i – e - ai unli tovushlarning almashinuvi natijasi ekanligi haqida ishonarli, asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Qadimgi hind tilshunoslari grammatika - morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ular bu yo`nalishda ham grek tilshunoslaridan ancha o`tib ketdilar. Aniqrog`i, hind tilshunosi Guru morfologiyaning uch bo`limdan tashkil topishini aniq ko`rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So`zlar tasnifi (so`z turkumlari). 2. So`z yasalishi. 3. So`z o`zgarishi.

Hindlar to`rtta so`z turkumini farqlaganlar: ot,fe`l, old ko`makchi va yuklama.

Hindlarda ot predmet ifodalovchi, fe`l esa harakat, holat ifodalovchi so`z sifatida beriladi. Old ko`makchilar esa otlarning, asosan, fe`llarning ma`nosini belgilaydi. Yukla-malar esa ma`nolariga ko`ra 1) bog`lovchi va 2) qiyoslovchi kabi turlarga ajratiladi. Olmosh va ravishlar esa ot va fe`l turkumlariga qo`shib yuborilgan, alohida ajratilmagan.

Yunonlardan farqli holda hindlar so`z turkumlarini gap bo`laklaridan farqlaganlar, ya`ni ular bilan qorishtirma-ganlar, adashtirmaganlar. Shunga ko`ra hindlar, yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe`llarni harakat ifodalovchi so`z sifatida «baholaganlar».

Qadimgi hindlar so`zlarni tahlil qilish, tarkibini o`rganish jarayonida ularni quyidagi bo`laklarga ajratganlar: 1) o`zak, 2) suffiks, 3) qo`shimcha (turlovchi qo`shimcha). Shuningdek, so`z yasovchi va so`z o`zgartiruvchi morfemalar farqlangan.

Ovrupo olimlari hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so`zlardan o`zak, so`z yasovchi va so`z o`zgar-tiruvchi morfemalarni ajratishga «kirishganlar».

Hindlar otlarda ettita kelishikni qayd etganlar: 1) bosh kelishik, 2) qaratqich kelishigi, 3) jo`nalish kelishigi, 4) tushum kelishigi, 5) qurol kelishigi, 6) chiqish (ablativ) kelishigi, 7) o`rin kelishigi.

Hind tilshunoslari qo`shma so`zlarning o`ttizga yaqin turini farqlaganlar. Ular qo`shma so`zlarning tuzilishida komponentlar orasidagi munosabatlarga e`tibor berganlar. Masalan: ot+ot//fe`l; sifat// sifatdosh //ravish+ot // sifat//fe`l; son+ot va boshqalar.

Hind grammatikachilari fe`l turkumining morfologik kategoriyalarini mukammal ishlagan edilar. Ular fe`lning uch zamonga birlashadigan etti xil zamon formasini: hozirgi zamon, o`tgan zamonning tugallangan, tugallanmagan, uzoq o`tgan zamon turlarini, kelasi zamon, odatdagi kelasi zamon va juda kam qo`llaniladigan shart fe`li shaklini ajratganlar.

Hindlar qadimgi davrlardayoq fe`lning to`rtta maylini - aniqlik, istak, buyruq va shart mayllarini bilganlar.

Fe'ning aniq, o'rta va majhullik nisbatlari ajratilib, har biri alohida ta'riflangan, tavsiflangan.

Hindlar sanskrit tilida fe'ning uchta shaxs va uchta son: birlik, juftlik va ko'pliklarga ko'ra tuslanishni ko'rsat-ganlar.

Hind tilshunoslari fikr ifodalash birligi bo'lgan gapning muhimligini inkor qilmagan bo'lsalar-da, sintaksis masalalari bilan maxsus shug'ullanmaganlar. Ular sintaksisda so'zlarning birikish tartibi, kelishik, zamon va mayl formalarining birikishi kabi masalalarni o'rganish bilan chegaralanganlar. So'z fikr ifodalash imkoniyatiga ega emas, ya'ni so'z gapdan tashqari mavjud emas deb, gapni tilning asosiy birligi hisoblaganlar.

Xullas, qadimgi hindlar fonetika va morfologiyaga nis-batan sintaksis masalalarida ancha bo'sh bo'lganlar.

Qadimgi yunon tilshunosligi.

Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi.

Faylasuflar va shoirlar vatani bo'lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomo-nidan o'rganilgan.

Yunon faylasuflari til masalalarini o'rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo'nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo'nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy - falsafiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining etakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o'rganish, so'zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug'ullanishga, shu yo'na-lishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo'ldi.

Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo'linadi:

3. Falsafiy davr.

4. Grammatik davr.

1. Tilshunoslikning falsafiy davri. Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g'oyalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo'nalishlar til masalalari bilan faol shug'ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o'ta dolzarb va eng muhim muammolaridan biri so'z muammosi, so'zning tabiiy hodisami? yoki shartli hodisami? ekanligi haqidagi bahs, munozara bo'lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalani hal qilishda tarafma - taraf bo'lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog'i, bu davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi.

Boshqacha aytganda, predmet bilan uning nomi o'rtasida qanday munosabat mavjud? So'zdagi tovush bilan ma'noning bog'lanishi qanday yuz beradi? Bu bog'lanish tabiat tomonidan beriladimi yoki so'zlashuvchilar tomonidan kelishilgan holda yuz beradimi? yoki ma'lum qonun - ko'rsatma bilan tayinlanadimi?, «muayyan urf - odat bilan bog'lanadimi? yoki odamlar tomonidan belgilanadimi. Ya'ni bu jarayon ongli, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladimi? va boshqalar.

Tilshunoslikning falsafiy davrida so'z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarfdorlari quyidagi g'oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o'zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog'lanishda bo'lib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon bo'ladi, «ochiladi». Aniqrog'i, suvda daraxtlar, ko'zguda o'zimiz aks etganidek har bir nom o'zi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anig'i predmet bilan ularni anglatuvchi so'zlar orasidagi bog'lanish tabiat tomonidan berilgan bo'lib, bu bog'lanish tabiiy, zaruriy bog'lanish hisoblanadi.

Xulosa shuki, olamda mavjud bo'lgan barcha narsa -predmetlarning tabiat tomonidan berilgan, o'ziga mos va xos nomlari, «to'g'ri» nomlari bor. So'zlar tabiat tomonidan yara-tilgan. Tabiat har bir predmet uchun alohida nom belgilagan, nom bergan.

Demokrit va uning tarafdorlari esa so'z va predmet munosabati masalasida Geraklit va uning tarafdorlariga qarshi quyidagi g'oyani ilgari suradilar. Ular aytadi: narsa, predmetlarning nomlari, so'zlar ularning tabiatiga qarab, mohiyatiga muvofiq holda qo'yilmaydi, balki nomlash jarayoni odatga ko'ra, odamlarning o'zaro kelishuviga, ular tomonidan belgilanishiga ko'ra amalga oshadi. Demak, predmetlarga nomlar tabiat tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan beriladi.

Demokrit va uning tarafdorlari o'z g'oyalarining to'g'ri-ligini isbotlash uchun yana quyidagi fikrlarni ham bayon qiladilar: 1) ko'p so'zlar bir necha ma'noga ega bo'lib, shunga muvofiq ular turlicha predmetlarni ifoda etadi; 2) ko'pgina tushunchalar bir qancha nomga, atamaga ega bo'ladi; 3) tilning tabiiyligi g'oyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, u holda ko'pgina predmetlarning bir nechta nomga ega bo'lishi mumkin emas; 4) vaqt o'tishi bilan bir so'z o'rniga boshqasi yuzaga keladi. Ya'ni muayyan predmet nomi o'zgarib, boshqa nomga, atamaga ega bo'ladi; 5) ko'pgina tushunchalar so'z ifodasiga, nomga ega emas. Demak, - deydi Demokrit va uning tarafdorlari, bir vaziyatda so'zlar etishmasa, boshqa vaziyatda ular ortiqcha, ko'p. Yana boshqa bir holatda so'zlar qat'iy emas, yana boshqa bir vaziyatda esa so'zlar kamlik qiladi. Demokrit fikricha, bunday holat, asosan, odamlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan yuzaga keladi, tabiat tomonidan emas.

Shunday qilib, Demokrit va uning tarafdorlari narsa, predmet nomlari tabiat tomonidan, tabiiy berilgan emas, degan g'oyani ilgari suradilar va ayni fikrning to'g'riligini tilda mavjud bo'lgan omonim va sinonim so'zlar bilan isbotlaydilar. Haqiqatan, bir-biridan farq qiladigan turli narsalarning nomlari (so'zlar) qanday qilib bir xil (omonim: ot, yosh, qirq, ko'k, son, ko'r, til, ter, qo'y, quv) yoki bir narsaning qanday qilib birdan ortiq nomi (sinonim: bosh, kalla; janjal, g'avg'o, to'palon, g'alva, mashmasha; bo'kmoq, ivimoq; kulmoq, iljaymoq, jilmaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq) bo'lishini Geraklit tarafdorlarining ta'limoti-moslik, «to'g'rilik»

ta`limoti asosida izohlab bo`lmaydi. Chunki sinonimlar tovush tomonidan farqli bo`ladi; agar so`zning tovush tomoni predmetning mohiyati, xususiyati bilan bevosita bog`langan bo`lsa, demak, sinonimlar turli xil xususiyatni ifodalovchi so`zlar sifatida bitta predmetni anglatishlari mumkin emas. Qolaversa, tabiatdagi hamma predmetlar ham o`z nomlariga ega emas.

Tilshunoslikning falsafiy davrida eng dolzarb muammo bo`lgan predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi Platonning «Kratil» nomli asarida ham mukammal bayon qilinadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida til masalalari bilan jiddiy va barakali shug`ullangan oqimlardan biri stoicizm hisoblanadi. Stoicizm ta`limotining vakillari bo`lgan stoiklar: Xrisipp, Krates va boshqalar o`z ta`limotlarida jahondagi nomuvofiqlikka hamma narsalarning maqsadga muvofiq bo`lishini qarama - qarshi qo`yadilar. Shunga ko`ra ular tilni kishilarning ruhida tabiat talabiga ko`ra paydo bo`lgan deyish bilan birga so`z predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi, deb aytganlar. Stoiklar so`zlovchi gapirganida so`z orqali u predmetning tabiati haqida qanday taassurotda bo`lsa, eshituvchida ham xuddi shu xususiyatlar haqidagi taassurot tug`iladi, deb o`ylaganlar.

Stoiklar predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasida Geraklit va uning tarafdorlari ta`limotini quvvatladilar. Ya`ni ular ham predmet va uning nomi (so`z) o`rtasida moslik, muvofiqlik mavjud deb hisoblar edilar.

Ayni vaqtda stoiklarning muxolifi bo`lgan epikur va uning ta`limoti tarafdorlari esa Demokritning fikrini quvvatlab, so`zlar va predmetlar orasidagi aloqa, bog`lanish tabiiy bo`lishi mumkin emas. Chunki narsalarning mohiyati bilan ularning nomi orasida qarama-qarshiliklar juda ko`p, degan fikrni ilgari surganlar.

Epikurchilar predmet bilan uning nomi orasidagi aloqa tasodifiy, bu aloqani dastlab tilni o`zaro kelishuvchilik asosida ijod qilgan kishilar yaratgan. Ana shunday tasodifiylik bo`lmaganida edi, barcha xalqlar bir-birlarining tillariga tushungan bo`lar edi, deyishadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida o`zaro qizg`in kurash olib borgan etakchi oqimlardan, yo`nalishlardan yana biri analogistlar va anomalistlar - qarama - qarshi g`oyadagi faylasuflar guruhi edi.

Ular til hodisalarida analogiya mavjudmi? yoki ano-maliyami?, qonuniyat mavjudmi yoki qonuniyat yo`qmi?, degan fikr bilan qurollanib, til bilan ob`ektiv borliq, so`z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishga kirishadilar.

Mashhur yunon grammatikachisi Aristarx boshchiligidagi analogistlar oqimi tilning grammatik qurilishi va lug`at tarkibi bilan borliq orasida moslik, muvofiqlik - o`xshashlik mavjud, degan g`oyani ilgari surishadi. Ular yunon va lotin tillarida otning uch xil grammatik jinsi (rod): erkaklar jinsi, ayollar jinsi va har ikki jinsga ham tegishli bo`lmagan oraliq jins mavjudligini aytishadi. Shunga ko`ra ular predmetlar erkaklar jinsiga, ayollar jinsiga yoki oraliq jinsga tegishli bo`ladi, deyishadi.

Anomalistlar oqimining etakchisi stoik Krates va uning tarafdorlari esa ushbu g`oyaga zid fikrni, zid g`oyani ilgari surishadi. Ya`ni ular aytadi: tilning tarkibi va grammatik qurilishi bilan borliq orasida to`la moslik, o`xshashlik yo`q; biz doim turli tengsizlikka, moslik me`yoridan chetga chiqish-larga duch kelamiz. Masalan, tildagi uch grammatik jins atrofimizdagi narsalarga real ravishda to`g`ri keladi, deb hisoblash be`manilikdir. Haqiqatan ham, masalan, rus tilidagi cherepaxa (toshbaqa), belka (olmaxon) so`zlari shakliga qaraganda grammatik jihatdan ayollar jinsiga mansub bo`lishi kerak edi. Amalda esa o`sha hayvonlarning erkagi ham, urg`ochisi ham bir xilda cherepaxa, belka deyiladi. Shuningdek, rus tilidagi dyatel (qizilishton) so`zi o`z shakliga ko`ra faqat erkaklar jinsiga nisbatan qo`llanaveradi. Demak, bu erda til anomaliasi mavjud bo`lib, shakl bilan mazmun orasida moslik yo`qdir.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi yunon fay-lasuflari Anaksimn, Prodik, Protagor, Platon, Aristotellar til masalalariga oid asarlar yaratganlar va hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Anaksimn (bizning eramizgacha bo`lgan 560-502y).

U «Riktorika» asari bilan stilistika fanining asosini yaratdi.

Prodik (bizning eramizgacha bo`lgan V asr).

Prodik sinonimika masalalarini ishlab chiqdi. U ma`no jihatdan har bir ma`nodosh so`zning o`ziga xos xususiyatlari-ni, ma`no ottenkalarini, qirralarini farqlashga o`rgatdi.

Protagor (bizning eramizgacha bo`lgan 480-410 y).

Protagor otlarning rodlarini (jinsini), fe`l zamon-larini va gaplarning turlarini farqladi.

Shuningdek, ayni davr faylasuflari ot va fe`llarni farqlab, gapning ot bilan fe`lning bog`lanishidan hosil bo`lishini ta`kidladilar.

Platon (bizning eramizgacha bo`lgan 427-347 y).

O`z davrining dastlabki yirik faylasufi Platon etimologika fanining asoschisi sifatida e`tirof qilinadi. U mantiqli nutqda ikki turdagi so`zlarni: otlarni va fe`llarni farqladi. Gapda ega vazifasida kelgan so`zni ot deb, kesim vazifasida kelgan so`zni fe`l deb, atadi. Fe`lning ot haqida nima tasdiqlanishini anglatadigan so`z ekanligini qayd etdi.

Aristotel (bizning eramizgacha bo`lgan 348-322 y).

O`z davrining ikkinchi buyuk qomusiy olimi - faylasufi Aristotel tilga oid masalalarni mantiq bilan bog`liq holda o`rgandi va u birinchi bo`lib, grammatikani mantiqdan ajratdi.

Aristotel` ham, Platon kabi, ot - egani va fe`l - kesimni tan oldi. Bu guruhga qo`shimcha ko`makchi so`zlarni-bog`lov-chilarni ham kiritdi. Ya`ni so`zlarni uch turkumga: ot, fe`l, bog`lovchi hamda yuklama kabilarga bo`ldi. Ot va fe`llarni mustaqil ma`noga ega so`zlar sifatida, bog`lovchi, yuklamani esa faqat grammatik vazifa bajaruvchi so`z sifatida qayd etdi.

Aristotel o`z davridayoq gapni fikr ifodalovchi nutq birligi deb, ta`rifladi. Shuningdek, u kelishiklar, tovushlar haqida ham ma`lumot berdi. Masalan, u fonetikada unli va undosh tovushlarni ajratdi.

Yuqorida aytilganlardan bir muncha farqli holda tilshunoslikning falsafiy davrida stoiklar nutqda so`zlarni besh guruhga: fe`l, bog`lovchi, artikl`, atoqli otlar va turdosh otlarga ajratdilar.

Shuningdek, ular ushbu soʻzlarning barchasi ham maʼnolidir, deyishdi. Stoiklar otlarda beshta kelishikni farqladilar: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, joʻnalish kelishigi, tushum kelishigi va chaqirish (zvatelʼniuy; chiqish) kelishigi.

Stoiklar oʻsha davrdayoq nutqni ikkiga: tashqi nutqqa va ichki nutqqa boʻlib, oʻrgandilar. Ular yunon tilida 24 ta tovush borligini aytib, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar.

Xullas, tilshunoslikning falsafiy davridan hozirgi tilshunoslik uchun muhim boʻlgan ikki taʼlimot qoldi:

3. Tilning elementlari, birliklari (soʻz va gap) – ishora, belgi.
4. Til birliklari maʼno, fikr bilan shartli bogʻlangan.

2. Tilshunoslikning grammatik davri. Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb yuritiladi. Misr davlatining markazi boʻlgan Iskandariya makedoniyalik Iskandar nomi bilan bogʻliq edi. U bosib olgan Sharq mamlakatlarida yunon tili, madaniyati, falsafasining taʼsiri natijasida yunon madaniyati, Sharq madaniyati bilan qoʻshilib ketib, aralash madaniyat - ellinizm yuzaga keladi.

Iskandariya ellinizm madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Umuman, bizning eramizgacha boʻlgan III asrdan boshlab, birorta ham shahar: na Afina, na Rim yuksak madaniyat namunasi va ilmiy markaz boʻlgan Iskandariya shahri bilan tenglasholmas, raqobat qilolmas edi.

Xullas, yunon tilshunosligi, ayniqsa, ellinizm davrida-yunon - sharq davrida (bizning eramizgacha boʻlgan 334-31y) taraqqiy qildi, rivojlandi.

Aleksandriya grammatika maktabining eng yirik vakillari Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar.

Zenodot (taxminan bizning eramizgacha boʻlgan 250 y).

U 800.000 dan ortiq qoʻlyozma manbalarga ega boʻlgan mashhur Iskandariya kutubxonasining birinchi rahbari. Zenodot va boshqa yunon filologlari Gomer, esxil, Sofokl va boshqalarning asarlari ustida faol tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular ushbu asarlarning lugʻat tarkibi va grammatikasiga oid sharhlar ustida mehnat qildilar. Zenodot artiklni, olmoshlarni farqladi.

Aristarx (bizning eramizgacha bo`lgan 215-143 y).

Iskandariya maktabining eng mashhur va etakchi olimi samofrakialik Aristarx uzoq yillar davomida Iskandariya kutubxonasini boshqardi. U o`zining 40 ga yaqin shogirdlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Ular Gomer asarlarini mukammal o`rganib, tekshirib chiqilgan to`liq matnini yaratishdi.

Aristarx so`z turkumi haqidagi ta`limotni mukammal ishlab chiqdi va sakkizta so`z turkumini ajratdi. Bular: ot, fe`l, sifat-dosh, artikl` yoki ko`rsatkich, olmosh, old ko`makchi, ravish va bog`lovchi.

Dionisiy (bizning eramizgacha bo`lgan 170-90 y).

Aristarxning shogirdi frakialik Dionisiy o`zigacha bo`lgan tadqiqotchilarning ishlari va tajribalarini o`rganib, ulardan foydalanib, rimliklar uchun «Grammatika san`ati» nomli sistemalashtirilgan dastlabki yunon grammatikasini yaratdi.

Dionisiy ta`limotiga ko`ra so`z so`zlashuv nutqining (bog`langan nutqning) eng kichik bo`lagi (qismi)dir. Gap (yoki nutq) esa so`zlarning o`zaro munosabatidan, bog`lanishidan hosil bo`lib, tugal fikr ifodalaydi.

Dionisiy grammatikasida ot turkumi haqida quyidagi fikr beriladi: ot kelishik va songa ko`ra o`zgaruvchi turkumdur. U sifat-larni ham otga kiritadi.

Dionisiy fe`l haqida fikr yuritib, fe`lning kelishiksiz so`z turkumi bo`lib, zamon, shaxs, son, mayl, nisbat, tuslanish va boshqalarga ega ekanligini aytadi. Fe`lning beshta: aniqlik, buyruq, istak, tobelik va noaniqlik mayllarini; fe`lning uchta: harakat, o`zlik va o`rta nisbatlarini; fe`lning uchta: birlik, juftlik va ko`plik sonlarini; fe`lning uchta: birinchi-nutqni so`zlagan, ikkinchi-nutq yo`naltirilgan va uchinchi-so`z yuritilgan (o`zga) shaxslarni qayd etadi. Grammatik zamon esa hozirgi, o`tgan va kelasi zamon kabi turlarga bo`linadi. Sifat-doshlar esa fe`l va otlarga xos bo`lgan belgilarni birlashtiradigan kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Artikl, Dionisiy fikricha, turlanuvchi so`z turkumi bo`lib, u turlangan otdan oldin ham, keyin ham kela oladi. Olmosh ot o`rnida qo`llaniladigan so`z bo`lib, ma`lum shaxslarni ko`rsatadi. Ravish turlanmaydigan so`z turkumidir, fe`l haqida ma`lumot beradi va fe`lga birikadi. Bog`lovchi fikrni ma`lum tartibda bog`laydigan va fikrni ifodalashdagi oraliqlarni ko`rsata-digan so`zdir. Old ko`makchi so`z turkumi

bo`lib, barcha so`z turkumlari oldidan so`z tarkibida ham, gap tarkibida ham keladi. Ya`ni u sintaksisda ham, so`z yasashida ham qo`llaniladi.

Apolloniy Diskol (bizning eramizning II asrining birinchi yarmi)

Apolloniy Diskol bizgacha etib kelgan yunon tili sintaksisini yaratdi. U «Sintaksis haqida» asarida yunon tili sintaksisiga oid ma`lumotlarni berdi.

Iskandariya maktabi vakillari tilning tovush tomoniga ham katta e`tibor berishdi. Ular tovushlarni akustik prinsip asosida tasvirladilar, tovush va harflarni aynan bir narsa hisoblab, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar. Shunga ko`ra harflarni unli tovushlar va undosh tovushlar nomi bilan tasvirladilar. Unli harflarni (tovushlarni) o`z holicha talaf-fuz qilinadigan va o`zini alohida eshitish mumkin bo`lgan tovushlar sifatida, undosh harflarni (tovushlarni) esa unlilar bilangina talaffuz qilinadigan tovushlar sifatida qaradilar. Shuningdek, ular bo`g`in, urg`u haqida ham ma`lumot berishdi.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo`yicha jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va qator asarlar yaratdilar. Yunon tilshunosligida, ayniqsa, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlangan bo`lib, unga nisbatan fonetika va sintaksis masalalari bo`sh tadqiq qilingan. Shuningdek, Iskandariya maktabi vakillari grammatikani falsafadan ajratdilar.

Xullas, qadimda tilshunoslikning Iskandariya davri grammatikani mustaqil fan sifatida yaratdi.

Qadimgi yunon tilshunosligi (grammatikasi) hind tilshunosligi (grammatikasi) bilan bir qatorda o`z davrida arab tilshunosligiga (grammatikasiga) ta`sir qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. T., 200

2. N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizov. Umumiy tilshunoslik. T., 1979.

3. S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.

4.Yo`ldoshev B. Umumiy tilshunoslik asoslari. S., 2005.

2- mavzu	Komparativistika. Naturalizm. Psixologizm oqimlari. F.de Sossyur ta'limoti.
----------	---

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1. Komparativistika oqimi. 2. Naturalizm oqimi. 3. Psixologizm oqimi. 4. F.de Sossyur ta'limoti.
Mashg'ulotning maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
- Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganganlar yuzasidan suhbat; - Talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish;	- Seminar mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; Komparativistika. Naturalizm. Psixologizm oqimlari. F.de Sossyur ta'limoti haqida ma'lumot beradi..
O'qitish usullari	Suhbat, izlanish, mustaqil ish, kuzatish, kichik guruhlarda ishlash metodi.
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar, markerlar, qog'ozlar.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.
O'qitish shakllari	Jamoa va guruhlarda ishlash.

1.2 [.Seminar mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi](#)

1.2. [« Komparativistika. Naturalizm. Psixologizm oqimlari. F.de Sossyur ta'limoti. » mavzusidagi seminar mashg'ulotning texnologik xaritasi](#)

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
Tayyorlov bosqichi	Har bir talaba uchun seminar mashg'ulot mavzusi, rejasi tarqatiladi. Talabalar seminar mashg'ulotga puxta tayyorlanishlari kerakligi aytiladi.	

1-ilova

[Aqliy hujumni olib borish goidalari:](#)

- Hyech qanday o'zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik!
- Taklif etilgan fikrlarni baholashdan o'zini tiyishlik,.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik – hamma fikrlar teng ravishda qadrli.
- Asosiy maqsad fikrning miqdoridadir.
- Qancha ko'p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa, jahl chiqmaslik

2- ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

7. Talabalar ishni badarish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
8. Guruhlariga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
9. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
10. Guruhdagi fikrlar chegaralanmaganligi haqida ogohlantirish lozim.
11. Guruh ish natijalari qanday taqdim etilishini naiq bilishi, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
12. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

Komparativistika. Naturalizm. Psixologizm oqimlari. F.de Sossyur ta'limoti mavzusidagi seminar mashg'ulotning

matni

Reja:

1. Qiyosiy – tarixiy tilshunoslik taraqqiyotining to'rt davri.
2. F.Bopp qiyosiy – tarixiy tilshunoslikning asoschilaridan biri sifatida.
3. R.Rask ilmiy merosi xususida.

4. Y. Grimm va A.X.Vostokovlarning ilmiy faoliyatiga doir.

Asosiy tayanch tushunchalar: Komparativistika haqida, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotining 4 davri, agglyutinatsiya hodisasi, «bobo til» tushunchasining mohiyati.

XVIII asrgacha til o'zgarish hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab, tilga bunday qarash o'zgardi. Ya'ni XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shundaki, u tilga o'zgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog'i, ushbu davrda Sharl` de Bros, Jan-Jak Russo, Monbodd, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g'oyasini qo'llab, uni rivojlantirdilar.

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g'oyasi qat'iy tus oldi. Ya'ni XIX asrning birinchi choragida tilshunoslikda faktlarni yig'ish, ularga e'tibor berish g'oyasidan qiyosiy-tarixiy g'oyaga-nuqtai nazarga burilish, o'tish yuz berdi. Albatta, XIX asrning boshlariga kelib, nuqtai nazarlarning o'zgarishiga lisoniy kuzatishlar, bu kuzatishlardan kelib chiqqan muayyan jiddiy fikrlar sabab bo'ldi. Aniqrog'i, XIX asrdan ancha oldin ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligi aniqlansada, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o'xshashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmadi, olimlar o'xshashlik sabablarini tushuntirib bera olmadi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o'rtasidagi sistematik o'xshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan - bir umumiy qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, tillar o'rtasida o'xshashlik mavjudligi g'oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashish yuzaga kelganligi - til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi bilan, tilshunoslikka romantizm g'oyalarining ta'siri, ya'ni jonli tillarning o'tmishini o'rganishga undash g'oyasi bilan hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o'rtasidagi o'xshashlikni ularning qarindoshligiga ko'ra izohlash mumkinligiga olib keldi.

Masalan, Bengaliyada xizmat qilgan ingliz sharqshunosi va huquqshunosi Vil`yam Djons (1746-1794) sanskrit tilini yunon va lotin tillariga qiyoslab, ular o`rtasida yaqinlik, qarindoshlik borligi haqidagi fikrlarni, ma`lumotlarni qat`iy aytdi.

Nemis olimi Fridrix Shlegel` (1772-1829) esa o`zining mashhur «Hindlarning tili va donoligi» asarida sanskrit tilining na faqat lug`at tarkibida, balki grammatik munosabatida ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligini, ularning kelib chiqishiga ko`ra umumiy asosga egaligini qayd etadi.

Demak, tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat`iy tan olinishiga zamin yaratdi.

Ushbu jarayonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lib, qiyoslash tillarni o`rganishda usul, vosita sifatida, tillarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish esa tadqiqotning prinsipi (bosh g`oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo`ldi.

Ta`kidlash shart, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishigina tilshunoslikning fan sifatida tan olinishiga, boshqa fanlar qatoridan mustahkam o`rin egallashiga olib keldi. Chunki mana shu metodgina til haqidagi fanga chinakam, haqiqiy ilmiylik g`oyasini berdi, ilmiylik ruhini kiritdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo`ldi.

Yeslatish joizki, Mahmud Koshg`ariy, Vil`yam Djons, Fridrix Shlegel` kabi olimlarning ham qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlarini inkor qilib bo`lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning ochilishiga jiddiy, chinakam yaqinlashishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo`lib, ular ijodkor (novator) tilshunoslar sifatida maydonga chiqdi.

Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo`lib, o`z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o`rganib, u yoki bu tilning tarixini, undagi o`zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko`rsatib berish, tushuntirish vazifasini qo`yadi.

Hind-Evropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganish tarixi to'rt davrni o'z ichiga oladi:

1. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidan to yosh grammatikachilargacha bo'lgan davr (XIX asrning birinchi choragi-1870 y).
2. Yosh grammatikachilar davri (1870-1890 y).
3. Yosh grammatikachilar davridan to F de Sossyurning «Umumiy tilshunoslik kursi» asari va xet yozma yodgorliklarini o'qib, ma'nosini ochib berishgacha bo'lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o'n yilligi).
4. F. de Sossyur g'oyalaridan bizning davrimizgacha bo'lgan davr.

Birinchi davr, aytilganidek, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishidan boshlab, yosh grammatikachilargacha bo'lgan davrni, ya'ni taxminan 1816-1870 yillarni o'z ichiga oladi.

Ushbu davrning etakchi, bosh yo'nalishi qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi va umumiy tilshunoslik fanining asoslanishi bo'ldi.

Birinchi davr ikkiga:

1. F. Bopp – V.Gumbol'dt
2. A.Shleyxer – G. Shteyntal bosqichlariga bo'linadi.

Birinchi bosqich (F.Bopp – V.Gumboldt bosqichi).

F.Bopp – V.Gumboltdbosqichi XIX asrning ikkinchi o'n yilligining o'rtalaridan to'rtinchi o'n yillikning oxirlarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Ushbu davr qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi, ochilishi va umumiy tilshunoslik fanining asoslanishi bilan xarakterlanadi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm hamda A.Vostokovlardir.

Frans Bopp. Frans Bopp (1781-1867) buyuk nemis tilshunosi-sanskrit mutaxassisi, Berlin universiteti professori. U 1816 yilda «Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash» asarini yozdi.

F.Bopp qayd etilgan tillarda mavjud grammatik shakllarni-tuslanish formalarini qiyoslash asosida ushbu tillar o'rtasidagi umumiylikni, o'xshashlikni ochib berdi. U

qiyoslash metodi bilan qiyoslanayotgan tillarning dastlabki holatini, ko`rinishini tiklash mumkin, degan fikrni ilgari surdi. Shunga ko`ra 1816 yil to`liq ma`noda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tug`ilish-yaratilish yili deb e`tirof qilinadi.

F.Boppning kashfiyoti, yangiligi nimada? Yuqorida aytilganidek, ko`pgina olimlar V.Djons, Fr.Shlegel` kabilar hind-Evropa tillari bir bobotildan kelib chiqqan, qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi, degan fikrni aytishgan.

F.Boppning xizmati shundaki, u qarindosh tillarning materiallari asosida sistemaga asoslangan, sistema xarakteridagi umumiy nazariyani qurib berdi. U fe`llarning qo`shimchalarini qiyoslab, hayratlanarli darajaga keldi. Ya`ni, ma`lum bo`ldiki, hind-Evropa tillarida nafaqat alohida o`xshash hodisalar mavjud, balki ushbu tillarda o`zaro o`xshashlikning, o`zaro muvofiqlikning butun bir sistemasi-grammatik sistemalarning umumiyligi, o`xshashligi mavjudligi aniqlandi. F.Bopp uchun tillar o`rtasidagi o`zaro muvofiqlik faqat vosita edi, xolos. Maqsad esa boshqa. Ya`ni qiyoslanayotgan tillardagi grammatik shakllarning eng qadimiy, dastlabki ko`rinishini-shaklini ochib berish jarayonida bir tilga xos hodisani boshqa til faktlari yordamida yoritish, tushuntirish edi. Anig`i muayyan tilga oid shakllarni (so`z formalarini) boshqa tildagi shakllar (so`z formolari) orqali tushuntirish, izohlash edi. Ushbu nuqtai nazar F.Bopp tadqiqotlarining yangiligidir. U shu bilan qiyosiy-tarixiy metodning asosini yaratdi.

F.Bopp 1833-1852 yillarda uch tomdan iborat bo`lgan «Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, litva, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi» nomli asosiy asarini e`lon qildi. Bu asarda sanskrit tiliga asoslangan holda ayrim grammatik formalarining taraqqiyotini va ularning dastlabki manbalarini aniqlash mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

F.Bopp o`z ta`limoti, asarlari bilan o`sha davrda ma`lum bo`lgan barcha hind-Evropa tillarining qarindoshligini isbotlab berishga erishdi. Uning izlanishlaridan hali u davrda ochilmagan, noma`lum bo`lgan xet, toxar kabi tillargina chetda qoldi. F.Bopp tilshunoslikka hind-Evropa tillari degan terminni ham olib kirdi.

U o`z tadqiqotlarida, asosan, morfologiya bilan shug`ullandi, fonetika, sintaksis-gap shakllari, qo`llanishi, gap tuzilishi kabi masalalarga e`tibor bermadi.

F.Bopp tillarning qarindoshligi masalasida ham jiddiy xatolarga yoʻl qoʻydi. Yaʼni u kichik Polineziya va janubiy Kavkaz tillarini ham asossiz ravishda hind-Evropa tillariga kiritdi.

Rasmus Rask. F.Bopp bilan deyarli bir vaqtda, ammo unga mutlaqo bogʻliq boʻlmagan holda hind-Evropa tillarining qiyosiy-tarixiy tadqiqi bilan daniyalik buyuk tilshunos prof. Rasmus Xristian Rask ham shugʻullandi.

R.Rask 1811 yilda «Island tili boʻyicha qoʻllanma» nomli birinchi ishini eʼlon qildi. Ushbu tadqiqotidayoq F.Boppdan ham oldin grammatik koʻrsatkichlarni, ayniqsa, qoʻshimchalarni qiyoslashning muhimligini aytib oʻtdi. Ayni vaqtda u, Bopp gʻoyalarini toʻldirgan holda, leksik qiyoslashga ham katta ahamiyat berdi va bu jarayonda dastavval eng zaruriy tushunchalar, hodisalar va predmetlar bilan bogʻlangan leksikani hisobga olinishini toʻgʻri taʼkidladi.

1818 yilda R.Raskning «Qadimgi shimol tili sohasidagi tadqiqot yoki island tilining kelib chiqishi» nomli asosiy asari eʼlon qilindi. U tadqiqotda german, litva, slavyan, lotin va grek tillarining qarindoshligini isbotlab berdi.

Ushbu asarning 2-qismi «Frakiy tili haqida» nomi bilan 1822 yilda nashrdan chiqdi. Ishda island tilining oʻrnini belgilagan holda uning got tillari guruhiga va frakiy (grek va lotin) tillariga boʻlgan munosabatini oʻrganadi.

R.Rask asarlarida soʻzlarning oʻz maʼnolarini oʻzgartirishi mumkinligiga eʼtibor beradi. Shuningdek, tub va oʻzlashgan soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlarini qayd etadi, lisoniy hodisalarni tadqiq qilishda soʻzni mukammal morfologik tahlil qilish lozimligini tavsiya qiladi.

U boltiq tillari slavyan tillari bilan maʼlum bogʻliqlikka ega boʻlsa-da, ammo ayni tillar hind-Evropa tillarining mustaqil shahobchasi, tarmogʻi hisoblanadi, degan haqqoniy fikrni birinchi boʻlib ilgari suradi.

R.Rask, F.Boppdan farqli, hind-Evropa tillarini boshqa til oilalari (masalan, kavkaz-yafetik tillari va Indoneziya tillari) bilan qorishtirmaydi. Shuningdek, u oʻz tadqiqot-larida sanskrit tiliga murojaat qilmaydi.

Xullas, R.Rask tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy metodning va germanistika fanining asoschilaridan biri sifatida faxrli oʻrinni egallaydi.

Yakob Grimm. Mashhur nemis tilshunosi Yakob Grimm (1785-1863) qiyosiy-tarixiy metod yordami bilan german tillarini tadqiq qildi. Ya.Grimmning to'rt tomдан iborat «Nemis grammatikasi» asari tilshunoslik tarixida muhim o'rin tutadi. U ushbu salmoqli asarida nemis tili tarixiy grammatikasini boshqa barcha german tillari bilan qiyoslagan holda beradi.

Asar 1- tomining birinchi nashri 1819 yilda, mazkur tomning butunlay, tubdan o'zgargan ikkinchi nashri 1822 yilda chop etiladi. Ayni tomдан german tillarining tarixiy fonetikasi hamda german tillaridagi undoshlarning siljishi, «ko'chish» qonuni o'rin olgan. Ya'ni Ya.Grimm (R.Rask, Ya.Bredsdorflar kabi) undoshlarning siljishini isbotlab beradi. Masalan, hind-Evropa tillarining nafas tovushlari (yoki nafas bilan aytiladigan tovushlar) yoki portlovchi undoshlar bh, dh, gh – german tillaridagi b, d, g tovushlariga o'zgargan-siljigan, ko'chgan yoki hind-Evropa tillariga oid b, d, g – german tillarida r, t, k ga; hind-evropacha r, t, k – germancha f, th, h ga siljigan, ko'chgan, o'tgan.

Ushbu jarayon fonetik qonunlarning tan olingan dastlabki, birinchi namunasi edi. «Nemis grammatikasi» asarining barcha tomlari 1837 yilda yakunlandi.

Ya.Grimmning «Nemis tili tarixi» asari esa 1848 yilda e'lon qilinadi. U jamiyat tarixini o'rganishda tilning asosiy, eng muhim manba ekanligini aytadi va tilni u yoki bu xalqning madaniy-tarixiy taraqqiyotining mahsuli deb hisoblaydi. Shunga ko'ra Ya.Grimm «Bizning tilimiz bizning tariximizdir» degan g'oyani ilgari suradi. Haqiqatan ham – shunday Ya.Grimm ushbu asarida «Xalqlar haqida suyaklar, qurollar va mozorlarga qaraganda jonliroq guvoh bor. Bu tildir», deydi.

Ya.Grimm «Nemis lug'ati» asarida (birinchi tomi 1854 yilda, oxirgi tomi 1960 yilda e'lon qilindi) nemis shoiri Lyuterdan tortib Gyotegacha bo'lgan nemis tili leksikasini qamrab olishga, ko'rsatib berishga harakat qildi.

Aleksandr Xristoforovich Vostokov. Taniqli rus tilshunos olimi, akademik (1841) A.Vostokov (1781-1864) tug'ma soqov bo'lib, Sankt-Peterburgdagi Rumyancev muzeyi kutubxonasiga boshchilik qilgan.

A.Vostokov slavyan tili materiallari asosida tadqiqot ishlarini olib boradi. U, aytilganidek, qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri hisoblanadi.

Olim «Slavyan tili haqida mulohazalar» (1820), «Rus grammatikasi» (1831), «Viloyat buyuk rus tili tajribasi» (1852) «Cherkov slavyan tili lug'ati» (1858-1861) kabi qator e'tiborga loyiq ishlarni yaratdi.

A.Vostokov tadqiqotlari yangi boy faktik materiallarga asoslangan bo'lib, slavyan tilining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metodning qat'iy qaror topishiga ham imkon yaratdi.

A.Vostokovning 1820 yilda e'lon qilgan «Slavyan tili haqida mulohazalar» maqolasi unga katta shuhrat keltirdi. Olim bu asarida slavyan filologiyasiga oid masalalarga to'xtalib, hind-Evropa tillarining slavyan tillari oilasiga mansub rus tilining eski slavyan, polyak va serb tillariga bo'lgan munosabatini aniqlaydi, izohlaydi.

A.Vostokovning qayd etilgan maqolasi tarixiy fonetika sohasidagi dastlabki ish hisoblanadi.

A.Vostokov 1842 yilda «Rumyancev muzeyidagi rus va slavyan qo'lyozmalarining tasviri» nomli ko'p yillik mehnatining natijasini e'lon qiladi. Ushbu tadqiqotida eski slavyan tilining shahobchalari bo'lgan bolgar, serb, rus va janubiy rus (ukrain) tillarini izchillik bilan farqlaydi. Bu esa amaliyotda eski slavyan tilining taraqqiyoti va undagi o'zgarishlarni davrlashtirishga, ya'ni qadimgi (IX-XIV), o'rta (XV-XVI) va yangi davrlarga bo'lishga imkon beradi.

A.Vostokov slavyan tillariga tarixiylik nuqtai nazardan yondashishni ilk bor boshlab bergan olimdir. U tarixiy principga amal qilgan holda eski slavyan tilidagi burun unlilarini aniqlaydi, ayrim harflarning talaffuzini belgilaydi, so'z turkumlarining (masalan, sifat, ravishdosh-larning) paydo bo'lish vaqti bilan bog'liq ayrim fikrlarni bayon qiladi.

Xullas, Rossiyada qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar, slavyan tillari oilasiga mansub tillarni o'rganish, ayni tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiq qilish, ularni davrlashtirish kabilar dastavval akademik A.X.Vostokov nomi bilan bog'liqdir.

Hind-Evropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganishning birinchi davri, aytilganidek, qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi va umumiy tilshunoslik fanining asoslanishi bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.A.AAmirova, B.A.Olxovikov, YU.V.Rojdestvenskiy. Ocherki po lingvistiki. M., 1975.
2. YA.V.Loya. Istoriya lingvisticheskix ucheniy. M., 1968.
3. Xrestomatiya po istorii yazikoznaniya XIX-XX vekov.M.,1956.
4. N.A.Kondrashov. Istoriya lingvistichevix ucheniy.M.,1979.
5. V.I.Koduxov. Obshee yazikoznanie. M., 1974.
6. S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.

3- mavzu	Til va nutq. Substansiya va forma. Til va nutq birliklari.
----------	--

1.3 Seminar mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi

1.2. «Til va nutq. Substansiya va forma. Til va nutq birliklari.» mavzusidagi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1.Til va nutq. 2. Substansiya va forma. 3.Til va nutq birliklari.
Mashg'ulotning maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
- Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganganlar yuzasidan suhbat; - Talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish;	- Seminar mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; - Til va nutq. Substansiya va forma. Til va nutq birliklari haqida ma'lumot beradi..
O'qitish usullari	Suhbat, izlanish, mustaqil ish, kuzatish, kichik guruhlarda ishlash metodi.
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar, markerlar,qog'ozlar.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.
O'qitish shakllari	Jamoa va guruhlarda ishlash.

seminar mashg'ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
Tayyorlov bosqichi	Har bir talaba uchun seminar mashg'ulot mavzusi, rejasi tarqatiladi. Talabalar seminar mashg'ulotga puxta tayyorlanishlari kerakligi aytiladi.	

ilova

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

4. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1 Talabalarni faollashtirish maqsadida aqliy hujumdan foydalaniladi va uning qoidalari bilan tanishtiriladi. 2.2 Vazifa tushuntiriladi. Guruhlar ishni kuzatadi. 2.3. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi. Mavzuni bayon qilish reglamenti eslatiladi va ularga albatta rioya qilish ta’kidlanadi. 2.3. Faoliyat natijalari taqdimot boshlanadi. Javoblarni to’ldiradi, tuzatishlar kiritiladi.	
5. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzu bo’yicha qisqa xulosalar qilinadi, yakun yasaladi. Guruhlar faol ishtirokini alohida qayd qilib, baholar e’lon qilinadi. 3.2. Mustaqil ish chun topshiriq beriladi.	Eshitadi. Vazifani yozadilar.
6. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1 Talabalarni faollashtirish maqsadida aqliy hujumdan foydalaniladi va uning qoidalari bilan tanishtiriladi. 2.2 Vazifa tushuntiriladi. Guruhlar ishni kuzatadi. 2.3. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi. Mavzuni bayon qilish reglamenti eslatiladi va ularga albatta rioya qilish ta’kidlanadi. 2.3. Faoliyat natijalari taqdimot boshlanadi. Javoblarni to’ldiradi, tuzatishlar kiritiladi.	
7. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzu bo’yicha qisqa xulosalar qilinadi, yakun yasaladi. Guruhlar faol ishtirokini alohida qayd qilib, baholar e’lon qilinadi. 3.2. Mustaqil ish chun topshiriq beriladi.	Eshitadi. Vazifani yozadilar.

- Hyech qanday o'zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik!
- Taklif etilgan fikrlarni baholashdan o'zini tiyishlik,.
- Hamma narsa mumkin.
- Tanqid qilmaslik – hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.
- Asosiy maqsad fikrning miqdoridadir.
- Qancha ko'p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.
- Fikrlar qaytarilsa, jahl chiqmaslik

2- ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

- 1.Talabalar ishni badarish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
- 2.Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
- 3.Kichik guruh oldiga qo'vilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
- 4.Guruhdagi fikrlar chegaralanmaganligi haqida ogohlantirish lozim.
- 5.Guruh ish natijalari qanday taqdim etilishini naig bilishi, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
- 6.Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

«Til va nutq. Substansiya va forma. Til va nutq birliklari » mavzusidagi seminar mashg'ulotning

matni

Rejasi

- 1.Til va nutq.
- 2.Til va nutqning dialektik munosabati.
3. Til tarkibi.
- 4.Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali.
- 5.Nutq faoliyati.
- 6.Til va nutq birliklari.

7. Tovush va fonema

Til va nutq dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo'lib, ayni masala jahon tilshunosligining doimiy diqqat markazida turgan va hozirda ham shunday.

XX asr tilshunosligining — sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezonlari til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi.

Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, professor H.Ne'matovning ma'lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash dastlab U111X asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o'rganish usullarida⁸³ qo'rish mumkin. Professor A.Nurmonovning tadqiqotida esa temuriylar davri o'zbek tilshunosligining sardori bo'lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalari farklangani, alloma shu masalaga alohida e'tibor bergani qayd etiladi.

Til va nutq muammosi umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi bo'lgan Vilgelm fon Gumboldtning tildagi *energeo* (harakat, jarayon, kuch) va *ergon* (mahsulot), tilshunosliqdagi psixologizm oqimining asoschisi G.Shteyntalning tildagi «barqaror mohiyat» va «harakatdagi kuchlar», buyuk nazariyotchi va amaliyotchi tilshunos Boduen de Kurtenening «tildagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik» haqidagi ta'limotlarida ham beriladi.

Ta'kidlash shart, til va nutq dialektik munosabati o'zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy nazariy yechimini tilshunoslyus fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Demak, til va nutq masalasi nafaqat sistem tilshunoslikning, umuman, jahon tilshunosligi fanining hamma davrlaridagi ham diaxron, ham sinxron bosqichlaridagi eng jiddiy nazariy muammosi bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Negaki, tilshunoslikning ushbu o'ta murakkab va o'ta dolzarb muammosisiz nafaqat nazariyumumiy tilshunoslikning, balki xususiyamaliy tilshunoslikning ham qator eng muhim, asosiy masalalarini to'liq, mukammal va obyektiv hal qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra til va nutq dialektikasi jahon tilshunosligi fanining doimiy muammolaridan biri sifatida qolaveradi.

Sho'ro davri tilshunosligida, ayniqsa, 60 yillardan boshlab, til va nutq masalasiga aloxdda e'tibor berila boshladi. Aniqrog'i, F. de Sossyur tomonidan xalqning aloqa qilish, fikr ifodalash vositasining til va nutq deb berilishi, bularning birbiridan farklanishi olimlar o'rtasida fikrlar qaramaqarshiligini tug'dirdi.

Bir qator olimlar til va nutq o'zaro farklanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta obyekt mavjudsir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash, albatta, kerak, bular farqlanadi, degan g'oyani ilgari suradi.

Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mustahkam o'rin egalladi.

Til va nutq dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demak, F.de Sossyur mutlaqo to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir.

Til sistemasining birbiri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan sathlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqgda ushbu satxdarning har biri o'ziga xos sistemaichki sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasisupersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijgimoiy amaliy vazifa bajaradi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqaaralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi. Shunga ko'ra professor. S.Usmonov «Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijgimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichidajamiyatda voqye bo'ladi», deydi.

Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgalar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, professor V.M.Solnsev «Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir» desa, tilshunos B.V.Kosovskiy «til o'zining material mohiyatiga ko'ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi», deb alohida qayd etadi.

Xullas, til supersistemasistemalar sistemasi sifatida jamiyat uchun tarixan mukammal yaratilgan, barchaga birday xizmat qiladigan va barcha uchun umumiy bo'lgan, asosan fikr ifodalash, fikrni moddiy qilish uchun ishlatiladigan alohida so'zlar, gaplar nutq birliklaridan, ifoda vositalaridan, ularning o'zaro mantiqiy bog'lanishi uchun, nutqni qurish uchun xizmat qiladigan qonunqoidalardan tashkil topadi.

Til o'zining jamiyatdagi kommunikativ (informativ, ekspressiv, emotiv, volyuntativ va boshq.) vazifasini qanday ko'rinishda, qanday «qiyofada», qanday shaklda amalga oshiradi?

Ijtimoiypsixik jarayon bo'lgan til o'zining jamiyatdagi kommunikativ, umuman har qanday vazifasini nutq shaklida, nutq ko'rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so'zlashuv, flkr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagima:«dagi mu«#yan ifodasidir, ko'rinishidir, holatidir. Shunga ko'ra, S.Usmonov «Til qachon ma'lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo'lgandagana ma'lum funksiyani bajarishi mumkin»,.

Miyamizda (okgimizda) obyektiv olamning ta'siri tufayli hosil bo'lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijgimoiy ahamiyatga ega bo'lgan til (nutq) orqali voqyelashadi. Yayaa ham aniqrog'i, har qanday fikrni kfodshtash, bashqalar bilan aloqada bo'lish, faqat til materiali orqali amalm oshadigak real, jonli nutq jarayonida sodir bo'lada. Til aloqa quroli, insonlar orasidagi munosabat vositasi deb byaholanishida til materialiga asoslangan nutq ko'zda tutiladi.

Ichki ideal jarayon, tashqimaterial voqyelikka o'tar ekan, aylanar ekan, bu o'tishjarayon faqat nutq asosida, ya'ni hamma vaqt til materialiga suyanadigan nutq orqali amalga oshadi. Nutq uchun esa asos (baza) vazifasini til boyligi, til materiali o'taydi.

Til materialini S.Usmonov ikkiga bo'ladi:

Psixik material. Bu so'z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).

Moddiy material. Bunutq yaratish chog'ida bel gili tovush qobig'iga ega bo'lgan, aniq talaffuz qilinayotgan so'zlar, morfemalar va tovushlar.

Demak, real jonli nutqning real til birliklaridan tashkil topishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Qiyoslang. Bizning davrimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davridir, gapi real nutq bo'lib, u tovush materiyasiga ega bo'lgan real til birliklaridan tashkil topadi. Aniqrog'i, ushbu gap: biz, ning, davr, i, miz, bozor, iqtisod, i, yot, i, ga, o't, ish, davr, i, dir kabi aniq til birliklaridanso'z (leksema) va affiksalar morfemalardan tarkib topgan. Demak, ayni gapni qayd etilgan til birliklarigaso'z (leksema) va affiksalar morfemalarga ajratish, aslida, uni real til birliklariga ajratish demakdir. «Ammo ajratishdan hosil bo'lgan har bir element o'sha nutq o'tib ketganidan keyin o'z material .qobig'ini yo'qotib, ma'lum obrazlar sifatida doimiy ravishda xotirada saqlanadi. Xotiradagi bu elementlar endi moddiy hodisa bo'lmay, psixik hodisadir. Psixik hodisadan esa lozim bo'lganida nutq a'zolarining faoliyati tufayli yana moddiy hodisa hosil qilish mumkin»⁹⁶.

Ma'lum bo'ldiki, psixik hodisa bilan real nutq orasidagi oraliq hodisa xotiradagi real til elementlarining, til birliklarining nutq tuzish vaqgida talaffuz orqali ro'yobga chiqariladigan real ekvivalentlaridir.

Demak, xotiradagi til elementlarining obrazlari nutq faoliyati vaqgida real til elementlariga aylanadi. Zotan real elementlar aslida birlamchi bo'lib, ularning ongdagi (xotiradagi) obrazlari ikkilamchidir va ular real elementlar tufayli hosil bo'ladi.

Til «tashqi» jihatdan ham moddiy, ham psixik hodisa. Uning moddiyligitovush materiyasi bo'lsa, psixik hodisaligi xotirada saklanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko'rinadi. Tildagi moddiylik so'z, so'z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o'ralganligida namoyon bo'ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.

Ma'lum bo'ldiki, tiddan fikr almashuvkommunikasiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqsir. Hozirgi vaqgda nutqning til materiali orqali aloqa qilish jarayoni ekanligi tajriba yo'li bilan ham isbotlg chgan. Masalan, psixolog V.A.Artemov «Eksyayerimental — fonetik va eksperimental — psixologik tadqiqotlar nutqning til orqali aloqa qilish jarayoni ekanligiga bizni ishontirmoqda. Hozirda ko'pchilik psixologlar, usulist va tilshunoslar ushbu fikrga kelishgan»⁹⁹. Demak, til nutq orqali, nutq esa til materiali orqali amalga oshadi.

Akademik I.P.Pavlov tomonidan ikkilamchi signallar sistemasi deb nom olgan tilning nutq bilan chambarchas bog'liqligini yana shundan ham bilish mumkinki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida, odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida vujudga keladi.

Til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma'lum bo'ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqgning o'zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu materialdan fikr shakllantirishdir. F. de Sossyur aytganidek, til bizga nutq tushunarli bo'lishi uchun zarur bo'lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakllanishi uchun zarur. Tarixiy jihatdan nutq faktlari tildan oldin keladi.

Shu o'rinda proffessor. B.A.Serebrennikovning fikrini ham keltirish maqsadga to'la muvofiqsir. U ta'kidlaganidek « til nutq jarayonida foydalaniladi. Har bir nutq

faoliyatida til elementlari ishtirok etadi. Agar til sistem xarakterga ega bo'lsa, nutq ham til elementlari asosida namoyon bo'lgandan keyin sistem xarakterga ega bo'ladi».

Bizningcha ham nutq sistemadir, sistem xarakterga egadir. Ammo u tilga nisbatan ikkinchi darajali sistema bo'lib, til sistemasiga asoslanadi, undan imkoniyat sifatida foydalanadi. Til sistemasi asosida nutqiy sistema, nutq faoliyati, fikrni ifodalash sistemasi yuzaga keladi. Shuningdek, nutq (nutqiy faoliyat) fikrni ifodalash jarayoni ekan, ayni jarayonda ipggarok etuvchi birliklar o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga kirishib, bir butunliknisistemani, masalan, nutqni, gapni hosil qiladi. Qolaversa, nutkdagi — fikr ifodalash jarayonvdagi so'z ham, so'z birikmasi ham, gap ham, matn ham o'ziga xos mikro va makrosistemalardir.

Tilning yashashi, mavjudligi, taraqqiyoti nutq orqali bo'ladi. Masalan, men o'z nutqimda o'zbek tilidan foydalanib gapiryapman, demak, bu o'zbek tilining mavjudligi, uning yashayotganligidir. Demak, tilning har bir aniq ko'rinishi real nutqsir, nutq faoliyatidir.

Jonli nutq yoki real nutq bu tilning mavjudligi, uning faol harakatidir.

Til inson xotirasida mavjud lisoniy (lingvistik) birliklardan va qoidalaridan iborat xazinadir. Nutq esa ushbu birliklarning muayyan qoidalar asosidagi faol harakati, muayyan ijtimoiy vazifa bajarishi, ya'ni nutq jarayondir, amaliyotdir. Til ham, nutq ham ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til va nutq biri ikkinchisi orqali amalga oshadi, ya'ni til nutq orqali, nutq esa til orqali voqyelashadi, namoyon bo'ladi.

Til va nutq o'zaro aloqador, birbiri bilan bog'liq, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan, ammo birbiridan farqyai bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Demak, til va nutq o'zaro bog'liq bo'lgani bilan aynan bir xil narsa emas. Psixolog P.I.Ivanov: «Biz biror kishiga: siz qaysi tilda (yoki tillarda) gaplashasiz deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o'z nutqida qanday til (yoki tillar) dan foydalanishini aniq bilamiz», deydi.

Har bir kishining o'z nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapiradi. Shu bilan birgalikda har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma'naviymadaniy saviyasiga qarab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bundan esa nutqning individualhodisa ekanligi kelib chiqadi. Lekin biz yuqorida til ham, nutq ham ijtimoiy hodisa degan edik. Gap shundaki, nutq haqiqatan ham individual.

Nutq individual o'zining bajarilishiga, sodir bo'lishiga ko'ra, ya'ni u individ, alohida kishi tomonidan amalga oshadi. Ammo o'zining vazifasiga ko'ra esa nutq ijtimoiydir.

Demak, nutq individual deganda, uning individ alohida shaxs tomonidan amalga oshirilishi, bajarilishi ko'zda tutilsa, nutq ijtimoiy deganda, uning ahamiyati, vazifasi, ommaviyligi tushuniladi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tilni ham ma'lum ma'noda individual deyish mumkin. Chunki til materiali (elementlari, birliklari) psixikada, xotiramizda mavjud. Shuning uchun ham S.Usmonov: «Til elementlari jamiyat a'zolarining xotirasida mavjud», deydi.

Demak, til individual nutq shaklida faoliyat ko'rsatadi. Til va nutq ham ijtimoiy, ham individual. Tiddagi ijtimoiylik nutq orqali namoyon bo'ladi. «Tildagi ijtimoiylik yashirin, ichki hodisa bo'lsa, nutqdagi ijtimoiylik tashqi, real hodisadir».

Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya'ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko'ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo'lib, muayyan o'rinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq so'zlovchining, tinglovchining va predmetning fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo'lishini talab qiladi.

Nutq akti hamma vaqg ijodiy akt. Chunki har bir kishi o'z fikrini muayyan shakl so'z, nutq orqali ifodalayotganida o'zining bilimiga, lug'at xazinasiga, hayot tajribasi va madaniy saviyasiga suyanadi.

Nutq harakatchan, dinamik, jonli bo'lsa, til statik, stabildir.

Nutq alohida shaxsga, individga bog'liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog'liq emas.

Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq. A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo'l harakati bilan (jest) yoki qo'l harakatisiz, aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin, tilga bunday ta'rifavsif to'g'ri kelmaydi.

Nutq ham monologik, ham dialogik bo'la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo'la olmaydi.

Til — aloqa quroli, nutq — aloqa usuli.

Til imkoniyat, nutq voqyelik, ta'sirchanlik.

Til umumiylik, nutqxususiylik, alohidalik.

Nutq kelib chiqishiga ko'ra birlamchi, ya'ni oldin nutq — nutq tovushlari paydo bo'lgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan.

Til taxlil qilish yo'li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi.

Tilning xayoti uzoq, xalkring hayoti bilan bog'liq, nugqning hayoti esa qisqa, ya'ni aytilgan vaqgdagina mavjud.

Tilning alohida vazifasi bo'lgan nutq psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik, nutq madaniyati va boshq.), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini o'rganadi), informasiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi.

Til — tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan o'rganiladi.

Demak, jonli nutq, nutq faoliyati tilning mavjudlik va taraqqiy qilish shaklidir. Tilni nutq faoliyatidanutqsa kuzatganimizdagina uning ijtimoiyamaliy vazifa bajarish mexanizmini ochib berish mumkin. Nutq faoliyatidagina til va nutqning o'zaro ta'siri, bog'likligi, aloqasi amalga oshadi.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi.

Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati — faolligi uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- 1.S.Usmonov. Til nazariyasining ba'zi bir masalalari. O'zbek tili va adabiyoti, j. 1970. №2.
- 2.S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.
- 3.YA.VLoya. Istoriya lingvisticheskix uchebniy. M, 1968.
- 4.B.V.Kosovskiy. Общее языкознание. Minsk. 1969.
- 5.V.M.Solnsev. YAznk kak sistemnostrukturnoe obrazovanie. M., 1971.
- 6.H.Ne'matov. O.Bozorov Til va nutq. T., 1993.
- 7.H.Ne'matov. R.Rasulov O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T., 1995.
- 8.AT.Xrolenko. Общее языкознание. M., 1981.
- 9.R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. 1-qism. (Tilshunoslik tarixi). T., 2005.

4- mavzu	Sistema va struktura. Tilning ikki jihat. Paradigmatika va sintagmatika. Lisoniy metodlar. Tipologiya va lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik tasnifi. Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy – tarixiy, chog'ishtirish, distributiv tahlil va boshqalar.

1.4 [Seminar mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi](#)

1.2. «Sistema va struktura. Tilning ikki jihati. Paradigmatika va sintagmatika. Lisoniy metodlar. Tipologiya va lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik tasnifi. Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy – tarixiy, chog’ishtirish, distributiv tahlil

Vaqti: 2 soat		Talabalar soni: 20	
Mashg’ulot shakli		Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg’ulot	
Mashg’ulot rejasi		5. Sistema va struktura. 6. Tilning ikki jihati. 3.Paradigmatika va sintagmatika. 4.Tipologiya va lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik tasnifi. 5.Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy – tarixiy, chog’ishtirish, distributiv tahlil	
Mashg’ulotning maqsadi: mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.			
Pedagogik vazifalar		O’quv faoliyati natijalari	
- Mavzu bo’yicha mustaqil o’rganganlar yuzasidan suhbat; - Talabalarni mustaqil fikrlashga yo’naltirish;		- Seminar mashg’ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko’radi; - Sistema va struktura. Tilning ikki jihati. Paradigmatika va sintagmatika. Lisoniy metodlar. Tipologiya va lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik tasnifi. Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy – tarixiy, chog’ishtirish, distributiv tahlil haqida ma’lumot beradi..	
O’qitish usullari		Suhbat, izlanish, mustaqil ish, kuzatish, kichik guruhlarda ishlash metodi.	
O’qitish vositalari		Tarqatma materiallar, markerlar,qog’ozlar.	
O’qitish shart-sharoiti		Texnik vositalar bilan ta’minlangan va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya.	
Monitoring va baholash		Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish.	
O’qitish shakllari		Jamoa va guruhlarda ishlash.	
Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni		
	O’qituvchi	talaba	
Tayyorlov bosqichi	Har bir talaba uchun seminar mashg’ulot mavzusi, rejasi tarqatiladi. Talabalar seminar mashg’ulotga puxta tayyorlanishlari kerakligi aytiladi.		

8. Kirish bosqichi (10 minut)	1.1 Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini eslatadi va uni qanday tashkil etish va o'quv faoliyati natijalarini aytib o'tadi.	Diqqat bilan tinglaydilar
9. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1 Talabalarni faollashtirish maqsadida aqliy hujumdan foydalaniladi va uning qoidalari bilan tanishtiriladi. 2.2 Vazifa tushuntiriladi. Guruhlar ishni kuzatadi. 2.3. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi. Mavzuni bayon qilish reglamenti eslatiladi va ularga albatta rioya qilish ta'kidlanadi. 2.3. Faoliyat natijalari taqdimot boshlanadi. Javoblarni to'ldiradi, tuzatishlar kiritiladi.	
10. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha qisqa xulosalar qilinadi, yakun yasaladi. Guruhlar faol ishtirokini alohida qayd qilib, baholar e'lon qilinadi. 3.2. Mustaqil ish chun topshiriq beriladi.	Eshitadi. Vazifani yozadilar.

1-ilova

Aqliy hujumni olib borish qoidalari:

<u>- Hyech qanday o'zaro baho bermaslik va tanqid qilmaslik!</u> <u>- Taklif etilgan fikrlarni baholashdan o'zini tiyishlik,.</u> <u>- Hamma narsa mumkin.</u> <u>- Tanqid qilmaslik – hamma fikrlar teng ravishda qadrlidir.</u> <u>- Asosiy maqsad fikrning miqdoridadir.</u> <u>- Qancha ko'p fikr aytilsa, shuncha yaxshidir: yangi va qadrli fikrlarni dunyoga kelish imkoniyati kengayadi.</u> <u>- Fikrlar qaytarilsa, jahl chiqmaslik</u>
--

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1.Talabalar ishni badarish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.

2.Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.

3.Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.

4.Guruhdagi fikrlar chegaralanmaganligi haqida ogohlantirish lozim.

5.Guruh ish natijalari qanday taqdim etilishini natiq bilishi, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.

6.Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

« Sistema va struktura. Tilning ikki jihati. Paradigmatika va sintagmatika. Lisoniy metodlar. Tipologiya va lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik tasnifi. Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy – tarixiy, chog'ishtirish, distributiv tahlil va boshqalar » mavzusidagi seminar mashg'ulotning

matni

Rejasi

Nazariy tilshunoslikning muhim va murakkab muammolaridan bo'lgan sistema hamda struktura munosabatida sistema butunlik — bir butun, yaxlit obyekt sifatida qabul qilinadi. Struktura esa sistemaning — butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan, sistemani sistema qiluvchi birbiri bilan zaruriy bog'langan elementlar, bo'laklarning o'zaro bog'lanish tartibi, chizmasi sifatida voqyelanadi. Boshqacha aytganda, sistema (yunoncha) elementlardan qismlardan, bo'laklardan iborat butunlik bo'lsa, struktura (yunoncha) o'zaro bog'liqlik, ichki aloqatuzilish, qurilish demakdir. Struktura sistemani — bir butun obyektini tashkil qilgan elementlar, qismlar orasidagi ichki aloqa, munosabatlardir. Anig'i, sistema — butunlik, struktura qismlilik. Sistema — umumilik, struktura — xususiylilik. Sistema elementlar aloqasining, bog'liqligining tugallangan nuqqasi, yaxlitligi. Struktura — elementlar aloqasining boshlang'ich nuqqasi, ularning dastlabki hator ichki bog'lanishi, munosabati. Sistema sintetik, struktura analitik tushunchalardir.

Sistema elementlari orasidagi munosabatlarning jami uning — sistemaning strukturasini hosil qiladi.

Demak, sistema va struktura terminlari sinonim tushunchalar bo'lmay, har biri o'ziga xos xususiyatlariga, jihatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi, nisbiy mustaqil hisoblanadi. Sistema va struktura o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan falsafiy kategoriyadir.

Sistema va struktura munosabatida bir butun obyekt va shu obyektning tuzilishini ta'minlovchi, uning tarkibi (atributi) bo'lgan elementlar, qismlar aniq,

obyektiv namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra har bir sistema unda elementlar, qismlar mavjudligiga va ajralishiga ko'ra alohida hisoblanadi. Anig'i, alohidalik har qanday sistemaning eng muhim xususiyatidir.

Qiyoslang, quyosh sistemasi, o'simliklar sistemasi, tirik organizmlar sistemasi, transport sistemasi, ta'lim sistemasi, tarbiya sistemasi va boshqalar.

Sistema muayyan butunlik, obyekt sifatida elementlarni, qismlarni, bo'laklarni va ularning o'zaro aloqasini o'z tarkibiga olsa, struktura ayni obyektning, butunlikning ichki tuzilishi, tartibi, tashkil topishi sifatida farqlanadi.

Professor V.M.Solnsev: 1) elementlar, qismlar va ularning o'zaro aloqalari kategoriyani — sistemani yoki bir butunlik sifatidagi obyektning tashkil qiladi; 2) ichki aloqalarning jami, yig'indisi kategoriyani — sistemaning, butunlikning atributi sifatida strukturani hosil qiladi, deydi. Demak, sistema elementlari, qismlari va sistema strukturalari birgalikda sistemani yuzaga keltiradi. Struktura muayyan sistemaning ichki shaklidir.

Xullas, sistema va struktura tushunchalari, aytilganidek, o'zaro bog'liq bo'lib, har biri o'ziga xos tomonlari, jihatlari va xususiyatlari bilan mustaqil bo'ladi, nisbatan ajralib turadi.

Sistema va struktura tushunchalari tabiat va jamiyat bilan bog'liq jarayonlarga, predmet va hodisalarga xosligi, keng qamrovli, murakkab kategoriya ekanligi, obyektiv borliqni ilmiynazariy, falsafiy o'rganish hamda tushunishda yetakchilik qilishi bilan fan olamida qudratli kategoriya sifatida xizmat qiladi.

Obyektiv borliq sistemalardan iborat ekan, ayni sistemalarni mohiyatan ikki asosiy turga, guruhga aj

ratish mumkin: a) moddiy (material) sistemalar; b) ma'naviy (ideal) sistemalar.

Material (moddiy) sistemalar o'zaro munosabatdagi muayyan material elementlardan iborat sistemadir. Material sistemalar belgi va xususiyatlariga ko'ra cheksiz, turlichadir. Chunki bu sistemani hosil qiluvchi elementlar va ayni elementlar orasidagi aloqa va munosabatlar cheksiz, turlitumandir.

Moddiy sistema sifatida, masalan, toshni, binoni, daraxtni olish mumkin. Toshda elementlar — molekulalar moddaning shu modda asosiy kimyoviy xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik zarrasi; molekula o'zaro kimyoviy bog'langan bir xil yoki turlicha atomlardan iborat bo'ladi (atom kimyoviy elementning eng mayda zarrasi). Atom yadrodan va elektronlardan tuzilgan murakkab sistema bo'lib, atom yadrosining o'zi esa proton va neytronlardan iborat va ular orasida aloqalar (molekulyar aloqalar) mavjud.

Har qanday materiadsan tayyorlangan inshoot, qurilma, imorat, binoni material sistema deb hisoblash mumkin. Chunki u o'zaro aloqada, o'zaro bog'liq bo'lgan qismlardan, bo'laklardan tashkil topadi.

Har qanday jonli organizmni material sistema deb hisoblash mumkin. Shuningdek, odamlarning tartibga solingan qo'shilmalaridagi harbiy qo'shilma, bo'linmarazvedka bo'linmasi, o'qchi bo'linma, sport bo'linmasi va boshqalar ham o'ziga xos moddiy sistemadir.

Tarkibiy qismlarga ajraluvchi, tartibga solingan har qanday obyekt material sistema sifatida olinishi mumkin.

Sistemani tashkil qilgan moddiy elementlarning yig'indisi shu sistemaning moddiy asosini (substansiyasini) hosil qiladi. Boshqacha aytganda, material sistemaning moddiy asosi (substansiyasi) sistemaning

elementlaridan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra material sistemaning elementlari haqida gapirganda, muayyan ma'noda, uning substansiyasini nazarda tutish mumkin; substansiya haqida gapirganda esa uning (material sistemaning) elementlarini nazarda tutish mumkin. Ammo substansiya va element tushunchalari bir xil emas.

Material sistemalar birlamchi material sistemalar deb nomlanadi. Ular kishilar faoliyatiga ko'ra (masalan, mashina, bino) yoki ularning faoliyatisiz faoliyatiga bog'liq bo'lmagan hodsa (masalan, yulduzlar sistemasi, yer sistemasi) paydo bo'ladi.

Material sistemalardan farqli ideal sistemalar ham bo'lib, ular shunday sistemalarki, ayni sistemalarning elementlari ideal sistemalardir, ya'ni o'zaro muayyan munosabatlar bilan bog'langan muayyan g'oya, tushuncha yoki fikrlardir.

Ideal sistema sifatida u yoki bu asar goyalari sistemasini, u yoki bu fan tushunchalari sistemasini olish mumkin.

Ideal sistemalar material sistemalardan farqli holda hamma vaqg kishilarning faoliyatiga, anig'i ularning fikriy faoliyatiga ko'ra yuzaga keladi. Ular muayyan (biror) moddiy substansiyadan asosdan tashqarida mavjud bo'lmaydi.

Ideal sistemalar material substansiya, ya'ni insonning miya a'zosimiyaning fikrlashi orqali hosil bo'ladi va material substansiyada (har qanday materiyada) mustahkamlanadi, «qotiriladi».

Ideal sistema (tushuncha yoki g'oyalar sistemasi) axborot (informasiya), semantik informasiyaning ko'rinishlaridan, turlaridan biri bo'lgan sistemadir. U biror boshqa material substansiyada (uni o'zida tashuvchida) mustahkamlanadi.

Demak, aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ldiki, ideal sistemalarni o'zida saqlovchi yoki tashuvchi maxsus, alohida material sistemalar mavjud. Ushbu material sistemalar nima? Ular nimalardan tashkil topadi, degan mantiqiy savol tug'iladi.

Bunday sistemalar, anig'i, material sistemalarikkilamchi material sistemalar deb nomlanib, ular semantik informasiyani (g'oyalar, tushunchalar sistemasini) o'zida mustahkamlash, saqlash, qayd etish va ifodalash vositasi sifatida faqat inson faoliyati tufayli yuzaga keladi. Ularikkilamchi material sistemalar tushuncha yoki g'oyalarni bir insondan boshqasiga yetkazish, berish, kishilarning o'zaro fikr almashish vositasi sifatida yuzaga keladi. Bunday sistemalar belgilar sistemasi yoki semiotik sistemalar deb yuritiladi. Til ana shunday sistemagabelgilar sistemasi yoki semiotik sistemaga kiradi.

Ikkilamchi material sistemalarning elementlari (birliklari) belgi sifatida, ya'ni moddiy elementlar sifatida o'zicha emas, balki o'zidan tashqaridagi biron narsapredmetni ifoda etishiga, anglatishiga ko'ra ahamiyatga ega bo'ladi. Bu barcha

ikkilamchi moddiy sistemalarning umumiy xususiyati bo'lib, shunga qo'ra ular semiotik birliklar yoki belgilar deb yuritiladi.

Demak, ikkilamchi material sistemalarning material substansiyasi. biror ideal sistemani o'zida qayd etish, «aks ettirish», mustahkamlash vazifasini bajaradi. Bu mustahkamlash kishilar faoliyati orqali amalga oshib, sistemaning alohidaligiga (diskretligiga) ko'ra shunday yuz beradi.

Jamiyat muayyan tushuncha yoki g'oyalar sistemasini (semantik informatsiya sistemasini) o'zida saqlash va ifodalash vazifasiga ega ikkilamchi moddiy (material) sistemalardan — moddiy elementlardan ijtimoiy — amaliy maqsadlar uchun faol foydalanadi.

Ikkilamchi material sistemalar muayyan xususiyatlarga, jihatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar, aytilganidek, ularning ushbu material sistemalarning substansial tabiatiga xos bo'lmaydi, ularda bevosita, mohiyatan mavjud bo'lmaydi. Masalan, qizil rang o'zicha man qilish, ko'k rang o'zicha ruxsat berish xabarini ifodalaydi. Ularga ko'cha harakatlarini boshqarish signallar sistemasining man etish va ruxsat berish axboroti yuklatilgan, shunday vazifa berilgan, «buyurilgan».

Ideal sistemaning biror ko'rinishiga, xiliga (obyektiga) ikkilamchi material sistemaning biror obyektiga muvofiq keladi: yurishga ruxsat axborotiga (ideal sistemaga) ko'k rang material obyektiga; o'rin, chiqish axborotiga; dan; ko'plik informatsiyasiga — lar kabi moddiy birliklari to'g'ri keladi.

Ikkilamchi moddiy sistemalar moddiy asosining (substansiyasining) birinchi vazifasi g'oya, fikr, tushuncha ifodalashdan iboratdir. Ikkilamchi material sistemalar material substansiyasining ikkinchi eng muhim vazifasi ideal sistemalar (tushuncha, g'oya, fikrlar) elementlarini o'zaro differentsiatsiya qilishda, farqlashda ko'rinadi.

Tilda ham xuddi shunday. Masalan, bilan so'zining tilda ko'makchi yoki bog'lovchi sifatida qo'llanishi uning fizik, substansial xususiyatiga bog'liq emas, uning mohiyatidan kelib chiqmaydi: olma bilan anor. Balki bunday xususiyat (ko'makchi, bog'lovchi bo'lish) unga yuklatilgan, «yozib qo'yilgan» va bu xususiyat ijtimoiy amaliyot orqali mustahkamlangan.

I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha inson obyektiv borliqni ikki xil yo'l bilan qabul qiladi: 1) predmet hodisalarning kishi sezish (eshitish, ko'rish, ta'm bilish) a'zolariga bevosita ta'siri orqali — birinchi

signallar sistemasi va 2) so'zlarning ta'siri orqali — ikkinchi signallar sistemasi.

Birinchi signallar sistemasi insonlarga ham, hayvonlarga ham tegishli bo'lsa, ikkinchi signallar sistemasi faqat insonga xosdir. Demak, til ikkilamchi belgilar sistemasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi.

Xullas, til o'ziga xos strukturaga (tuzilishga) ega bir butun sistemadir. Til o'zaro uzviy bog'liq va birbirini taqozo etadigan moddiy birliklarning yig'indisidan tashkil topgan, o'ziga xos qurilishga ega bo'lgan murakkab sistemadir.

Til sistemasini tashkil etgan til birliklari, ularning o'zaro munosabati, birbiri bilan bog'lanish qonunqoidalari tilning strukturasi tashkil etadi.

Til sistemasi strukturasi ko'ra juda murakkabligi, ko'p sathdigi (yarusligi) bilan ajralib turadi. Tilning birbiri bilan uzviy bog'liq fonetik tomoni, leksikasi, morfologik va sintaktik qurilish strukturasi qatlamlari bo'lib, bular birgalikda, dialektik

bog'liqliqsa «yashaydi», bir butunlikni tashkil qiladi, til sistemasini tuzib, uning mavjudligini (obyektivligini) ta'minlaydi.

Tilning har bir birligi, elementi butunlikning qismi sifatida sistema tarkibiga kiradi. U til sistemasining boshqa birliklari va elementlari bilan bevosita yoki bivosita til kategoriyalari orqali bog'langan bo'ladi.

Til sistemasi tuzilishiga ko'ra ham, vazifasiga qo'llanish va rivojlanishiga ko'ra ham murakkab hamda ko'p tarmoqlidir.

Til sistemasining har bir sathi: fonetik, leksik, grammatik yaruslari o'ziga xos sistema bo'lib, ular ham muayyan qismlardan, struktural elementlardan moddiy birliklardan tashkil topadi, muayyan ijtimoiy vazifa

bajaradi. Demak, aytilganlarga ko'ra tilni sistemalar sistemasi deb aytish mantiqan to'g'ridir. Til sistemasi sathdariga ichki sistemalariga nisbatan makrosistema bo'lsa, uning ichki yaruslariqatlamlari unga nisbatan mikrosistema sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, falsafiy ma'noda har qanday makrosistemaning ichki qurilishi, tashkil topishi mikrosistemalardan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar

N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar. M., 1971.

O.S.Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov. M., 1966

D.E. Rozental. M.A.Telenkova. Slovar spravochnik lingvisticheskix terminov. M., 1976

V.M. Solnsev. YAznk kak sistemnostrukturnoe obrazovanie. M., 1971.

Obshee yazjovanie. Vnutrennyaya struktura yaznka. M., 1972.

S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1971.

V.I.Koduxov. Obshche yazыkoznanie. M., 1974.

B.I.Kosovskiy. Obshche yazыkoznanie. Minsk. 1969.

A.G.Xrolenko. Obshche yazыkoznanie. M., 1981.

YU.S.Stepanov. Osnovi obshchego yazыkoznaniya. M., 1975.

R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. 1qism. T.,2005.

Mustaqil ishlarni tashkil qilish texnologiyasi

<u>Mavzu №1</u>	<u>Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari va kursi haqida.. 1</u>
------------------------	---

O'qitish texnologiyasinig modeli

Mashg'ulot turi	Mustaqil ta'lim
<i>Mustaqil ta'lim maqsadi:</i> talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, manbalar bilan ishlash, kutubxona va internetdan mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq va keng ma'lumotlarni izlab topish va to'plash, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish kabi ishlarni bajarishga o'rgatish, olingan ma'lumotlarni konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin	

ifodalash, referat tayyorlash va uni ekspertlar ishtirokida himoya qilish, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash uchun imkoniyat yaratish, mustaqil ta'lim olishga tayyorlash	
<i>Pedagogik maqsadlar:</i> mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish Umumiy tilshunoslikning asosiy muammolari va kursi haqida tushunchaga ega bo'lish.	<i>Amaliy faoliyat natijalari:</i> manbalar bilan ishlash va ma'lumotlarni izlab topishda yo'l-yo'riqlar beradi olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olishni tushuntiradi mavzuga aloqador kerakli ma'lumolarni konspektlashtirish qonun-qoidalarini tushuntiradi mavzusi bo'yicha tayyorlanadigan referatlarga qo'yiladigan talablarni tanishtiradi referat tayyorlash qonun-qoidalarini tushuntiradi kutilayotgan maqsadni bayon etadi muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali tomonlarini qanday ajratib olish lozimligini tushuntiradi topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beradi bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasini nazorat qiladi
<i>Ta'lim metodlari</i>	Mustaqil
<i>Ta'lim shakli</i>	Kichik guruhlarda, juftlikda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Slaydlar, mavzu bo'yicha portfolio tuzish, referat, tarqatma materiallar
<i>Ta'lim sharoitlari</i>	ARM, Tarjima laboratoriyasi
<i>Monitoring i baholash</i>	Og'zaki savol-javob, yozma topshiriqlar, Referat, Prezentasiyalar, Kurs ishlari

<u>Mavzu №2</u>	<u>Umumiy tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi.</u>
------------------------	--

O'qitish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot turi	Mustaqil ta'lim
<i>Mustaqil ta'lim maqsadi:</i> talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, manbalar bilan ishlash, kutubxona va internetdan mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq va keng ma'lumotlarni izlab topish va to'plash, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish kabi ishlarni bajarishga o'rgatish, olingan ma'lumotlarni konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, referat tayyorlash va uni ekspertlar ishtirokida himoya qilish, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash uchun imkoniyat yaratish, mustaqil ta'lim olishga tayyorlash	
<i>Pedagogik maqsadlar:</i> mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish Umumiy tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligini mustaqil tushunib yetish.	<i>Amaliy faoliyat natijalari:</i> manbalar bilan ishlash va ma'lumotlarni izlab topishda yo'l-yo'riqlar beradi olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olishni tushuntiradi mavzuga aloqador kerakli ma'lumotlarni konspektlashtirish qonun-qoidalarini tushuntiradi mavzusi bo'yicha tayyorlanadigan referatlarga qo'yiladigan talablarni tanishtiradi referat tayyorlash qonun-qoidalarini tushuntiradi kutilayotgan maqsadni bayon etadi muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali tomonlarini qanday ajratib olish lozimligini tushuntiradi topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beradi bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasini nazorat qiladi
<i>Ta'lim metodlari</i>	Mustaqil
<i>Ta'lim shakli</i>	Kichik guruhlarda, juftlikda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Slaydlar, mavzu bo'yicha portfolio

	tuzish, referat, tarqatma materiallar
<i>Ta'lim sharoitlari</i>	ARM, Tarjima laboratoriyasi
<i>Monitoring i baholash</i>	Og'zaki savol-javob, yozma topshiriqlar, Referat, Prezentasiyalar, Kurs ishlari

<u>Mavzu №3</u>	<u>Ayni fanning tilshunoslik tarixi, tilshunosliknng nazariy masalalari</u>
------------------------	---

O'qitish texnologiyasinig modeli

Mashg'ulot turi	Mustaqil ta'lim
<i>Mustaqil ta'lim maqsadi:</i> talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, manbalar bilan ishlash, kutubxona va internetdan mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq va keng ma'lumotlarni izlab topish va to'plash, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish kabi ishlarni bajarishga o'rgatish, olingan ma'lumotlarni konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, referat tayyorlash va uni ekspertlar ishtirokida himoya qilish, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash uchun imkoniyat yaratish, mustaqil ta'lim olishga tayyorlash	
<i>Pedagogik maqsadlar:</i> mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, umumiy tilshunoslik fanining tilshunoslik tarixi bilan bog'liqligi, tilshunosliknng nazariy masalalari anglab yetish.	<i>Amaliy faoliyat natijalari:</i> manbalar bilan ishlash va ma'lumotlarni izlab topishda yo'l-yo'riqlar beradi olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olishni tushuntiradi mavzuga aloqador kerakli ma'lumolarni konspektlashtirish qonun-qoidalarini tushuntiradi mavzusi bo'yicha tayyorlanadigan referatlarga qo'yiladigan talablarni tanishtiradi referat tayyorlash qonun-qoidalarini tushuntiradi kutilayotgan maqsadni bayon etadi muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali tomonlarini qanday ajratib olish lozimligini

	tushuntiradi topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beradi bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasini nazorat qiladi
<i>Ta'lim metodlari</i>	Mustaqil
<i>Ta'lim shakli</i>	Kichik guruhlarda, juftlikda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Slaydlar, mavzu bo'yicha portfolio tuzish, referat, tarqatma materiallar
<i>Ta'lim sharoitlari</i>	ARM, Tarjima laboratoriyasi
<i>Monitoring i baholash</i>	Og'zaki savol-javob, yozma topshiriqlar, Referat, Prezentasiyalar, Kurs ishlari

<u>Mavzu №4</u>	<u>Jaxon tilshunosligining tarixiy bosqichlari.</u>
------------------------	---

O'qitish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot turi	Mustaqil ta'lim
<i>Mustaqil ta'lim maqsadi:</i> talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, manbalar bilan ishlash, kutubxona va internetdan mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq va keng ma'lumotlarni izlab topish va to'plash, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish kabi ishlarni bajarishga o'rgatish, olingan ma'lumotlarni konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, referat tayyorlash va uni ekspertlar ishtirokida himoya qilish, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash uchun imkoniyat yaratish, mustaqil ta'lim olishga tayyorlash	
<i>Pedagogik maqsadlar:</i> mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, umumiy tilshunoslik Jaxon tilshunosligining tarixiy bosqichlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish.	<i>Amaliy faoliyat natijalari:</i> manbalar bilan ishlash va ma'lumotlarni izlab topishda yo'l-yo'riqlar beradi olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olishni tushuntiradi mavzuga aloqador kerakli ma'lumotlarni konspektlashtirish qonun-qoidalarini tushuntiradi mavzusi bo'yicha tayyorlanadigan referatlarga qo'yiladigan talablarni tanishtiradi

	referat tayyorlash qonun-qoidalarini tushuntiradi kutilayotgan maqsadni bayon etadi muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali tomonlarini qanday ajratib olish lozimligini tushuntiradi topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beradi bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasini nazorat qiladi
<i>Ta'lim metodlari</i>	Mustaqil
<i>Ta'lim shakli</i>	Kichik guruhlarda, juftlikda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Slaydlar, mavzu bo'yicha portfolio tuzish, referat, tarqatma materiallar
<i>Ta'lim sharoitlari</i>	ARM, Tarjima laboratoriyasi
<i>Monitoring i baholash</i>	Og'zaki savol-javob, yozma topshiriqlar, Referat, Prezentasiyalar, Kurs ishlari

<u>Mavzu №5</u>	Qadimgi Hind, Xitoy, Yunon, Rim, Arab, Yevropada uyg'onish davridagi, Sobiq sho'rolar davri, hozirgi o'zbek tilshunosligi.
------------------------	---

O'qitish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot turi	Mustaqil ta'lim
